


CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK

11



Ulug'bek Mamadaliyev, Akram Uzoqov,
Abdulxoshim Sotvoldiyev, Nodirjon Jalilov

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK

11-sinf

Yangi nashr

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

*O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
nashrga tavsiya etgan*

Toshkent – 2025

11/86

UO'K 355.211.5(075.3)
KBK 68.49ya72
Ch 31

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik 11 [Matn]: darslik / U.O.Mamadaliyev, A.A.Uzoqov, A.Y.Sotvoldiyev, N.A.Jalilov, muharrir V.Z.G'aniyev. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2025. – 160 b.

Mualliflar:

Mamadaliyev Ulug'bek Odilovich, Uzoqov Akram Avazovich,
Sotvoldiyev Abdulxoshim Yuldashovich, Jalilov Nodirjon Azamatovich

Mas'ul muharrir

Qarshiyev Xamdam Aliqulovich

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining tarbiyaviy
va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari, general-mayor,
harbiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

Taqrizchilar:

- | | |
|---------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Qodirov Akmaljon
Rasulovich | – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi boshlig'ining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha o'rinbosari. |
| Sherbayev Murodjon
Raximjanovich | – Toshkent kimyo xalqaro universiteti mashinasozlik texnologiyasi kafedrasida dotsent v.b. |
| Usmanova Elmira
Tashmuxametovna | – Sergeli Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumining bosh o'qituvchisi. |
| Mardanov Ravshan
Xalil o'g'li | – Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 114-umumiy o'rta ta'lim maktabi CHQBT rahbari. |
| Yagmurov Azamat
Rizamatovich | – Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi 10-umumiy o'rta ta'lim maktabi CHQBT rahbari. |

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi xulosasi asosida takomillashtirildi.

SHARTLI BELGILAR:



– dars davomida



– ma'lumot uchun



– o'ylab ko'ring



Harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, maktablarda boshlang'ich harbiy ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash ishlarini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratamiz.

Shavkat Mirziyoyev,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni



VATANGA QASAMYOD

Men, (famiyasi, ismi, otasining ismi), O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga kirar ekanman, davlatim timsoli bo'lmish muqaddas bayroqni o'pib, buyuk ajdodlarimning pok ruhlari oldida Vatanim oldidagi burchimni halol bajarishga bel bog'lab, vijdonim, or-nomus va sha'nimni o'rtaga qo'yib:

O'zbekiston Respublikasiga, xalqimga va Prezidentimga bir umr sodiq bo'lishga;

Vatanimning mustaqilligini, uning sarhadlarini, ona xalqimning tinchligi va osoyishtaligini, milliy manfaatlarini so'nggi nafasimgacha himoya qilishga;

O'zbekiston Respublikasiga qarshi qaratilgan har qanday tajovuz va g'arazli harakatlarga qarshi ayovsiz kurashishga;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlari va umumharbiy nizomlarga qat'iy amal qilishga, davlat va harbiy sirlarni saqlashga;

quruqlikda, suvda, havoda – har qanday sharoitda ham o'z burchimni vijdonan bajarishga;

har qanday mashaqqatli sinov va qiyinchiliklarda ham el-yurtimning yuksak ishonchini oqlashga tantanali ravishda qasamyod qilaman!

MUNDARIJA

I BOB.

SAF TAYYORGARLIGI

1. Guruhning saf tortishi7
2. Guruh orasidagi masofani kengaytirish va qisqartirish..... 10
3. Guruh tarkibida saf amallarini bajarish. 12
4. Guruhning yurish safi..... 14
5. Guruh tarkibida harakatlanish va salomlashish..... 17
6. Guruhning tantanali yurishi va saf qo'shig'i bilan harakatlanishi.. 19
7. Qurol bilan qad rostlab turish.....21
8. Saf amallarini qurol bilan joyida turib bajarish...23

II BOB.

YO'NALTIRILGAN JISMONIY TAYYORGARLIK

9. To'siqlar yo'lagidan o'tish mashqini bajarish.....25
10. Qo'l bilan zarba berish va qaytarish usullari.....28
11. Oyoq bilan zarba berish va qaytarish usullari.....31
12. Qo'l, oyoq bilan zarba berish va qaytarish usullari.....33
13. Raqib changalidan xalos bo'lish usullari.....35
14. Raqibni yerga qulatish usullari.....37
15. Og'ritish usullari.....40

III BOB.

HARBIY XIZMAT ASOSLARI

16. Ichki xizmat Nizomi, harbiy xizmatchilarning huquq va majburiyatlari.....43
17. Yakkaboshchilik, komandirlar va bo'ysunuvchilar.....46
18. Harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar.....49
19. Vaqtning taqsimlanishi va kundalik tartib51
20. Sutkalik naryad.....55
21. Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomi, qorovul va uning vazifalari.....57
22. Soqchi va uning majburiyatlari.....59
23. Mudofaa vazirligi tizimidagi ta'lim tashkilotlari.....63

IV BOB.

FUQARO MUHOFAZASI

24. Zilzila vaqtida harakatlanish.....66
25. Ko'chki va suv toshqinlarida harakatlanish69
26. Kuchli shamolda, jalada, issiq va sovuq vaziyatlarda harakatlanish71

27. Transport vositalari bilan bog'liq avariyalarda harakatlanish	74
28. Radioaktiv va zaharli moddalardan muhofazalanish	78
29. Gidrotexnik inshootlar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar	81
30. Yong'in va uning oqibatlari	84
31. Yong'inda harakat qilish tartibi	87
32. Ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlar	89
33. Terror sodir bo'lganda harakatlanish.....	91

V BOB. TIBBIY BILIM ASOSLARI

34. Elektr tokidan zararlanganda va kuyishda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish	93
35. Avtohalokatda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.....	95
36. Bosh va tayanch-harakat apparati shikastlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish	98
37. Paylar cho'zilishi va bo'g'imlar chiqishida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish	102
38. Bo'yin, bel, tos va chanoq suyagi sohalari shikastlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish	106
39. Ko'krak, qorin sohasi jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish	109
40. Yuqumli kasalliklar va ularning kelib chiqish omillari.....	113
41. Is gazi, ovqat va texnik suyuqliklardan zaharlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish	116
42. Zaharli ilon va hasharotlar chaqqanda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.....	120

VI BOB. OTISH TAYYORGARLIGI

43. Otish hodisasi va davrlari.....	124
44. Trayektoriya va uning elementlari	127
45. Nishongacha bo'lgan masofani aniqlash va to'g'ri mo'ljalga olish	131
46. Pnevmatik quollar va ulardan otish qoidalari	135
47. Pnevmatik quoldan otish	137
48. Avtomatdan otish bo'yicha o'quv mashqini bajarish	140
49. Avtomatdan boshlang'ich otish mashqini bajarish	142

VII BOB. TAKTIK TAYYORGARLIK

50. Askarning mudofaadagi harakatlari	144
51. Askarning hujumdagi harakatlari.....	147
52. Askarning kuzatuvchi sifatidagi harakati	150
53. Yadroviy qirg'in qurollari.....	153
54. Kimyoviy va biologik qirg'in qurollari	156

I BOB.

SAF TAYYORGARLIGI



GURUHNING SAF TORTISHI

1



Dars davomida

- ▶ yonma-yon tizilgan saf amallarini;
- ▶ guruh tarkibida **“TEKISLAN!”** yoki **“Chapga TEKISLAN!”** komandasi qanday bajarilishini o‘rganasiz.



O‘ylab ko‘ring

Guruh bilan safda turish tartibi va buyruqlarni bajarish aniqligi nima uchun muhim?

1

Yonma-yon tizilgan saf

Guruhning yonma-yon tizilgan safi bir yoki ikki sherengali bo‘lishi mumkin.

Guruh yonma-yon tizilib saf tortishi uchun **“Guruh, bir sherengaga SAFLAN!”** komandasi beriladi. Komanda bergan guruh komandiri qad rostlab, saf fronti tomon yuzlanib turadi. Guruh shaxsiy tarkibi o‘z komandirining chap tomonida saflanadi. Ikki sherengali safning oxirgi qatori to‘liq bo‘lishi lozim.

Shaxsiy tarkib saflana boshlagach, guruh komandiri safdan chiqib, o‘z bo‘ysunuvchilarining xatti-harakatlarini kuzatib turadi.



1-rasm. Yonma-yon tizilgan saf

2 Guruh tarkibida “TEKISLAN!” yoki “Chapga TEKISLAN!” komandasini bajarish

Guruh safini tekislash zarur bo'lsa, “TEKISLAN!” yoki “Chapga TEKISLAN!” komandasi beriladi.

“Chapga TEKISLAN!” komandasiga binoan, chap qanotda turgan harbiy xizmatchidan tashqari hamma boshini chapga (chap quloqni o'ng quloqqa nisbatan balandroq, iyakni biroz ko'targan holatda) burib, har bir harbiy xizmatchi o'zini birinchi sanab, to'rtinchi kishining ko'kragini ko'rishi lozim.

Tekislanayotgan harbiy xizmatchilar biroz oldinga chiqishi, ortga yoki yon tomonga surilishi mumkin. Tekislanib bo'lgach, “ROSTLAN!” komandasi beriladi. Ushbu komandaga binoan, barcha harbiy xizmatchilar to'g'riga qaraydi.

Guruh ortga burilib, tekislanayotganida komanda berayotgan komandir tekislanish tomonini ko'rsatib o'tishi lozim: “O'ngga (chapga) TEKISLAN!”.



2-rasm. “O'ngga (chapga) TEKISLAN!” komandasi bajarilishi

“**TEKISLANI!**” komandasi bo‘yicha o‘ng qanotda turgan harbiy xizmatchidan tashqari hamma boshini o‘ngga (o‘ng quloqni chap quloqqa nisbatan balandroq, iyakni biroz ko‘targan holatda) burib, har bir harbiy xizmatchi o‘zini birinchi sanab, to‘rtinchi kishining ko‘kragini ko‘rishi lozim.

“**Guruh, TARQALI!**” komandasi bo‘yicha harbiy xizmatchilar har tomon tarqab ketadi. Guruh shaxsiy tarkibini yig‘ish uchun “**Guruh, (chapdan, o‘ngdan, ortimdan, oldimdan) SAFLANI!**” komandasi beriladi. Harbiy xizmatchilar yugurib kelib, komandirning komandasi bo‘yicha saflanadi.



3-rasm. “Guruh, TARQAL!” komandasi bajarilishi

Topshiriq

- ▷ Yonma-yon saf tortish amallarini va “**TEKISLANI!**”, “**Chapga TEKISLANI!**” komandalari bajarilishini mashq qiling.

2

GURUH ORASIDAGI MASOFANI KENGAYTIRISH VA QISQARTIRISH

Dars davomida

- ▶ guruh harbiy xizmatchilarining orasidagi masofani kengaytirish va qisqartirishga;
- ▶ bir joyda turgan guruhning safda bir necha qadam (chapga, o'ngga) surilishiga oid harakat tartiblarini bilib olasiz.

O'ylab ko'ring

Safda guruh orasidagi masofani kengaytirish va qisqartirish nima uchun bajariladi?

1 Guruh harbiy xizmatchilarining orasidagi masofani kengaytirish va qisqartirish

Guruh harbiy xizmatchilarining orasidagi masofani kengaytirish uchun **“Guruh, o'ngga (chapga, o'rtadan) ... qadamga YOYIL (yugurib YOYIL)!”** komandasi beriladi.

Ijro komandasi bo'yicha guruh shaxsiy tarkibi oraliq masofa kengaytirilishi uchun saf o'rtasidagi harbiy xizmatchi sifatida tayinlangan harbiy xizmatchidan tashqari, tayinlangan tomon burilib, oyoqlarni yonma-yon taqash barobarida, boshni front tomon burgancha, izma-iz kelayotgan harbiy xizmatchiga yelka uzra qarab, undan uzoqlashmay, tezlashgan yarim qadam bosib (yugurib) boradi. Har bir harbiy xizmatchi, uning ortidan kelayotgan harbiy xizmatchi to'xtagach, tayinlangan komanda bo'yicha qadam tashlab, o'ngga (chapga) buriladi.

Guruh harbiy xizmatchilarining orasidagi masofa saf o'rtasidan boshlab kengaytirilayotganida, saf o'rtasida turgan harbiy xizmatchi tayinlanadi. Saf o'rtasidagi harbiy xizmatchi o'z familiyasini eshitib, **“MEN”** deya javob bergancha o'ng qo'lini oldinga uzatib, tushiradi.

Guruh safi tekislanar ekan, oraliq masofa kengaytirilganda tayinlangan interval saqlanadi. Guruh harbiy xizmatchilarining orasidagi masofani qisqartirish uchun **“Guruh, o'ngga (chapga, o'rtaga) ... qadamga JIPSLAN (yugurib JIPSLAN)!”** komandasi beriladi.

Ijro komandasiga binoan, guruh shaxsiy tarkibi, oraliq masofa qisqartirilishi uchun saf o'rtasidagi harbiy xizmatchi sifatida tayinlangan harbiy xizmatchidan tashqari, jipslashish tomon burilib, tezlashgan yarim qadam bosgancha (yugurgancha) komandada belgilangan intervalga yaqinlashadi. Ushbu intervalga yetib kelgach, mustaqil ravishda to'xtab, o'ngga (chapga) buriladi.



1-rasm. Guruh orasidagi masofani kengaytirish

2 Bir joyda turgan guruhning safda bir necha qadamga (“Chap-GA!”, “O’ng-GA!”) surilishi

Safda, bir joyda turgan guruh bir necha qadamga surilishi uchun “**Guruh, o’ng-GA (chap-GA)!**” komandasi beriladi. Guruh burilgach, “**Oldinga 2 qadam BOS!**” komandasi beriladi. Harbiy xizmatchilar tegishli masofaga surilgach, “**Chap-GA!**” (“**O’ng-GA!**”) komandasi bo’yicha oldingi holat qabul qilinadi.



2- rasm. Guruhning 2 qadam chapga va o’ngga surilishi

Topshiriq

- ▷ Safda, bir joyda turib, bir necha qadamga (chapga va o’ngga) surilish mashqlarini bajaring.

GURUH TARKIBIDA SAF AMALLARINI BAJARISH



Dars davomida

- ▶ guruh tarkibida harakat yo'nalishini o'zgartirish;
- ▶ guruhning bir sherengadan ikki sherengaga saf tortishi va ikki sherengadan bir sherengaga qayta saf tortishi bilan bog'liq qoidalarni o'rganasiz.



O'ylab ko'ring

Guruh tarkibida saf amallarini bajarishda har bir a'zoning harakati bir xil bo'lishi nima uchun muhim ekanini izohlang.

Agar bitta ishtirokchi saf amalini noto'g'ri bajarsa, bu holat safga qanday ta'sir qiladi?



1 Guruh tarkibida harakat yo'nalishini o'zgartirish

Harakat yo'nalishini o'zgartirish uchun **“Guruh, o'ng (chap) yelka oldinga, qadam BOS!”** komandasi, yurish davomida esa **“Guruh, o'ng (chap) yelka OLDINGA!”** komandasi beriladi.

Ushbu komanda bo'yicha guruh o'ng (chap) yelkani oldinga burib harakatni boshlaydi, xususan:

- burilayotgan qanotdagi harbiy xizmatchi boshini front bo'yicha burib, boshqalarni harakatsiz qanot tomon siqib qo'ymay, to'liq qadam tashlab boradi;
- harakatsiz qanotdagi harbiy xizmatchi turgan joyida qadam tashlab, burilayotgan qanot harakatiga mos ravishda chapga (o'ngga) asta burilib boradi;
- qolganlar esa burilayotgan qanot tomon boshni burmay qarab, harakatsiz qanot tomondagi tirsagini qo'shnisining tirsagiga tekkizgancha front tekisligini saqlab, harakatsiz qanotga qancha masofa qolgan bo'lsa, qisqa qadam tashlab boradi.



1- rasm. Guruh tarkibida harakatlanishni o'zgartirish

2 Guruhning bir sherengadan ikki sherengaga saf tortishi va ikki sherengadan bir sherengaga qayta saf tortishi

Bir sherengaga saflangan guruh ikki sherengaga saflanishi uchun dastlab shaxsiy tarkib **birinchi** va **ikkinchi** raqamlarga bo'linadi. Buning uchun **“Guruh, birinchi va ikkinchiga bo'linib, SANA!”** komandasi beriladi.

Ushbu komanda bo'yicha o'ng qanotdagi harbiy xizmatchidan boshlab, hamma navbat bilan boshini chap tarafdagi sherigi tomon burgancha o'z raqamini aytib, yana to'g'riga qarab turadi. Chap qanotdagi harbiy xizmatchi boshini burmaydi.

Ketma-ket raqamlar tartibidagi sanoq ham xuddi shu tarzda amalga oshiriladi va buning uchun **“Guruh, raqamlar tartibi bilan SANA!”** komandasi beriladi.

Ikki sherengali saf sanog'i yakuniga yetgach, ikkinchi sherenganing chap qanotida turgan harbiy xizmatchi **“To'liq”** yoki **“To'lmagan”**, deya bildiruv beradi.

Bir sherengaga saf tortgan guruh joyda ikki sherengali safga qayta tizilishi uchun **“Guruh, ikki sherengaga SAFLAN!”** komandasi beriladi.

Ijro komandasi bo'yicha ikkinchi raqamlilar chap oyoqni bir qadam orqaga tashlagach, o'ng oyoqni o'ng tomon surib, chap oyoqni unga taqaydi va shu tarzda birinchi raqamlilar ortiga turib olishadi.

Ikki sherengaga jips saflangan guruh joyda bir sherengali safga qayta saflanishi uchun dastlab intervalni bir qadamga kengaytiradi va shundan so'ng **“Guruh, bir sherengaga SAFLAN!”** komandasi beriladi.

Ijro komandasiga binoan, ikkinchi raqamlilar chap oyoqni chap tomon surib, o'ng oyoqni bir qadam oldinga tashlagach, chap oyoqni unga taqaydi va shu tarzda birinchi raqamlilar chizig'iga chiqib olishadi.



2- rasm. Guruhning bir sherengadan ikki sherengaga saf tortishi

Topshiriq

- ▷ Guruh tarkibida harakat yo'nalishini o'zgartirish mashqini bajaring.
- ▷ Guruhning bir sherengadan ikki sherengaga saf tortishi va ikki sherengadan bir sherengaga qaytishini mashq qiling.

4

GURUHNING YURISH SAFI



Dars davomida

- ▶ yurish safi;
- ▶ guruhni bir, ikki, uch kolonnalarga saflash;
- ▶ guruhni kolonnali safdan yonma-yon tizilgan ikki sherengali safga qayta saflash ko'nikmalariga ega bo'lasiz.



O'ylab ko'ring

Nima uchun harbiylar saf tortib yurishadi?
Safda harakatlanish qanday sifatlarni shakllantiradi?

1 Yurish safi

Guruhning yurish safi guruh tarkibidan kelib chiqqan holda to'rt kolonnagacha bo'lishi mumkin. **“Guruh, uch kolonnaga SAFLAN!”** komandasi bo'yicha guruh joyida uch kolonnaga saflanadi.

Guruhning bir (ikki) kolonnali safdan yonma-yon tizilgan bir (ikki) sherengali safga qayta saflanishi ushbu guruhning chapga burilishi bilan bajariladi.



1- rasm. Guruhning uch kolonnaga saflanishi

Guruhning yonma-yon tizilgan bir (ikki) sherengali safdan bir (ikki) kolonnali safga qayta saflanishi ushbu guruhning **“Guruh, o'ng-GA!”** komandasi bo'yicha o'ngga burilishi bilan bajariladi.

2 Guruhni bir, ikki, uch kolonnalarga saflash

Guruh bir kolonnali safdan ikki kolonnali safga **“Guruh, ikki kolonna bo‘lib, qadam BOS!”** komandasi, yurish davomida **“Guruh, ikki kolonna bo‘lib, YUR!”** komandasi bo‘yicha qayta saflanadi.

Ijro komandasi bo‘yicha yetakchi yarim qadamdan tashlab yura boshlaydi, ikkinchi raqamlilar esa safning o‘ng tomoniga chiqib, kolonnadagi joyini to‘liq qadam yurib egallaydi. Guruh shaxsiy tarkibi **“TO‘G‘RIGA!”** yoki **“Guruh, TO‘XTA!”** komandasi berilgunga qadar yarim qadamdan tashlab boradi.

Guruh yonma-yon tizilgan ikki (bir) sherengali safdan bir (ikki) kolonnali safga **“Guruh, o‘ng-GA!”**, **“Bir kolonna bo‘lib, qadam BOS!”**, yurish davomida esa **“Guruh, bir kolonna bo‘lib, YUR!”** komandalari bo‘yicha qayta saflanadi.

“Yur!” ijro komandasi bo‘yicha birinchi sherengadagi harbiy xizmatchilar yarim qadamdan tashlab yura boshlaydi. Ikkinchi sherenganing chap qanotidagi harbiy xizmatchi birinchi sherenga chizig‘iga belgilangan intervalga amal qilgan holda o‘tib oladi. Uning o‘rnini esa yurish davomida uchinchi sherenganing o‘ng qanotidagi harbiy xizmatchi egallaydi. Uchinchi sherenganing chap qanotidagi harbiy xizmatchi uchinchi kolonnada hosil bo‘lgan joyni egallaydi. Qolgan harbiy xizmatchilar ham xuddi shu tarzda safni to‘ldirib boradi. Guruh komandiri saf to‘lganiga ishonch hosil qilgach, **“TO‘G‘RIGA!”** yoki **“Guruh, TO‘XTA!”** komandasini beradi.

Guruh uch kolonnali safdan ikki kolonnali safga **“Guruh, ikki kolonna bo‘lib, qadam BOS!”**, yurish davomida esa **“Guruh, ikki kolonna bo‘lib, YUR!”** komandasi bo‘yicha qayta saflanadi.



2- rasm. Guruhning ikki kolonnaga saflanishi

3 Guruhni kolonnali safdan yonma-yon tizilgan ikki sherengali safga qayta saflash

Guruh uch kolonnali safdan bir kolonnali safga **“Guruh, bir kolonna bo‘lib, qadam BOSI!”**, yurish davomida esa **“Guruh, bir kolonna bo‘lib, YURI!”** komandasi bo‘yicha qayta saflanadi.

Ushbu komanda bo‘yicha birinchi kolonna to‘g‘riga yuradi. Qolgan harbiy xizmatchilar esa joyda qadam bosib, **“TO‘G‘RIGA!”** komandasi berilgach, oldinga chiqqan kolonna ortidan to‘liq qadam tashlagancha, izchil harakat boshlaydi.

Guruh bir kolonnali safdan uch kolonnali safga **“Guruh, uch kolonna bo‘lib, qadam BOSI!”**, yurish davomida esa **“Guruh, uch kolonna bo‘lib, YURI!”** komandasi bo‘yicha qayta saflanadi.

Ushbu komanda bo‘yicha yetakchi harbiy xizmatchi joyida qadam bosadi. Uning ortidagi ikkinchi va uchinchi harbiy xizmatchilar birinchi harbiy xizmatchi turgan chiziqqa chiqib, uch kolonnali saf boshini hosil qilgancha joyida qadam bosishadi. Ayni vaqtda, qolgan harbiy xizmatchilar ham safni xuddi shu izchillikda to‘ldirishadi. Guruh komandiri saf to‘lganiga ishonch hosil qilgach, **“TO‘G‘RIGA!”** yoki **“Guruh, TO‘XTAI!”** komandasini beradi.

Guruhni ikki kolonnali safdan uch kolonnali safga qayta saflanishi **“Guruh, uch kolonna bo‘lib, qadam BOSI!”**, yurish davomida esa **“Guruh, uch kolonna bo‘lib, YURI!”** komandasiga binoan bajariladi.

Guruh shaxsiy tarkibini yig‘ish uchun **“Guruh, OLDINGA!”** komandasi beriladi. Ushbu komandaga binoan, harbiy xizmatchilar komandirning oldiga yugurib kelib, uning qo‘shimcha komandasi bo‘yicha saflanadi.

Yurish safga tizilgan guruhning harakat yo‘nalishini o‘zgartirish uchun **“Guruh, o‘ng (chap) yelka OLDINGA!”** komandasi beriladi. Bunda yetakchi **“TO‘G‘RIGA!”** komandasi berilgunga qadar o‘ng (chap) yelkasini oldinga burib, harakat boshlaydi. Qolganlar uning ortidan boradi.

“Guruh, ORTIMDAN!”, **“Guruh, ortimdan yugurib, qadam BOSI!”** komandalari berilganida shaxsiy tarkib komandir ortidan boradi.

Bilimingizni sinab ko‘ring

- 1 Yurish safi, guruhni bir, ikki, uch kolonnalarga saflash uchun qanday komandalar beriladi?
- 2 Guruh kolonnali safdan yonma-yon tizilgan ikki sherengali safga qaysi komandalar bo‘yicha qayta saflanadi?

Topshiriq

- ▷ Guruhning bir, ikki, uch kolonnalarga saflanish amallarini mashq qiling.
- ▷ Guruhning kolonnali safdan yonma-yon tizilgan ikki sherengali safga qaytish amallarini mashq qiling.

GURUH TARKIBIDA HARAKATLANISH VA SALOMLASHISH

5

Dars davomida

- ▶ safdagi guruhning joyida turib harbiycha salom berishi;
- ▶ safdagi guruhning yurish davomida harbiycha salom berishi bilan bog'liq qoidalarni o'rganasiz.

O'ylab ko'ring

Guruh tarkibida harakatlanish va harbiycha salomlashish harbiy xizmatchilar o'rtasida qanday munosabatlarni tartibga soladi?

1 Safdagi guruhning joyda turib harbiycha salom berishi

Safdagi guruh joyida turib harbiycha salom berishi uchun boshliq safga kelishiga 10–15 qadam qolganda guruh komandiri “**Guruh, ROSTLAN, tekislanish O'ng-GA (Chap-GA, O'rta-GA)!**” komandasini beradi.

Ushbu komanda bo'yicha guruh shaxsiy tarkibi qad rostlab, boshini o'ngga (chapga, o'rta) burgancha, nigohi bilan boshliqni kuzatgan holda turadi.

Boshliq saf ortidan kelganida guruh komandiri shaxsiy tarkibni ortga burib, harbiycha salomlashish komandasini beradi.

Safda o'z joyida turgan guruh komandirining o'rinbosari va boshqa kichik komandirlar qo'lni bosh kiyimga keltirmaydi.



1-rasm. Guruhning joyda turib harbiycha salom berishi

QARYO VILOYATI
KUTUBXONA

86

Yurish davomida saf qo'shig'i ijro etib borilayotgan bo'lsa, harbiycha salom berish komandasi berilgach, qo'shiq ijrosi to'xtatiladi.

Harbiycha salomlashish komandasi berilgach, qarshi olayotgan boshliq qo'lini bosh kiyimiga (chakkaga) keltirib, bildiruvni qabul qiladi. Bildiruv berib bo'lgan guruh komandiri qo'lini bosh kiyimidan chap (o'ng) oyog'i bilan yon tomon qadam tashlab, o'ngga (chapga) burilib, chetga o'tadi va boshliqni oldinga o'tkazib, undan bir-ikki qadam ortda, safdan tashqi tomonda yuradi. Boshliq saf oldidan o'tib ketgach (yoki u **“ERKIN!”** komandasini bergach), guruh komandiri **“ERKIN!”** komandasini berib (takrorlab), qo'lini bosh kiyimidan tushiradi.

2 Safdagi guruhning yurish davomida harbiycha salom berishi

Guruh safda yurishi davomida harbiycha salom berishi uchun boshliqqa 10–15 qadam qolganda guruh komandiri **“Guruh, ROSTLAN, tekislanish O'ng-GA (Chap-GA)!”** komandasini beradi.

Guruh boshliq oldidan o'tib ketgach, guruh komandiri (yoki boshliq) **“ERKIN!”** komandasini berib (takrorlab), qo'lini bosh kiyimidan (chakkadan) tushiradi.

Boshliqning salomiga yoki e'lon qilgan minnatdorligiga harbiy xizmatchilar baravar, baland ovozda aniq javob qaytaradi. Yurish davomida qaytariladigan javob chap oyoq yerga bosilishi bilan boshlanib, keyingi so'zlar har bir qadam bosilganida talaffuz qilinadi.



2-rasm. Guruhning yurish davomida harbiycha salom berishi

Topshiriq

- ▶ Safdagi guruhning joyida turib harbiycha salom berish amallarini mashq qiling.
- ▶ Safdagi guruhning yurish davomida harbiycha salom berish amallarini mashq qiling.

GURUHNING TANTANALI YURISHI VA SAF QO'SHIG'I BILAN HARAKATLANISHI

6

Dars davomida

- ▶ guruhning tantanali yurishi;
- ▶ guruh tarkibida saf qo'shig'i bilan harakatlanishga oid qoidalarni bilib olasiz.

O'ylab ko'ring

Harbiy g'ururni shakllantirishda tantanali marshlar hamda saf qo'shiqlarining o'rni qanday?

1 Guruhning tantanali yurishi

Guruh komandiri ikki qadam oldinga chiqqancha, safga yuzlanib turib, komanda beradi: **“Guruh, ROSTLAN! Tantanali yurishga, tekislanish o'ngga, qadam BOS!”**. Shundan so'ng u o'ng oyog'ining uchida chap qo'l tomon tez ortga burilib, harakatni guruh bilan bir vaqtda chap oyoq bilan boshlaydi.

Ijro komandasiga binoan, butun guruh bir vaqtda harakat boshlaydi. Bunda guruh shaxdam qadam tashlab to'g'riga yuradi. Mashg'ulot rahbariga qadar 10–15 qadam qolganda guruh komandiri **“Guruh, ROSTLAN, tekislanish O'ng-GA (Chap-GA)!”** komandasini beradi.

“ROSTLAN!” komandasi bo'yicha guruh shaxsiy tarkibi shaxdam qadam tashlay boshlaydi, **“Tekislanish, O'ng-GA (Chap-GA)!”** komandasi bo'yicha esa boshini o'ngga (chapga) buradi. Guruh komandiri boshini mashg'ulot rahbari tomon burib, qo'lini bosh kiyimiga keltiradi.

Guruh mashg'ulot rahbari oldidan o'tib ketgach, guruh komandiri (mashg'ulot rahbari) **“ERKIN!”** komandasini berib (takrorlab), qo'lini bosh kiyimidan (chakkadan) tushiradi.



1-rasm. Guruhning tantanali yurishi

2 Guruh tarkibida saf qo'shig'i bilan harakatlanish

Saf qo'shig'ini aytib o'tish uchun guruh komandiri guruhni qayta saf torttiradi, ikki qadam oldinga chiqib, **"Guruh, ROSTLAN! Saf qo'shig'ini aytib o'tish uchun qadam BOS!"** komandasini beradi. Shundan so'ng, o'ng oyog'ining uchida chap qo'l tomon tez ortga burilib, harakatni guruh bilan bir vaqtda chap oyoq bilan boshlaydi.

Ijro komandasiga binoan, butun guruh bir vaqtda harakat boshlaydi. Guruh komandiri **"Guruh, saf qo'shig'ini aytib, TO'G'RIGA!"** komandasini beradi. Ushbu komandaga ko'ra, guruh saf qo'shig'ini aytganicha oddiy qadam tashlab, harakatni boshlaydi.



2-rasm. Guruh tarkibida saf qo'shig'i bilan harakatlanish

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Guruhning tantanali yurishi deganda nimani tushunasiz? Bu yurish qachon, qayerda va nima uchun bajariladi?
- 2 Qaysi saf qo'shiqlarini yod olgansiz? Saf qo'shig'i qay tartibda aytiladi?

Topshiriq

- Saf qo'shiqlaridan birini yod oling, kuylanish uslubini mashq qiling.

QUROL BILAN QAD ROSTLAB TURISH

7

Dars davomida

- ▶ qurol bilan qad rostlashni;
- ▶ qurol tasmasini bo'shatish yoki tortishni o'rganasiz.

O'ylab ko'ring

Qurol bilan qad rostlab turish keyingi bajariladigan mashq usullarini to'g'ri va aniq bajarishda qanday o'rin tutadi?

1 Qurol bilan qad rostlash



Qurol bilan qad rostlash holati xuddi qurolsiz qad rostlangan holat kabidir.

Bunda stvoli yuqoriga qaratilgan qurol bel kamarining yuqori qirrasiga tegib turadigan o'ng qo'l panjasi bilan “**tasmaga**” holatida tutib turiladi.



1-rasm. Qurol bilan qad rostlangan holat

2 Qurol tasmasini bo'shatish yoki tortish

Qurol tasmasini bo'shatish yoki tortish zarur bo'lganida, "**Tasma BO'SHATILSIN (TORTILSIN)!**" komandasi beriladi.

Ijro komandasi bo'yicha o'ngga yarim aylana burilib, chap oyoq bir qadam chappa surilganicha qurol yelkadan, uning tasmasi bo'ylab biroz yuqoriga ko'tarilgan o'ng qo'l bilan tushirilgach, chap qo'l bilan stvol osti va stvol usti qoplamalaridan tutib olinadi. O'qdoni chappa qaratilgan qurol vertikal holatda, stvolining og'zi iyak balandligida tutib turiladi. Chap qo'l bilan stvol usti qoplamasidan tutib tirsak bukilgan holda avtomat qo'ndog'i o'ng qo'lning ichki bilak sohasiga yotqiziladi, o'ng qo'l bilan o'qdondan tutiladi va stvol usti qoplamasi bilan bilak sohasiga yerga parallel holatda yotqiziladi. Avtomat tasmasi bo'shatiladi (tortiladi). Mustaqil ravishda dastlabki holatiga qaytadi (2-rasm).



2-rasm. Qurol tasmasini bo'shatish yoki tortish

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Qurol bilan qad rostdash holati qanday bajariladi?
- 2 Qurol tasmasini bo'shatish yoki tortish uchun qanday komanda beriladi?

Topshiriq

- Qurol bilan qad rostdash turish, qurol tasmasini bo'shatish yoki tortish amallarini mashq qiling.

SAF AMALLARINI QUROL BILAN JOYIDA TURIB BAJARISH

8

Dars davomida

- ▶ qurolni “**tasmaga**” holatidan “**ko’krakka**” holatiga o’tkazishni;
- ▶ qurolni “**ko’krakka**” holatidan “**tasmaga**” holatiga o’tkazishni o’rganasiz.

O’ylab ko’ring

Joyida turib qurol bilan saf amallarini bajarish uchun qaysi komandalar beriladi?

1 Qurolni “tasmaga” holatidan “ko’krakka” holatiga o’tkazish

“Tasmaga” holatidagi avtomat “**Avtomat ko’krak-KA!**” komandasiga binoan, uchta usul bajarib “ko’krakka” holatiga o’tkaziladi (1-rasm).

Birinchi usul

Qurol yelkadan uning tasmasi bo’ylab biroz yuqoriga ko’tarilgan o’ng qo’l bilan tushirilgach, chap qo’l bilan stvol osti va stvol usti qoplamalaridan tutib olinadi. O’qdoni chapga qaratilgan qurol vertikal holatda, stvolining og’zi iyak balandligida tutib turiladi.

Ikkinchi usul

Qurolning o’ng qo’ldagi tasmasi biroz o’ngga tortiladi. Barmoqlari biroz bukilib, tana tomon qaratilgan o’ng qo’l kafti tasma ostiga olinadi va ayni vaqtda o’ng qo’l tirsagi tasma orqali o’tkaziladi.

Uchinchi usul

Avtomat tasmasi bosh orqali o’tkazilib, chap yelkaga tashlanadi. O’ng qo’l bilan qurol qo’ndog’ining bo’ynidan ushlab olinadi, chap qo’l esa tez pastga tushiriladi.



a



b



d

1-rasm. “Tasmaga” holatidagi avtomatni “ko’krakka” holatiga olib o’tish

2 Qurolni “ko'krakka” holatidan “tasmaga” holatiga o'tkazish

“Ko'krakka” holatidagi avtomat “Tasma-GAI” komandasiga binoan, uchta usul bajarib, “tasmaga” holatiga olinadi (2-rasm).

Birinchi usul

Avtomat stvolining ostki va ustki qoplamalari chap qo'l bilan pastdan ushlanadi va old tomon tortilib, biroz yuqoriga ko'tarilganicha, o'ng qo'l tasmadan chiqariladi. O'ng qo'l bilan qo'ndog'ining bo'ynidan ushlab olingan avtomat 2-a rasmda ko'rsatilgan holatda tutib turiladi.

Ikkinchi usul

Avtomat yuqoriga ko'tarilib, bosh uning tasmasidan chiqarib olingach, qurol vertikal holatda, o'qdoni chapga qaratilib, stvolining og'zi iyak balandligida 2-b rasmda ko'rsatilganidek tutib turiladi.

Uchinchi usul

Qurol o'ng yelka orqasiga, uning tasmasi o'ng qo'l bilan ustki qismidan ushlab olingan tarzda tashlanib, “tasmaga” holatiga olinadi. Chap qo'l esa tez tushirilib, 2-d rasmda ko'rsatilgan holatda tutib turiladi.



a



b



d

2-rasm. “Ko'krakka” holatidagi avtomatni “tasmaga” holatiga olib o'tish

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Qurol qaysi usullar orqali “tasmaga” holatidan “ko'krakka” holatiga o'tkaziladi?
- 2 “Ko'krakka” holatidagi avtomatni “tasmaga” holatiga o'tkazish usullarini aytib bering.

Topshiriq

- Qurolni “tasmaga” holatidan “ko'krakka” holatiga, “ko'krakka” holatidan esa “tasmaga” holatiga o'tkazish usullarini mashq qiling.

II BOB.

YO'NALTIRILGAN JISMONIY TAYYORGARLIK



TO'SIQLAR YO'LAGIDAN O'TISH MASHQINI BAJARISH

9



Dars davomida


- ▶ to'siqlar yo'lagidan o'tish mashqini bajarishni o'rganasiz.



O'ylab ko'ring

To'siqlar yo'lagining qanday turlari bor?

Siz o'rganayotgan va mashq qilayotgan to'siqlar yo'lagi qanday nomlanadi va nechta elementdan tashkil topgan?




To'siqlar yo'lagidan o'tish mashqini bajarishda dastlab boshlang'ich chiziqda "Start" holatiga turiladi. Komanda bo'yicha to'siqlar yo'lagining boshlang'ich chizig'idan yugurish boshlanib, tez yugurish yo'lagining 20 metrlik qismi bosib o'tiladi.



Tez yugurish yo'lagi bosib o'tilgandan so'ng, yer sathidan **2,5 metrlik** chuqur g'ovdan sakrab o'tiladi. Buning uchun yetarlicha tezlikka ega bo'lishga e'tibor qaratish lozim.

Uzunligi **6 m**, eni **2 m**, bo'yi **1,1 m** keladigan labirintdan tez o'tish uchun qo'l va oyoqlar gavdaning harakati bilan uyg'unlashtiriladi.



Bo'yi 2 m, qalinligi **0,25 m** keladigan devorni oshib o'tishda o'ng yoki chap oyoqni devorga tirab, gavdaning tezlik hisobiga hosil bo'lgan vazn og'ishi devorni oshib o'tishga yo'naltiriladi.

Vayron bo'lgan ko'prikdan o'tishda ko'prik boshlanishidagi zinalardan chiqiladi va tezlikni susaytirmasdan, muvozanatni saqlagan holda o'tiladi.



To'rt pog'onali, vayron bo'lgan zinapoyadan gavda, qo'l va oyoqlarga tayangan holatda oshib o'tiladi.

Bo'yi 1,1 m, eni 2,6 m, qalinligi 0,4 m keladigan devordan tezlikni susaytirmasdan, qo'l va oyoqlarga tayangan holatda oshib o'tiladi.



Yer sathidagi o'lchami 1x1m, chuqurligi 1,5 metr bo'lgan quduqqa tushiladi. Quduqda o'lchami 1x0,5 metr keladigan tuynuk mavjud bo'lib, u orqali yurish uzunligi 8 metrga teng, usti yopiq va egri-bugri yo'lakdan o'tiladi (aslida quduqdan transheyagacha bo'lgan to'g'ri masofa 6 metrni tashkil etadi).

Transheyadan chiqib, dastlabki yugurish chizig'iga qarab 100 metrli masofa yugurib o'tiladi.



Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 To'siqlar yo'lagining qanday turlarini bilasiz?
- 2 Yagona to'siqlar yo'lagi nechta elemendan tashkil topgan? Nomlarini aytib bering.

Topshiriq

- Yagona to'siqlar yo'lagi elementlaridan oshib o'tish mashqini mustaqil o'rganing.

QO'L BILAN ZARBA BERISH VA QAYTARISH USULLARI

Dars davomida

- ▶ jangovar holatni egallash, musht bilan to'g'ri yo'nalishda zarba berishni;
- ▶ musht bilan yon tomon va pastdan zarba berishni;
- ▶ qo'l bilan berilayotgan zarbalarni qaytarishni o'rganasiz.

O'ylab ko'ring

Yov bilan yaqin masofada olishishga to'g'ri kelganda zarba berishning yoki sizga beriladigan zarbani qaytarishning qanday usullarini qo'llaysiz?

1 Jangovar holatni egallash. Musht bilan to'g'ri yo'nalishda zarba berish

Jangovar holatni egallash 1-a rasmda ko'rsatilgan. Musht bilan to'g'ri yo'nalishdagi zarba raqibning boshi va gavdasiga qarata yaqin va o'rta masofadan beriladi. Musht bilan to'g'ri yo'nalishda zarba berish uchun chap tomonlama jangga shay holatda turiladi, tana va qo'l mushaklariga ortiqcha zo'r berilmaydi, o'ng qo'l mushti qisqa yo'l orqali nishon tomon keskin va ayni vaqtda o'ngdan chapga burab (eshib) borgan tarzda yo'llanadi (1-b rasm). Ushbu fursatda chap qo'l mushti, tirsak bilan birgalikda, qo'l kafti yuqoriga qaratilgan holatda orqaga keskin tortiladi. Raqibga shu tarzda zarba berilgach, dastlabki jangga shay holat qabul qilinadi.



a



b

1-rasm. Jangovar holatni egallab, musht bilan to'g'ri yo'nalishda zarba berish

2 Musht bilan yon tomon va pastdan zarba berish

Musht bilan yon tomondan zarba – musht qilib tugilgan barmoqlar asosi bilan raqibning chakkasi, jag' sohasi, qulog'i va gavdasiga qarata beriladi. Jangga shay holatda turganicha, yon tomondan zarba berish uchun qo'l, barmoqlari ichkariga qaratilgan musht bilan birga gorizontaal yo'nalishda yoy hosil qilingan tarzda nishonga yo'llanadi. Zarba berilayotgan fursatda bilak oldinga ko'tarilgan bo'lishi lozim. Zarba oldinga qadam bosilgan yoki bosilmagan tarzda, gavda buralganicha, qulochkashlab berilishi mumkin (2-a rasm).

Musht bilan pastdan zarba – yaqin masofadan raqibning iyagiga, oldinga engashgan fursatda esa yuziga yoki jigariga qarata beriladi. Dastlabki holatda musht kafti pastga qaratiladi. Zarba berilayotganida kafti yuqoriga qaratib boriladi. Zarbaga gavda burilishining inersiya kuchi yig'iladi (2-b rasm).



2-rasm. Musht bilan zarba berish

3 Qo'l bilan berilayotgan zarbalarni qaytarish

Qo'l bilan berilayotgan zarbani qaytarish uchun raqib zarbasini bilak vositasida ichkari yoki tashqariga yo'llash, zarbaga kaftni, bilaklardan biri yoki ikkalasini tutish, zarba ostiga engashish, ortga chekinib, chap berish amallari bajariladi. Zarba qaytarilgach, zudlik bilan qo'l yoki oyoq vositasida raqibning ochiq joyiga javoban zarba beriladi (3-rasm).



3-rasm. Qo'l bilan berilgan zarbani qaytarish

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Jangovar holat qanday egallanadi, u nima uchun muhim?
- 2 Qo'l bilan zarba berish va qaytarish usullarini bilasizmi?

Topshiriq

- Qo'l bilan zarba berish va qaytarish usullarini mashq qiling.

OYOQ BILAN ZARBA BERISH VA QAYTARISH USULLARI

11

Dars davomida

- ▶ oyoq bilan to'g'ridan va pastdan zarba berish;
- ▶ oyoq bilan berilayotgan zarbalarni qaytarish va himoyalash usullarini bilib olasiz.

O'ylab ko'ring

Oyoq bilan zarba berishda kuch va aniqlik muhimmi yoki tezlik?
Oyoq zarbalarini qaytarishda nimalarga e'tibor qaratish kerak?

1 Oyoq bilan to'g'ridan va pastdan zarba berish

Oyoq bilan to'g'ridan zarba oyoq uchi, kafti yoki poyabzal poshnasi bilan raqibning qorin sohasi yoki qovurg'asiga qarata beriladi. Jangga shay holatda turib, oyoq bilan to'g'ridan zarba berish uchun zarba beradigan oyoq yerdan itariladi, gavda oldinga tashlanadi, tana vazni yerga tayanib turgan oyoqqa o'tkaziladi. Ayni vaqtda, tizzasi bukilib yuqoriga, bel sathi balandligiga ko'tarilgan oyoq keskin to'g'rilanib, oldinga qilingan hamla davom ettiriladi va shu tarzda raqibning ochiq joyiga zarba beriladi. Zarba berilgach, oyoq xuddi o'sha trayektoriya bo'ylab o'z joyiga qaytariladi. Bunda jangga shaylik holati o'zgarishi ham mumkin (1-a rasm).

Oyoq bilan pastdan zarba oyoq uchi va tizzasi bilan raqib tizzasi, chovi, qorin sohasi yoki u oldinga engashgan paytda yuziga qarata beriladi. Ushbu zarba xuddi oyoq bilan to'g'ridan zarba berish amali kabi bajariladi, lekin oyoq harakati ancha qisqa amplituda bo'ylab kechadi, chunki zarba yaqin masofadan beriladi (1-b rasm).



1-rasm. Oyoq bilan beriladigan zarbalar

2 Oyoq bilan berilayotgan zarbalarni qaytarish va himoyalash usullari

Oyoq bilan berilayotgan zarbalarni qaytarish va himoyalash amali qovushtirilgan bilaklar vositasida raqib oyog'ini to'xtatish orqali bajariladi. Agar raqib o'ng oyog'i bilan zarba berishga uringan bo'lsa, o'ng qo'l bilagi chap qo'l bilagi ustiga chiqarilib qovushtiriladi va raqib oyog'ining kafti mahkam tutib olinib, chap qo'lning bukilgan tirsagi bilan siqib olinganicha, yuqoriga siltab ko'tariladi. Ayni vaqtda raqibning yerdagi tovonni bosib olinib, tutib olingan oyog'i qayriladi. Shu tariqa yerga qulagan raqib choviga qarata qattiq tepiladi (2-rasm).



2-rasm. Oyoq bilan berilgan zarbani qo'l yordamida qaytarish va himoyalash

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Oyoq bilan qanday zarbalar berish mumkin?
- 2 Oyoq bilan berilayotgan zarbalarni qaytarish va himoyalash usullarini bilasizmi?

Topshiriq

- ▷ Oyoq bilan zarba berish va qaytarish usullarini mashq qiling.

QO'L, OYOQ BILAN ZARBALAR BERISH VA QAYTARISH USULLARI

12



Dars davomida

- ▶ yuqoridan berilayotgan zarbani bilak, o'zaro qovushtirilgan bilaklar va pastga qaratilgan bilak bilan qaytarishni;
- ▶ tizza bilan pastdan berilayotgan zarbani qaytarish va oyoq bilan berilayotgan zarbani oyoq kafti bilan qaytarishni o'rganasiz.



O'ylab ko'ring


Oyoq bilan zarba berish va qaytarish usullarini bilasizmi?

Bunday zarbani qaytarishda qaysi usullarni qo'llagan ma'qul?

1

Yuqoridan berilayotgan zarbani bilak, o'zaro qovushtirilgan bilaklar va pastga qaratilgan bilak bilan qaytarish

Yuqoridan berilayotgan zarbani bilak bilan qaytarishda bir qadam oldinga tashlash barobarida, qo'l yuqoriga, yarim doira yo'nalishida qisqa harakat bajargan tarzda ko'tariladi. Barmoqlar zarba berilayotgan tomon qaratilib, musht qilib tugilgan qo'l bilagi bilan raqib zarbasi qaytariladi (1-a rasm).



1-rasm. Qo'l bilan berilayotgan zarbani qaytarish

Yuqoridan berilayotgan zarbani o'zaro qovushtirilgan bilaklar vositasida qaytarishda bir qadam oldinga tashlash barobarida, qovushtirilgan bilaklar yuz sohasining old tomoniga ko'tarilib, raqib zarbasi qaytariladi. Bunda musht qilib tugilgan panja barmoqlari zarba berilayotgan tomon qaratiladi (1-b rasm).


Zarbani pastga qaratilgan bilak bilan qaytarishda bir qadam oldinga tashlash barobarida, qo'l yarim doira yo'nalishida qisqa harakat bajargan tarzda pastga tushirilib, raqib zarbasi qaytariladi. Bunda musht qilib tugilgan panja barmoqlari zarba berilayotgan tomon qaratiladi (1-d rasm).

2 Tizza bilan pastdan berilayotgan zarbani qaytarish. Oyoq bilan berilayotgan zarbani oyoq kafti bilan qaytarish

Oyoq bilan berilayotgan zarba qo'l, son va oyoq kafti bilan qaytariladi. Zarba qaytarilgach, qo'l bilan raqibning boshi yoki gavdasiga qarata javoban zarba beriladi (2-a rasm).

Tizza bilan pastdan berilayotgan zarbani qaytarish uchun bukilgan oyoqni tayanib turgan ikkinchi oyoq tomon ko'tarib, son bilan chovni to'sish kerak (2-b rasm).

Oyoq bilan berilayotgan zarbani qaytarishda oyoq kafti va son raqibning zarba berayotgan oyog'iga tutiladi. Bu amal to'g'ri turgan holatda yoki oyoq kafti va sonni tutish fursatida tanani burgan tarzda bajariladi (2-d rasm).



2-rasm. Oyoq bilan berilayotgan zarbani qaytarish

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Qo'l bilan yuqoridan berilayotgan zarbalarni bilak bilan qaytarish usullarini bilasizmi?
- 2 Tizza, oyoq bilan berilayotgan zarbani oyoq kafti bilan qaytarish usullarini aytib bering.

Topshiriq

- Qo'l, oyoq bilan zarbalar berish va qaytarish usullarini mashq qiling.

RAQIB CHANGALIDAN XALOS BO'LISH USULLARI

13



Dars davomida

- ▶ orqa tomondan bo'g'ib olgan raqib changalidan xalos bo'lish;
- ▶ old tomondan bo'g'ib olgan (yoqadan tutib olgan) raqib changalidan xalos bo'lish ko'nikmalarini egallaysiz.



O'ylab ko'ring

Raqib sizni kutilmaganda changaliga olglsa, undan xalos bo'lish uchun qaysi himoya usullarini qo'llaysiz?

1 Orqa tomondan bo'g'ib olgan raqib changalidan xalos bo'lish

Orqa tomondan bo'g'ib olgan raqib changalidan xalos bo'lish 1-a rasmda ko'rsatilgan. Raqib orqa tomondan kelib, bo'g'ib olgan zahoti bosh yon tomon burilib, tizza bukilgan tarzda raqibning qo'li changallab olinib, poshna bilan boldiriga (yoki oyog'ining uchiga) qarata qattiq zarba beriladi (1-b rasm) va qo'lini keskin yuqoriga ko'tarib changalidan chiqib olinadi. Tirsak bilan raqibning biqiniga qattiq zarba berilib, oldinga qadam tashlanadi va ortga burilgan tarzda oyoq bilan raqibning ko'krak sohasi (egilib qolgan bo'lsa, boshi)ga qattiq tepiladi yoki tanasi yelka orqali oshirilib, yerga qulatiladi (1-d rasm).



1-rasm. Orqa tomondan bo'g'ib olgan raqib changalidan xalos bo'lish

2 Old tomondan bo'g'ib olgan (yoqadan tutib olgan) raqib changalidan xalos bo'lish

Raqib boldiriga qarata oyoq uchi yoki kafti bilan qattiq zarba beriladi (2-a rasm). Shundan so'ng, bilaklari ikki tomon yozilgan, mushtlari o'zaro birlashtirilgan ikkala qo'l bilan raqib qo'llarining orasiga qarata pastdan yuqoriga zarba berilib, changalidan chiqib olinadi (2-b rasm) va oyoq bilan raqibga takroran zarba beriladi.



2-rasm. Old tomondan bo'g'ib olgan (yoqadan tutib olgan) raqib changalidan xalos bo'lish

O'ng qo'l bilan raqib qo'lining tepa qismidan, chap qo'l bilan esa pastki qismidan ushlanib, chovi yoki boldiriga qarata qattiq tepiladi (3-a rasm) va shu zahoti o'ng tomonga keskin burilib, uzatilgan qo'li ichkariga qayriladi (3-b rasm) yoki tanasi yelka uzra oshirilib, yerga qulatiladi (3-d rasm).



3-rasm. Old tomondan bo'g'ib olgan (yoqadan tutib olgan) raqib changalidan xalos bo'lish

Bilimingizni sinab ko'ring

Orqa va old tomondan bo'g'ib olgan raqib changalidan xalos bo'lish yo'llarini aytib bering.

Topshiriq

- ▷ Raqib changalidan xalos bo'lish usullarini mashq qiling.



Dars davomida

- ▶ raqibni yelkadan oshirib yerga qulatish;
- ▶ raqibni bosh uzra oshirib yerga qulatish;
- ▶ raqibni orqa tomondan chalib qulatish usullarini bilib olasiz.



O'ylab ko'ring

Agar raqib sizdan kuchliroq bo'lsa, uni yerga qulatish uchun qanday texnik yoki taktik yondashuvdan foydalanasiz?

1 Raqibni yelkadan oshirib yerga qulatish

Raqibning o'ng bilak sohasidagi yengi yoki panjasidan tutib olinib, o'ng oyoq bilan boldiriga (tizzasi yoki choviga) qarata zarba berilgach, ushbu oyoq uning o'ng oyog'i yoniga tushiriladi. O'ng oyoq uchida chapga burilganicha, raqibga tez orqa o'girib, o'ng qo'l bilan kiyimining o'ng yelka sohasidagi qismi pastdan tutib olinadi. Tana vazni yelka kengligida qo'yilgan ikkala oyoqqa teng bo'linadi va tizza bukish barobarida raqibning tutib olingan qo'li yelkaga olib o'tiladi (1-a rasm). Oyoq to'g'rilanishi bilan keskin pastga engashib raqibning yelkaga olingan qo'li pastga, old tomonga tortiladi va tanasi yelkadan oshirilganicha yerga qulatiladi (1-b rasm).


Shu zahoti tana vazni chap oyoqqa olinib, yerda yotgan raqibning tutib olingan qo'lini qo'yib yubormagan holda raqibning to'g'ri kelgan yeriga qarata o'ng oyoq bilan qattiq zarbalar beriladi (1-d rasm).



1-rasm. Orqa tomondan bo'g'ib olgan raqibni yelkadan oshirib qulatish

2 Raqibni bosh uzra oshirib yerga qulatish


Raqib siltab turtayotgan paytida uning kiyimidan (tirsak sohasidagi yengi yoki kiyimining yelka sohasidan) ushlab olinib, chap oyoq raqib oyoqlarining orasiga kiritiladi (2-a rasm). Shundan so'ng yerga, chap tovonga yaqinroq o'tirish barobarida yarim bukilgan o'ng oyoq raqibning qorniga tiraladi va tanasi qattiq siltanib tortilganicha, bel orqali orqaga umbaloq oshiladi. Bir vaqtning o'zida raqib tanasi o'ng oyoq bilan kuchli itarilib yuqoriga ko'tarilganicha, bosh uzra orqaga uloqtiriladi (2-b rasm). Raqib kiyimi qo'ldan chiqarib yuborilmay, yelkasi tomon tortilib, orqaga umbaloq oshish amali oxiriga yetkaziladi va raqibning ko'krak sohasiga o'tiriladi. Zudlik bilan uning yuziga qarata qattiq zarba beriladi yoki bo'g'ish amaliga kirishiladi (2-d rasm).



2-rasm. Raqibni bosh uzra oshirib yerga qulatish

3 Raqibni orqa tomondan chalib qulatisht

O'ng (chap) oyoq oldinga o'ng (chap) tomon tashlanib, raqibning chap (o'ng) qo'lini tutib olish va chap (o'ng) qo'l panjasini chap (o'ng) yelkasiga, tirsakni bo'yniga tiragan holda olib o'tish barobarida, raqibni orqaga tisaradi (tanasi muvozanatdan chiqariladi). Ayni shu fursatda tizza bilan choviga yoki oyoq kaftining ichki qirrasini bilan boldiriga qarata zarba beriladi (3-a rasm). Chap (o'ng) oyoq oldinga, raqibning taqimiga silkitib uriladi va qo'l hamda gavdani old pastga keskin siltab, raqib oyoq uzra yerga qulatiladi (3-b rasm). Raqibning chap (o'ng) qo'li qo'yib yuborilmay, poshna bilan qovurg'asi yoki boshiga qarata zarba beriladi (3-d rasm).



3-rasm. Raqibni orqa tomondan chalib qulatisht

Bilimingizni sinab ko'ring

Raqibni yelka orqali bosh uzra oshirib va orqa tomondan chalib qulatisht usullarini aytib bering.

Topshiriq

- ▷ Raqibni yerga qulatisht usullarini mashq qiling.

**Dars davomida**

- ▶ old tomondan hamla qilgan raqib qo'lini beliga qayirish;
- ▶ raqib qo'lini orqa tomondan hamla qilgan tarzda beliga qayirish;
- ▶ raqibning uzatilgan qo'lini ichkariga qayirish usullarini o'rganasiz.

**O'ylab ko'ring**

Qo'l jangida og'ritish texnikasi tananing qaysi nuqtalariga ko'proq ta'sir qilishi mumkin?

1**Old tomondan hamla qilgan raqib qo'lini beliga qayirish****a**

Old tomondan hamla qilgan raqibning qo'lini beliga qayirish (1-rasm) uchun chap qo'l bilan uning o'ng qo'l panjasi yuqori qismidan tutib olinadi va shu zahoti oyoq bilan boldiriga yoki musht bilan jag'iga qarata zarba berilib, o'ng qo'l bilan raqib o'ng tirsagining yengi mahkam ushlab olinadi (1-a rasm). O'ng qo'lni gavda tomon, chap qo'lni old tomon bir vaqtda qattiq siltagan holda raqib qo'li ikki bukilib, bilagi chap tirsak bo'g'ini bilan qattiq siqib olinadi va shu holatda gavgaga mahkam bosiladi. Raqibning qo'li qayrilib, engashishga majbur qilinadi (1-b rasm) va yuziga qarata o'ng tizza bilan yoki bo'yniga qarata o'ng qo'l kaftining qirrasi bilan kuchli zarba beriladi.

**b****d****e**

1-rasm. Old tomondan hamla qilgan raqib qo'lini beliga qayirish

2 Raqib qo'lini orqa tomondan hamla qilgan tarzda beliga qayirish

Raqib qo'lini orqa tomondan hamla qilgan tarzda beliga qayirishda (2-rasm) o'ng qo'l bilan raqibning o'ng bilagi (panjasi, yengi) changallab olinib, shu zahoti tutib olingan qo'lning tirsak bo'g'iniga qarata chap qo'l kafti bilan pastdan yuqori tomoniga zarba beriladi. Raqibning shu tariqa bukilgan qo'li chap qo'l tirsagining bo'g'inini bilan siqib olinib, gavdaga mahkam bosib olinadi (2-a va b rasm). Raqib ensasiga qarata o'ng qo'l bilan qattiq zarba berilgach, sochi yoki chap yelkasi ustidagi kiyimi changallab olinib, tortiladi va tanasining vazni o'ng oyog'iga o'tkaziladi, chap oyoq raqibning o'ng oyog'i yoniga qo'yiladi (2-d rasm). Zarurat tug'ilsa, raqib yerga qulatilib, qo'llari bog'lanadi (2-e rasm) yoki kerakli joyga olib boriladi.



a



b



d



e

2-rasm. Raqib qo'lini orqa tomondan hamla qilgan tarzda beliga qayirish

3 Raqibning uzatilgan qo'lini ichkariga qayirish

Raqibning uzatilgan qo'lini ichkariga qayirishda (3-rasm) raqib bilagining tashqi tomoni yuqori qismidan ikkala qo'l bilan ushlab olinib, boldiri yoki choviga qarata oyoq bilan qattiq tepiladi va ayni fursatda qo'li qattiq siltanib, tanasining muvozanatini buzgan holda qayrilib, yelkasi yelkaga keltiriladi. Yelka bilan raqib yelkasi, qo'l bilan tirsak bo'g'ini bosilib, yiqitiladi. Shundan so'ng qo'li beliga qayrilib, ustiga chiqib o'tirgan holda ikkinchi qo'li beliga qayirib keltiriladida mahkam bog'lanadi (3-rasm).



3-rasm. Raqibning uzatilgan qo'lini ichkariga qayirish

Topshiriq

- ▶ Og'ritish usullarini mashq qiling.

III BOB.

HARBIY XIZMAT ASOSLARI



ICHKI XIZMAT NIZOMI, HARBIY XIZMATCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

16



Dars davomida

- ▶ Ichki xizmat Nizomi;
- ▶ harbiy xizmatchilarning huquqlari va umumiy majburiyatlari;
- ▶ harbiy xizmatchilarning javobgarligi bilan tanishasiz.



O'ylab ko'ring

Ichki xizmat Nizomi harbiy xizmatchining faoliyatida qanday ahamiyatga ega?
Intizomni buzgan harbiy xizmatchiga nisbatan qanday chora ko'rilishi kerak?

1

Ichki xizmat Nizomi

Ichki xizmat Nizomi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida (keyingi o'rinlarda – Qurolli Kuchlar) ichki tartibni ta'minlash va bo'linmalarda harbiy intizomni saqlashga qaratilgan ichki xizmatni tashkil etish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom Qurolli Kuchlar, harbiy xizmatni o'tash nazarda tutilgan vazirliklar, qo'mitalar va idoralarning (keyingi o'rinlarda – vazirliklar) oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibi lavozimlaridagi harbiy xizmatchilari, harbiy ta'lim muassasalari kursant (tinglovchi)lari (keyingi o'rinlarda – harbiy xizmatchilar), shuningdek, harbiy yig'inlarni o'tash davrida va harbiy kiyimni kiyib yurish huquqi bilan harbiy xizmatdan bo'shatilgan Qurolli Kuchlar rezervida (zaxirasida, iste'foda) turgan fuqarolarga nisbatan tatbiq etiladi.

Harbiy qism (muassasa)da harbiy xizmatchilarning kundalik hayoti va faoliyati ichki xizmat talablariga muvofiq ravishda olib boriladi.

2 Harbiy xizmatchilarning huquqlari va umumiy majburiyatlari

Harbiy xizmatchilarning huquqlari:

- harbiy xizmatchi Vatanga qasamyod qabul qilguniga qadar harbiy lavozimga tayinlanishi, jangovar vazifalarni bajarishga (jangovar harakatlarda ishtirok etishga, jangovar navbatchilikka, jangovar xizmatga, qorovullik xizmatini o'tashga) jalb etilishi mumkin emas, shuningdek, harbiy xizmatchiga qurol-yarog', harbiy va maxsus texnika biriktirilmaydi, unga nisbatan intizomiy ta'zir chorasini qo'llash mumkin emas;
- harbiy xizmatchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan aybdor komandirlar (boshliqlar) amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi;
- harbiy xizmatchilar harbiy xizmat majburiyatlarini bajarish mobaynida jangovar qurolni saqlash, olib yurish, ishlatish va qo'llash huquqiga ega.

Harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari:

- qasamyodda sodiq bo'lish, o'z xalqiga fidokorona xizmat qilish, O'zbekiston Respublikasining davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini mardlarcha va mohirona himoya qilish;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya qilish, harbiy nizomlar talablarini bajarish;
- o'zining huquqiy savodxonligini oshirib borish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik;
- O'zbekiston Respublikasini himoya qilish bilan bog'liq vazifalarni bajarish mobaynida harbiy xizmat mashaqqatlarini sabot va matonat bilan yengish;
- harbiy kasbni egallash, professional ko'nikmalari va harbiy mahoratini takomillashtirib borish, har qanday vaziyatda Vatanini, O'zbekiston xalqining tinchligi va osoyishta hayotini himoya qilishga shay turish, davlat, harbiy va xizmat sirlarini sir saqlash;
- ishonib topshirilgan qurol-yarog', harbiy va maxsus texnikani bilish hamda qo'llash uchun muntazam shay tutish, harbiy mol-mulkni asrab-avaylash;
- halol, intizomli, jasur va harbiy majburiyatni bajarishda oqil tashabbuskor bo'lish;
- komandirlarga (boshliqlarga) so'zsiz bo'ysunish va jangda ularni himoya qilish;
- harbiy o'rtoqlikni qadrlash, kerak bo'lsa, o'z hayotini ham ayamay o'rtoqlarini xavf-xatardan qutqarish, so'zi va ishi bilan ularga yordamga kelish, har birining sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, o'ziga va boshqa harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'pollik va xo'rlanishga yo'l qo'ymaslik, ularni nojo'ya xatti-harakatlardan saqlab qolish.

3 Harbiy xizmatchilarning javobgarligi

Harbiy xizmatchilarning javobgarligi qay tartibda belgilangan?

- Barcha harbiy xizmatchilar, o'z harbiy unvonlari va lavozimlaridan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar va huquqiy holatining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda ularning zimmasiga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun belgilangan javobgarlik yuklatiladi.
- Harbiy xizmatchilar intizomiy nojo'ya xatti-harakatlar yoki ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etganliklari uchun Qurolli Kuchlarning intizom Nizomida belgilangan tartibda intizomiy javobgarlikka tortiladilar.
- Harbiy xizmatchilar sodir etgan ma'muriy huquqbuzarliklari uchun Qurolli Kuchlarning intizom Nizomida belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlikka tortiladilar, ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida umumiy tartibdagi javobgarlik nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno. Bunda harbiy xizmatchilarga nisbatan ma'muriy qamoq jazosi qo'llanishi, muddatli harbiy xizmatchilarga nisbatan esa jarima solinishi mumkin emas.
- Harbiy xizmatchilar harbiy xizmat majburiyatlarini bajarayotganlarida davlatga moddiy zarar yetkazganliklari uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibda moddiy javobgarlikka tortiladilar.
- Harbiy xizmatchilar sodir etgan jinoyatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladilar.
- Harbiy xizmatchilar sodir etgan huquqbuzarligi uchun qoidaga ko'ra, javobgarlikning bitta turiga tortiladilar.
- Harbiy xizmatchilarning javobgarligi Ichki xizmat Nizomining 23–29-moddalarida qayd etilgan.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Ichki xizmat Nizomining mazmun-mohiyati nimaga qaratilgan?
- 2 Harbiy xizmatchilarning huquqlari, umumiy majburiyatlari va javobgarligi nimalardan iboratligini aytib bering.

Topshiriq

Ichki xizmat Nizomiga oid asosiy ma'lumotlarni yozing.

Intizom Nizomi qanday tartibni belgilaydi?

Harbiy intizom bu – ...

Harbiy intizom harbiy xizmatchidan nimalarni talab etadi?

Intizom Nizomi →

YAKKABOSHCHILIK, KOMANDIRLAR VA BO'YSUNUVCHILAR

Dars davomida

- ▶ yakkaboshchilik, komandirlar va bo'ysunuvchilar;
- ▶ kattalar va kichiklar;
- ▶ buyruq berish va ijro etish tartibi haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

O'ylab ko'ring

Yakkaboshchilik harbiy boshqaruvda qanday ahamiyatga ega?
 "Komandirning buyrug'i so'zsiz bajarilishi kerak!" degan iborani eshitganmisiz? Nima uchun shunday?

1 Yakkaboshchilik, komandirlar va bo'ysunuvchilar

Yakkaboshchilik – Qurolli Kuchlarning harbiy qurilishi, ularga rahbarlik qilish va harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy tamoyillaridan biri. Yakkaboshchilik komandirga (boshliqqa) katta mas'uliyat yuklaydi. Unga bo'ysunuvchilarga nisbatan idora etish huquqi beriladi. Zimmasiga harbiy qism (muassasa) va bo'linmalar, shuningdek, har bir harbiy xizmatchi hayoti va faoliyatining barcha jihatlari uchun davlat oldida shaxsan javob berish mas'uliyati yuklatiladi.

O'z xizmat mavqeyidan kelib chiqqan holda ba'zi harbiy xizmatchilar boshqa harbiy xizmatchilarga nisbatan komandir (boshliq) yoki bo'ysunuvchi bo'lishlari mumkin.



1-rasm. Boshliqlar va bo'ysunuvchilar

Komandir bo'ysunuvchiga buyruq berish va ushbu buyruq ijrosini talab qilishga haqlidir. U bo'ysunuvchi uchun xushmuomalalik va o'zini idora etish borasida ibrat bo'lishi, noxolis munosabatlarga yo'l qo'ymasligi lozim. Bo'ysunuvchining insoniy qadr-qimmatini kamsituvchi xatti-harakatlar sodir etgan komandir javobgarlikka tortiladi. Bo'ysunuvchi komandirning buyruqlarini so'zsiz bajarishga majburdir. Agar u o'ziga nisbatan noto'g'ri munosabat ko'rsatilgan deb bilsa, olingan buyruqni bajarib bo'lgach, shikoyat qilishga haqli.

O'z xizmat mavqeyiga ko'ra boshqa harbiy xizmatchilarga nisbatan komandir yoki bo'ysunuvchi deb hisoblanmagan harbiy xizmatchilar bir-biriga nisbatan katta yoki kichik bo'lishlari mumkin.

2 Kattalar va kichiklar

Katta-kichiklik harbiy xizmatchilarning harbiy unvonlari bilan belgilanadi. Harbiy unvoni kichik harbiy xizmatchilar harbiy intizom, jamoat tartibi, yurish-turish, harbiy kiyim kiyish va harbiycha salom berish qoidalarini buzgan hollarda harbiy unvoni kattalar mazkur harbiy xizmatchilardan ushbu kamchiliklarni bartaraf etishni talab qilishlari lozim. Harbiy unvoni kichiklar kattalarning bu talablarini so'zsiz bajarishga majburdirlar.

Bir-biriga bo'ysunuvchi bo'lmagan harbiy xizmatchilar majburiyatlarni birgalikda bajaradigan hollarda ularning o'zaro xizmat munosabatlarini komandir belgilab qo'ymagan bo'lsa, ulardan lavozimiga ko'ra kattasi, lavozimlar teng bo'lsa, harbiy unvoni bo'yicha katta harbiy xizmatchi boshliq sanaladi.

Harbiy xizmatchi xizmatga oid masalalar bo'yicha o'zining bevosita komandiriga murojaat qilishi va uning ruxsati bilan qo'mondonlik pog'onasi bo'yicha navbatdagi komandirga murojaat qilishi lozim.

Harbiy xizmatchi ariza, taklif va shikoyat qilish mobaynida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat qilish tartibini belgilaydigan amaldagi qonunchilik hujjatlariga, shuningdek, Qurolli Kuchlarning intizom Nizomiga rioya qilishga majburdir.



2-rasm. Kattalar va kichiklar

3 Buyruq berish va ijro etish tartibi

Buyruq (buyruqnoma) harbiy xizmatchiga yoki bo'linmaga og'zaki va yozma tarzda, texnik aloqa vositalari yordamida yoki oldindan belgilangan signallar orqali yetkazilishi mumkin. Buyruq (buyruqnoma) qonunchilik hujjatlari va harbiy nizomlarga muvofiq bo'lishi kerak.

Buyruq bo'ysunish pog'onasi bo'yicha beriladi. Vaziyat taqozo etgan holatda katta komandir bo'ysunuvchiga, uning bevosita komandirini chetlab o'tgan tarzda buyruq berishi mumkin. Bunday holatda u bo'ysunuvchining bevosita boshlig'iga xabar beradi yoki unga bo'ysunuvchining o'zi bu haqda bildiruv berishini buyuradi.


Komandirning buyrug'i so'zsiz, aniq va o'z vaqtida bajarilishi shart. Buyruq olgan harbiy xizmatchi "Xo'p bo'ladi" deb javob berib, buyruq ijrosiga kirishadi.

Olingan buyruq bajarilgani bo'yicha harbiy xizmatchi buyruq bergan komandirga va o'zining bevosita komandiriga bildiruv berishga majburdir.

Harbiy xizmatchiga harbiy xizmatga aloqasi bo'lmagan yoki qonunni buzishga yo'naltirilgan buyruq va vazifalar berilishi mumkin emas.



3-rasm. Buyruq berish va ijro etish tartibi



Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Yakkaboshchilik deganda nimani tushunasiz?
- 2 Boshliqlar va bo'ysunuvchilar, kattalar va kichiklar tushunchalarini izohlab bering.
- 3 Buyruq nima? Komandirning buyrug'ini bo'ysunuvchi qanday qabul qilishi kerak?

HARBIY XIZMATCHILAR O'RTASIDAGI O'ZARO MUNOSABATLAR

18



Dars davomida

- ▶ harbiycha salomlashish;
- ▶ harbiy xizmatchilarning xulqi va xushmuomalaligi haqida bilib olasiz.



O'ylab ko'ring

Harbiy xizmatchilar va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning farqlari nimalarda namoyon bo'ladi?

1

Harbiycha salomlashish

Harbiycha salom berish amali harbiy xizmatchilarning birodarlarcha jipsligining ifodasi, o'zaro hurmat va mushtarak madaniyat namoyon bo'lishining belgisi sanaladi.

Barcha harbiy xizmatchilar bir-biri bilan uchrashganda (quvib o'tayotganda) Qurolli Kuchlarning Saf Nizomida bayon etilgan qoidalarga aniq rioya etgan tarzda harbiycha salom berish amalini bajarib o'tishga majburdirlar.

Bo'ysunuvchi yoki harbiy unvoni kichik bo'lgan harbiy xizmatchi birinchi bo'lib harbiycha salom beradi, ularning lavozimlari va harbiy unvonlari teng bo'lsa, o'zini ko'proq tarbiya ko'rgan va xushmuomala deb biladigan harbiy xizmatchi birinchi bo'lib salom beradi.

Harbiy xizmatchilar O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlari, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qilish uchun janglarda halok bo'lgan jangchilarning birodarlik qabrlariga harbiycha salom berishlari kerak.

• Harbiy qism (muassasa) va bo'linmalar safda turgan paytda komanda bo'yicha quyidagi shaxslarga salom beradilar:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi va Qonunchilik palatasi Spikeri, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va vazirlik rahbariga;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar (muassasalar) boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisiga;

– barcha to'g'ridan to'g'ri komandirlar (boshliqlar), shuningdek, harbiy qism (muassasa) va bo'linmalar inspektorlik tekshiruviga (tekshirishga) rahbar etib tayinlangan shaxslarga;

Yurib ketayotgan safda salom berish uchun faqat boshliq komanda beradi.

• Harbiy qism (muassasa) va bo'linmalar komanda bo'yicha quyidagilarga salom beradi:

– O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'iga (tantanali marosimlar mobaynida ko'tarilayot-

ganda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi ijro etilayotganida);

– Mustaqillik va ezgulik monumenti va "Motamsaro ona" yodgorliklariga;

– Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun janglarda halok bo'lgan jangchilarning birodarlik qabrlariga;

– "Xotira maydoni" ("Shahidlar xotirasi") yodgorlik majmuasiga;

– harbiy burchini bajarayotib halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yodgorliklariga;

– bir-biri bilan uchrashganda.

• O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi ijro etilganda safda turgan harbiy xizmatchilar qadrlarini komandasiz rost tutadilar, safni boshqarib turgan komandirlar (boshliqlar), shuningdek, safdan tashqarida bosh kiyim kiygan harbiy xizmatchilar ham o'ng qo'lini bosh kiyimiga keltirib tinglaydilar.

Safdan tashqarida bosh kiyim kiyagan harbiy xizmatchilar O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi ijro etilayotganida qadrlarini rost tutadilar, o'ng qo'li barmoqlarini birlashtirgan holda o'ziga qaratib, ko'krakning chap tomoniga qo'yadilar.

2 Harbiy xizmatchilarning xulqi va xushmuomalaligi

Harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmatga asoslanadi. Ular xizmat masalalari bo'yicha bir-birlariga **"Siz"** deb murojaat qilishlari lozim. Shaxsiy muloqot mobaynida harbiy unvonlar, qo'shin turi yoki xizmatning nomi qo'shmay aytiladi.

Komandir (boshliq, katta) bo'ysunuvchiga (kichikka) xizmat yuzasidan murojaat qilganida uning harbiy unvoni va familiyasini yoki harbiy unvon oldiga **"Hurmatli"** so'zini qo'shgan holda faqat harbiy unvonini aytib chaqiradi. Masalan, **"Oddiy askar Habibov!"**, **"Hurmatli oddiy askar!"**, **"II darajali serjant Azizov!"**, **"Hurmatli II darajali serjant!"**.

Bo'ysunuvchilar va kichiklar xizmat yuzasidan komandirlar (boshliqlar) va kattalarga **"Hurmatli"** so'zidan keyin harbiy unvonlarini aytib murojaat qiladilar. Masalan, **"Hurmatli katta leytenant!"**, **"Hurmatli I rang kapitani!"**.

Harbiy unvonlarni buzib talaffuz qilish, beadab so'zlarni qo'llash, bir-birini laqab bilan chaqirish, qo'pollik va betakalluflik kabi holatlar harbiy xizmatchilarning or-nomusi va qadr-qimmatiga mutlaqo zid tushunchalardir.

Safdan tashqarida komanda berayotgan yoki komanda olayotgan harbiy xizmatchilar qadrlarini rost tutishga, bosh kiyimda bo'lganlarida esa o'ng qo'llarini bosh kiyimiga qo'yishga, buyruq bergandan (olgandan) so'ng tushirishga majburdirlar.

Bevosita muloqot orqali bildiruv berayotgan yoki bildiruv qabul qilayotgan harbiy xizmatchi bildiruv yakunlanganidan so'nggina qo'lini tushiradi. Agar bildiruv berishdan oldin **"Rostlan!"** komandasi berilgan bo'lsa, bildiruv bergan shaxs komandir (boshliq)ning **"Erkin!"** komandasini takrorlaydi va qo'lini bosh kiyimidan tushiradi.

Komandir yoki katta huzuridagi boshqa harbiy xizmatchiga murojaat etish uchun komandirdan yoki kattadan ijozat so'rash zarur. Masalan, **"Hurmatli polkovnik (polkovnigim), kapitan Ernazarovga murojaat etishga ruxsat bering"**.

Jamoat joylarida va jamoat transportida bo'sh joy bo'lmasa, harbiy xizmatchi o'z o'rnini komandirga (boshliqqa, kattaga) taklif qilishga majburdir.

Ikki kishi erkin o'ta olmaydigan joyda komandir (boshliq, katta) bilan duch kelgan bo'ysunuvchi (unvoni kichik harbiy xizmatchi) harbiycha salom bergan holda yo'l berishga, quvib o'tish zarur bo'lgan holatda esa komandirdan (boshliqdan, kattadan) ruxsat so'rab o'tishga majbur.

Sog'lom turmush tarzi barcha harbiy xizmatchilarning kundalik axloq me'yori bo'lishi lozim. Harbiy xizmatchining or-nomusi va qadr-qimmatini yerga uruvchi mastlik holati va shu holatda xizmatga kelish intizomiy nojo'ya xatti-harakat sanaladi.

Harbiycha xushmuomalalik va xulq hamda harbiycha salomlashish qoidalariga amal qilish harbiy kiyim kiygan rezervdagi (zaxiradagi) va iste'fodagi fuqarolarga ham majburiydir. Ular harbiy kiyim kiyishning belgilangan qoidalariga qat'iy amal qilishlari lozim.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Harbiy xizmatchilarning harbiycha xushmuomalaligi va xulqi qanday bo'lishi kerak?
- 2 Harbiy qism (muassasa) va bo'linmalar safda turgan paytdagi salomlashish tartibi haqida nimalarni ayta olasiz?

Topshiriq

- ▷ Harbiycha salomlashish, harbiy xizmatchilarning o'zaro munosabatiga oid holatlarni mashq qiling.

VAQTNING TAQSIMLANISHI VA KUNDALIK TARTIB

19

Dars davomida

- ▶ vaqtning taqsimlanishi;
- ▶ kundalik tartib haqida tushunchaga ega bo'lasiz.


O'ylab ko'ring

Harbiy qismlarda o'rnatilgan kundalik tartibi xonadonimizda shakllangan kun tartibidan nimalari bilan farq qilishi mumkin?

1 Vaqtning taqsimlanishi

Harbiy qismda (muassasada) vaqtning taqsimlanishi qismning doimiy jangovar shayligini ta'minlashi, shaxsiy tarkibning jangovar (maxsus) tayyorgarligini uyushgan holda o'tkazishi, harbiy xizmatchilarning harbiy intizomi va tarbiyasini saqlashi, ularning madaniyat darajasini oshirishi, har tomonlama maishiy xizmat ko'rsatishi, o'z vaqtida dam olishi va ovqatlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi kerak.

Dam olish kuni arafasida muddatli harbiy xizmatchilar uchun tashkil etilgan konsert, kinofilm namoyishi va boshqa tadbirlarni odatdagidan 1 soat kech tugatishga, dam olish kunlarida esa askarlarni odatdagidan kech, harbiy qism (muassasa) komandiri (boshlig'i) belgilagan soatda uyg'otishga ruxsat beriladi. Bu kunlari ertalabki badantarbiya o'tkazilmaydi.



Yakshanba va bayram kunlari, jangovar navbatchilik, garnizon va sutkalik naryadda xizmatni o'tayotganlardan tashqari, barcha shaxsiy tarkib uchun dam olish kunlari sanaladi. Bu kunlarda mashg'ulotlardan bo'sh vaqtda muddatli harbiy xizmatchilar bilan madaniy hordiq ishlari, sport tadbirlari, musobaqa va o'yinlar o'tkazilishi mumkin.

Muddatli harbiy xizmatchilarning xizmat vaqti davomiyligi harbiy qism (muassasa)ning kun tartibi bilan belgilanadi.

No	O'tkaziladigan tadbirlar	Bajarish vaqti	Davo-miyligi
	Shaxsiy tarkibni umumiy uyg'otish	06:00	
	Ertalabki badantarbiya (umumiy rivojlantiruvchi mashqlar)	06:10–06:40	30 daqiqa
	Xonalar va to'shaklarni tartibga keltirish hamda yuvinish	06:40–07:00	20 daqiqa
	Ertalabki ko'rik	07:00–07:10	10 daqiqa
	Nonushta	07:10–07:30	20 daqiqa
	Mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va tarqatuv	07:30–07:50	20 daqiqa
	Mashg'ulot o'tkazish joylariga harakatlanish	07:50–08:00	10 daqiqa
	O'quv mashg'ulotlar: 1-o'quv soati	08:00–08:40	40 daqiqa
	2-o'quv soati	08:40–09:20	40 daqiqa
	3-o'quv soati	09:30–10:10	40 daqiqa
	4-o'quv soati	10:10–10:50	40 daqiqa
	5-o'quv soati	11:00–11:40	40 daqiqa
	6-o'quv soati	11:40–12:20	40 daqiqa
	7-o'quv soati	12:30–13:10	40 daqiqa
	Tushlikka tayyorgarlik	13:10–13:20	10 daqiqa
	Tushlik	13:20–13:50	30 daqiqa
	Shaxsiy tarkibning shaxsiy vaqti	13:50–14:30	40 daqiqa
	O'quv mashg'ulotlari: 8-o'quv soati	14:30–15:10	40 daqiqa
	Mustaqil tayyorgarlik (mashg'ulot rahbarlarining tayyorgarligi, ustoz-shogird soati):		
	1-o'quv soati	15:20–16:00	40 daqiqa
	2-o'quv soati	16:05–16:45	40 daqiqa
	Ma'naviyat soati (dushanba va juma kunlari); Psixologik trening (chorshanba) Huquqbuzarlik profilaktikasi soati (payshanba kunlari)	16:50–17:30	40 daqiqa
	Sport ishlari: 1-o'quv soati	17:40–18:20	80 daqiqa
	2-o'quv soati	18:20–19:00	
	Kechki ovqatga tayyorgarlik	19:00–19:30	30 daqiqa
	Kechki ovqat	19:30–20:00	30 daqiqa
	Shaxsiy ehtiyojlar uchun vaqt	20:00–21:00	60 daqiqa
	"Axborot" ("Tahlilnoma") dasturini tomosha qilish	21:00–21:30	30 daqiqa
	Kechki sayr	21:30–21:40	10 daqiqa
	Kechki yo'qlama	21:40–21:50	10 daqiqa
	Uyquga tayyorgarlik	21:50–22:00	10 daqiqa
	Uyqu	22:00	

2 Kundalik tartib

Kundalik tartibda ertalabki badantariya, ertalabki va kechki hojat, ertalabki ko'rik, o'quv mashg'ulotlari va ularga tayyorgarlik ko'rish, maxsus (ishchi) kiyimni almashtirish, ovqatlanishdan oldin poyabzal tozalash va qo'l yuvish, ovqatlanish, qurol-yarog', harbiy va maxsus texnikaga xizmat ko'rsatish, tarbiyaviy va ommaviy sport ishlari, shaxsiy tarkibga tezkor axborot yetkazish, teleko'rsatuvlar ko'rish, tibbiyot punktida bemorlarni qabul qilish, shaxsiy ehtiyojlar vaqti, kechki sayr, kechki yo'qlama va 8 soat uyqu vaqti, shuningdek, harbiy xizmatchilarning qarindoshlari bilan uchrashuv vaqti va kuni ko'zda tutilgan bo'lishi lozim.


Ovqatlanish vaqtlarining orasi **7 soatdan oshmasligi kerak.**

Tushlikdan so'ng **30 daqiqa mobaynida amaliy mashg'ulotlar yoki xo'jalik ishlari o'tkazilmasligi** lozim.

Majlislar, yig'ilishlar, shu jumladan, spektakl va kinofilmlar namoyishi, shunga o'xshash boshqa ommaviy tadbirlar kechki sayrga qadar yakunlanishi lozim.

Xizmat vaqti reglamentida kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarning xizmatga yetib kelishi va undan jo'nab ketishi, ovqatlanish (tushlik) uchun tanaffus, komandirlik tayyorgarligi, mustaqil tayyorgarlik, mashg'ulotlar o'tkazishga kundalik tayyorgarlik ko'rish, jismoniy tayyorgarlik, yuqori turuvchi qo'mondonlikning buyruq va direktivalarini yetkazish uchun vaqt, shuningdek, harbiy xizmatchilar va tashrif buyuruvchilarni qabul qilish kunlari va vaqti hamda dam olish kunlari ko'zda tutiladi.

Harbiy xizmatchining kundalik tartibi jadvalini davom ettirib, to'ldiring.



Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Harbiy qismlarda kundalik tartib bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarni belgilash qanday maqsadlarni ko'zlab tuziladi?
- 2 Harbiy qismlardagi kundalik tartib o'z ichiga nimalarni oladi?

Dars davomida

- ▶ sutkalik naryad;
- ▶ bo'linma bo'yicha navbatchining majburiyatlari haqida tashunchaga ega bo'lasiz.

O'ylab ko'ring

Naryad va sutkalik naryad deganda nimani tushunasiz?

1 Sutkalik naryad**Sutkalik naryad**

Sutkalik naryad harbiy qism (muassasa) va bo'linmalar ichki tartibini saqlab turish, shaxsiy tarkib, qurol-yarog', harbiy va maxsus texnika, o'q-dorilar, binolar va mol-mulklarni qo'riqlash, bo'linmalardagi faoliyatni nazorat qilish va huquqbuzarliklarning oldini olish choralari o'z vaqtida ko'rish, shuningdek, ichki xizmatga taalluqli boshqa majburiyatlarni bajarish uchun tayinlanadi.

Bo'linma bo'yicha sutkalik naryadga tayinlanadiganlar

bo'linma bo'yicha navbatchi

bo'linma bo'yicha posbonlar

- Bo'linma bo'yicha posbonlar sonini harbiy qism (muassasa) komandiri (boshlig'i) belgilaydi.
- Sutkalik naryad tarkibiga kiritilgan barcha shaxsiy tarkib har kuni harbiy qism (muassasa) komandirining (boshlig'ining) buyrug'i bilan tayinlanadi.
- Sutkalik naryadga tayinlangan barcha shaxslar o'z majburiyatlarini puxta bilishi, aniq va vijdonan bajarishi, kun tartibi hamda ichki tartibning boshqa qoidalariga amal qilinishiga qat'iyat bilan erishishi shart.
- **Sutkalik naryad bo'yicha:**
 - muddatli harbiy xizmatchilar – o'qdoni patronlar bilan to'ldirilgan avtomat (to'pponcha) va nayza-pichoqlar bilan;
 - nayza-pichoq bel kamarining chap tomonida, to'qadan kaft kengligida bo'lishi lozim;
 - granata va zapallarni tarqatish joyi dastlabki marradan 25 metr uzoqda jihozlanadi.

2 Bo'linma bo'yicha navbatchining majburiyatlari

Bo'linma bo'yicha navbatchi serjant va oddiy askarlar tarkibiga mansub kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilardan (harbiy ta'lim muassasalaridagi kursantlardan) tayinlanadi.

Bo'linma bo'yicha navbatchi kun tartibiga, bo'linmadagi ichki tartibni saqlashga qaratilgan boshqa qoidalarga amal qilinishiga, bo'linma tasarrufidagi qurollar va ularning o'q-

dorilari joylangan yashiklar, mol-mulk va muddatli harbiy xizmatchilarning shaxsiy buyumlari but saqlanishiga hamda posbonlar xizmatni to'g'ri o'tashiga javobgar.

Bo'linma bo'yicha navbatchi harbiy qism (muassasa) bo'yicha tezkor navbatchiga, uning yordamchisiga, bo'linmadagi ichki xizmat borasida esa bo'linma komandiriga (boshlig'iga) va bo'linma komandirining moddiy (moddiy-texnik) ta'minot bo'yicha o'rinbosariga (yordamchisiga) bo'y-sunadi. Bo'linma bo'yicha navbatchining majburiyatlari Ichki xizmat Nizomining 278-moddasida o'z aksini topgan.



1-rasm. Bo'linma bo'yicha posbonning hisoboti

Bo'linma bo'yicha navbatchining majburiyatlari:

“Yig'in!” yoki “Trevoga!” signallari e'lon qilinganda shaxsiy tarkibni uyg'otish, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarga xabar berish va ular yetib kelguniga qadar harbiy qism (muassasa) bo'yicha tezkor navbatchi ko'rsatmalarini bajarish;

bo'linmada kun tartibiga (xizmat vaqti reglamentiga) aniq amal qilinayotganini kuzatib borish, belgilangan vaqtda shaxsiy tarkibni umumiy uyg'otish;

bo'linmaning turgan joyi va uni chaqirish tartibini, bo'linmadagi mavjud shaxsiy tarkibni, naryaddagilar, bemorlar, harbiy qism (muassasa) hududidan javob berilganlar yoki komandalar tarkibida jo'natilganlar sonini, shu jumladan, mavjud qurollarning soni va aniq taqsimoti to'g'risidagi ma'lumotlarni bilish;

faqat bo'linma komandiri (boshlig'i)ning buyrug'i bo'yicha, qurol va uning o'q-dorilarini daftarga tegishli qaydlar kiritilgan holda berish;

qurollarni qabul qilib olayotganda donalab, raqamiga ko'ra va butligicha tekshirish, qurol saqlash xonasining kalitini doimo o'z yonida olib yurish va hech kimga bermaslik;



2-rasm. Bo'linma bo'yicha posbon

bo'linmada biron-bir hodisa ro'y berganda yoki harbiy xizmatchilar o'rtasida harbiy nizomlarda belgilangan o'zaro munosabatlarga oid qoidalar buzilganda tartibni tiklashga qaratilgan choralarini kechiktirmay ko'rish, bu haqda zudlik bilan harbiy qism (muassasa) bo'yicha tezkor navbatchiga (navbatchiga), bo'linma komandiri (boshlig'i) yoki uning o'rinbosariga, ular bo'lmaganida esa bo'linma komandirining (boshlig'ining) moddiy (moddiy-texnik) ta'minot bo'yicha o'rinbosariga (yordamchisiga) bildiruv berish;

bo'linmadagi yong'inni o'chirishning birlamchi vositalari hamda qurol saqlash xonalarida qo'riqlash signalizatsiyasining mavjudligi va holatining sozligini, harbiy qismda (muassasada) belgilangan yong'in xavfsizligi talablari bajarilishini nazorat qilish;

harbiy qism (muassasa) bo'yicha tezkor navbatchining komandasiga asosan binoning bo'linmaga kirish eshigini berkitish, kelganlarni esa qo'ng'iroq jaranglashi bo'yicha o'zlarini tanitganlaridan so'ng ichkariga kiritish;

yong'in sodir bo'lganda yong'in o'chirish komandasini chaqirtirish, yong'inni o'chirish choralari ko'rish va bu haqda zudlik bilan harbiy qism (muassasa) bo'yicha tezkor navbatchi (navbatchi) va bo'linma komandiriga bildiruv berish, shuningdek, xavf tahdid solayotgan xonalardan shaxsiy tarkib, qurol-yarog' va mol-mulkn olib chiqish choralari ko'rish;

posbonlarni o'z vaqtida almashtirish.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Harbiy qismlarda sutkalik naryadning vazifalari nimalardan iborat?
- 2 Bo'linma bo'yicha navbatchi zimmasiga qanday majburiyatlar yuklanadi?

GARNIZON VA QOROVULLIK XIZMATLARI NIZOMI, QOROVUL VA UNING VAZIFALARI

21

Dars davomida

- ▶ Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomi;
- ▶ qorovul va uning vazifalari haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

O'ylab ko'ring

Garnizon xizmati deganda nimani tushunasiz va u qayerlarda amalga oshiriladi?
Qorovul tarkibiga kiruvchi shaxslar kimlar va ularning vazifalari nimalardan iborat?

1 Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomi

Ma'lumot uchun

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi Farmoni bilan Qurolli Kuchlarning Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomi tasdiqlangan. U 3 ta bo'lim, 11 ta bob va ilovalardan iborat.

Ushbu Nizom garnizon va qorovullik xizmatlarining tashkil etilishi va uni o'tash tartibini, garnizon mansabdor shaxslari hamda garnizon va qorovullik xizmatlarini o'tayotgan harbiy xizmatchilarning huquqlari va majburiyatlarini belgilab beradi.

Qurolli Kuchlarda garnizon xizmatiga

- O'zbekiston Respublikasi hududida – O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri;
- harbiy okrug hududida – harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni;
- garnizon hududida – garnizon boshlig'i rahbarlik qiladi.

Garnizon belgilangan chegaralarda, ma'lum bir aholi yashash punktida yoki bir hududda doimiy yoki vaqtincha joylashgan harbiy qismlar, qo'shin tuzilmalari, oliy harbiy ta'lim muassasalari va vazirlik muassasalarini o'z ichiga oladi.

Garnizon xizmati

garnizon shaxsiy tarkibi orasida yuksak harbiy intizomni saqlash, garnizon bo'yicha naryad xizmatini tashkil etish, shuningdek, qo'shinlar ishtirokidagi

- garnizon tadbirlarini sifatli o'tkazish maqsadida garnizonda tashkillashtiriladigan (tashkiliy, huquqiy, texnik va shu kabi) tadbirlar kompleksi.

- qurol-yarog', harbiy va maxsus texnika, boshqa moddiy vositalar saqlanadigan omborlar, boshqa harbiy va davlat obyektlarini ishonchli qo'riqlash va mudofaa qilish, shuningdek, gaupvaxta (harbiy xizmatchilarni vaqtincha bandi qilish saqlash uchun ajratilgan maxsus xona) yoki intizomiy qismda saqlanayotgan harbiy xizmatchilarni qo'riqlash uchun mo'ljallangan faoliyat.

- Qurolli Kuchlar turlari va qo'shin turlarining harbiy qismlarida (muassasalarida) qorovullik xizmatiga vazirliklarning tegishli mansabdor shaxslari rahbarlik qiladi.

Garnizon xizmati – bu garnizon shaxsiy tarkibi orasida yuksak harbiy intizomni saqlash, garnizon bo'yicha naryad xizmatini tashkil etish, shuningdek, qo'shinlar ishtirokidagi garnizon tadbirlarini sifatli o'tkazish maqsadida garnizonda tashkillashtiriladigan (tashkiliy, huquqiy, texnik va shu kabi) tadbirlar kompleksidir.

Qorovullik xizmati – bu qurol-yarog', harbiy va maxsus texnika, boshqa moddiy vositalar saqlanadigan omborlar, boshqa harbiy va davlat obyektlarini ishonchli qo'riqlash va mudofaa qilish, shuningdek, gauptvaxta yoki intizomiy qismda saqlanayotgan harbiy xizmatchilarni qo'riqlash uchun mo'ljallangan faoliyatdir.

2 Qorovul va uning vazifalari

Qorovullik xizmatini o'tash jangovar vazifani bajarish hisoblanadi va shaxsiy tarkibdan Garnizon va qorovullik xizmatlari Nizomining barcha qoidalariga to'la amal qilishni, hushyorlik, qat'iylik va tashabbuskorlikni talab etadi.

Qorovullik xizmatini o'tash uchun qorovullar tayinlanadi.

Harbiy va davlat obyektlarini qo'riqlash va mudofaa qilish bo'yicha jangovar vazifani bajarish uchun mo'ljallangan, shuningdek, gauptvaxta va intizomiy qismda saqlanayotgan harbiy xizmatchilarni qo'riqlayotgan qurollangan bo'linma **qorovul** deb ataladi.

Ichki qorovul bir harbiy qism (muassasa)ning obyektlarini qo'riqlash va mudofaa qilish uchun tayinlanadi.

Qorovul tarkibiga qorovul boshlig'i, post va almashuvlar soni bo'yicha qorovullar, tarqatuvchi, qorovul boshlig'ining yordamchisi (zarurat tug'ilsa), qorovul boshlig'ining QTV bo'yicha yordamchisi (operator) yoki operatorlar smenasi (ikki-uch kishi, ulardan bittasi qorovul boshlig'ining QTV bo'yicha yordamchisi etib tayinlanishi mumkin), qorovul itlari xizmati bo'yicha qorovul boshlig'ining yordamchisi va transport vositalari haydovchilari tayinlanadi. Garnizon va qorovullik xizmati Nizomida harbiy xizmatchilarning huquq va majburiyatlari, qorovullik xizmatini o'tash tartibi va talablari belgilab qo'yilgan.



1-rasm. Qorovullarni tayinlash jarayoni

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Garnizon va qorovullik xizmati Nizomida ko'rsatib o'tilmagan mansabdor shaxslarning huquq va majburiyatlari qanday belgilanadi?
- 2 Kimlar qorovul deb ataladi?

SOQCHI VA UNING MAJBURIYATLARI

22



Dars davomida

- ▶ soqchining majburiyatlari va daxlsizligi;
- ▶ soqchining qurol qo'llash tartibi;
- ▶ post va uning jihozlanishi haqida bilimga ega bo'lasiz.



O'ylab ko'ring

"Soqchi", "post" tushunchalari haqida nimalarni bilasiz?
Soqchining qanday majburiyatlari bor va uning daxlsizligini izohlab bera olasizmi?

1

Soqchining majburiyatlari va daxlsizligi

Obyektlarni bevosita qo'riqlash va mudofaa qilish uchun qorovullar tarkibidan soqchilar qo'yiladi. O'ziga topshirilgan postni qo'riqlash va mudofaa qilish bo'yicha jangovar vazifani bajaruvchi qurollangan qorovul **soqchi** deb ataladi.

Soqchining majburiyatlari:

- o'z postini sergaklik bilan qo'riqlash va qat'iyat bilan mudofaa qilish;
- hech narsaga chalg'imasdan sergak xizmat qilish, qurolini qo'lidan qo'ymaslik va hech kimga, hatto o'zi bo'ysunadigan shaxslarga ham bermaslik;
- ko'rsatilgan yo'nalish bo'yicha harakat qilib yoki kuzatuv (pozitsion) minorasida turib postga keladigan yo'llarni, to'siqlarni diqqat bilan kuzatish va post tabelida ko'rsatilgan vaqtlarda xizmatning borishi haqida aloqa vositalari orqali bildiruv berib turish;
- navbat almashmasa yoki postdan olishmasa, hayoti xavf ostida qolsa ham postni tashlab ketmaslik (postni o'zboshimchalik bilan tashlab ketish harbiy jinoyat hisoblanadi);
- postda o'qlangan qurol bilan doimo harakatga tayyor turish;
- post tabelida ko'rsatilgan va taqiqlangan, chegara ko'rsatkichlar bilan ajratilgan joydan ichkariga, post yaqiniga qorovul boshlig'i, uning yordamchisi, o'zining tarqatuvchisi hamda ular kuzatuvida kelgan shaxslardan boshqa hech kimni kiritmaslik;
- transport vositalarining harakat yo'nalishi va jadvalini, taniqli belgilari va signallarini bilish;
- postdagi yong'inni o'chirishning birlamchi vositalarini ishlata bilish;
- obyekt (post) to'siqlarida biror buzilgan joy, o'z posti yaqinida yoki qo'shni postda tartib buzilgani aniqlanganda qorovul boshlig'ini chaqirish;
- itning hurganini eshitgan zahoti bu haqda qorovulxonaga xabar berish.

SOQCHINING DAXLSIZLIGI QUIYIDAGILARDA KO'RINADI:

huquqlari va insoniy qadr-qimmati qonunchilik bilan himoya qilinishida;

barcha shaxslar uning xizmati bo'yicha talablarini so'zsiz bajarishida;

faqat qorovul boshlig'iga, uning yordamchisiga va o'zining tarqatuvchisigagina bo'ysunishida;

Nizomda ko'rsatilgan hollarda unga qurol qo'llash huquqi berilishida.

SOQCHIGA QUIYIDAGILAR TAQIQLANADI:

uxlash, o'tirish, biror narsaga suyanish;

yozish, o'qish, kuylash, gaplashish;

ovqatlanish, chekish, tabiiy ehtiyojlarga borish;

kimligidan qat'i nazar, birovga bir narsa berish va birovdan bir narsa olish;

keraksiz paytda o'qdonga patronni joylash.

Soqchi faqat qorovul boshlig'i, uning yordamchisi, o'z tarqatuvchisi va tekshirish uchun kelgan shaxsning savollariga javob berishi kerak.



1-rasm. Soqchi

2 Soqchining qurol qo'llash tartibi

Soqchi o'ziga yoki qo'riqlanayotgan obyektiga aniq hujum bo'lgan hollarda ogohlantirishsiz qurol qo'llashga majbur.

Soqchi qorovul boshlig'i, qorovul boshlig'ining yordamchisi, o'zining tarqatuvchisi va ular kuzatuvda kelgan shaxslardan boshqa postga yoki taqiqlangan chegaraga yaqinlashgan barcha shaxslarni **"To'xta, orqaga!"** yoki **"To'xta, o'ngdan (chapdan) aylanib o't!"**, deb to'xtatishga haqli.

Agar postga yoki taqiqlangan chegaraga yaqinlashayotgan tartibbuzar uning bu talabini bajarmasa, soqchi uni **"To'xta, otaman!"** deb ogohlantiradi va zudlik bilan qorovul boshlig'ini yoki tarqatuvchini chaqiradi. Agar tartibbuzar shunda ham post va taqiqlangan chegaraga yaqinlashishda davom etsa, soqchi o'qdonga patronni yuboradi, osmonga qarab ogohlantiruvchi o'q uzadi. Tartibbuzar shunda ham uning

talabini bajarmasa va postga kirishga (taqiqlangan chegarani kesib o'tishga) harakat qilsa yoki qochishga urinsa, soqchi unga nisbatan qurol ishlatadi.

Ko'rish yomon bo'lgan sharoitda post tabelida ko'rsatilgan masofadan postga va taqiqlangan chegaraga yaqinlashganlar ko'rinmay qolganda, soqchi ularni **"To'xta, kim kelyapti?"** deb baqirib to'xtatadi. Agar javob bo'lmasa, soqchi uni **"To'xta, otaman!"** deb ogohlantiradi va tartibbuzarni ushlaydi. Ushlangan tartibbuzar haqida qorovulxonaga xabar beradi, uning o'zini tutishini kuzatadi, shu bilan birga, diqqatini bo'lmay, o'ziga topshirilgan postni qo'riqlashda davom etadi.

Soqchi chaqirig'iga **"Qorovul boshlig'i (qorovul boshlig'ining yordamchisi, tarqatuvchi) kelyapti"** degan javob bo'lsa, soqchi quyidagicha buyruq beradi: **"Qorovul boshlig'i (qorovul boshlig'ining yordamchisi, tarqatuvchi) mening oldimga, qolganlar joyida qolsin!"**. Zarurat bo'lsa, soqchi o'ziga yaqinlashayotgan shaxsdan yuzini yoritishni talab qiladi. Soqchi o'ziga yaqinlashayotgan shaxs, haqiqatan ham, qorovul boshlig'i (qorovul boshlig'ining yordamchisi, tarqatuvchi) ekaniga ishonch hosil qilgach, qolganlarni ham o'z oldiga qo'yadi.

Agar o'zini qorovul boshlig'i (qorovul boshlig'ining yordamchisi, tarqatuvchi) deb tanishtirgan shaxs boshqa kishi bo'lsa va u bilan birga kelganlar soqchining **"Qolganlar joyida qolsin!"** degan talabini bajarmasa, soqchi **"To'xta, otaman!"** deb ogohlantiradi. Tartibbuzarlar soqchining bu talabini bajarmasa, ularga nisbatan qurol qo'llaydi.

Qo'riqlanayotgan obyektни va o'zini himoya qilish uchun qo'l jangiga kirishga zarurat tug'ilsa, soqchi nayza-pichoq (nayza) va qo'ndiq bilan qo'rqmasdan dadil harakat qilishi kerak.




2-rasm. Soqchining qurolni qo'llash tartibi

3 Post va uning jihozlanishi


Qo'riqlash va mudofaa qilish uchun soqchiga topshirilgan barcha narsa – u o'z majburiyatini bajarayotgan joy yoki yer uchastkasi **post** deb ataladi. Qo'riqlashning texnik vositalari yordamida qorovul qo'riqlayotgan obyektlar va bu vositalar o'rnatilgan yer uchastkalari ham postlarga kiradi.

Soqchi obyektlarni uning atrofidagi ichki va tashqi devor o'rtasida, agar obyekt bitta devor bilan o'ralgan bo'lsa, devorning ichki tomoni bo'ylab patrullik qilish yo'li bilan, shuningdek, post (pozitsiyaviy) kuzatuv minoralaridan turib kuzatish orqali qo'riqlaydi. Ayrim postlarni soqchilar joyida turib qo'riqlashi mumkin.

O'ta muhim davlat va harbiy qism obyektlarini qo'riqlayotgan askar post (pozitsiyaviy) kuzatuv minoralaridan turib, sinchkovlik va diqqat bilan soqchilik qilishi kerak.



3-rasm. Kuzatuv minorasi



4-rasm. Post soyaboni

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Soqchining majburiyatlariga nimalar kiradi?
- 2 Soqchining daxlsizligi nimalarda aks etadi?

MUDOFAA VAZIRLIGI TIZIMIDAGI TA'LIM TASHKILOTLARI

23



Dars davomida


- ▶ O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti;
- ▶ oliy harbiy o'quv yurtlariga qabul qilish tartibi va qoidalari haqida bilib olasiz.



O'ylab ko'ring

Agar siz harbiy kasbni egallashni maqsad qilgan bo'lsangiz, Mudofaa vazirligi tizimidagi ta'lim tashkilotlarining qaysi birida o'qishni davom ettirgan bo'lar edingiz?

1 O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti



O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti asosiy vazifalari:

- zamonaviy jangovar harakatlar haqida harbiy xizmatchilarda zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ularning jismoniy va jangovar tayyorgarligini kuchaytirish, psixologik bardoshlilik hamda jangovar ruhini oshirish, intellektual, madaniy, ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish;
- harbiy xizmatchilarda harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash, ularni Vatanga, fuqarolik burchiga sodiqlik va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga mansubligidan faxrlanish ruhida tarbiyalash;
- harbiy ilm-fanni jahon harbiy san'ati rivojidadagi so'nggi tendensiyalar, noan'anaviy urushlar va qurolli to'qnashuvlar xususiyatlarini inobatga olgan holda rivojlantirish, ushbu yo'nalishlarda innovatsion faoliyatni amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida quyidagi yo'nalishlar mutaxassisligi bo'yicha ofitserlar tayyorlanadi:

- | | |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <ul style="list-style-type: none">• Qo'shinlarning taktik qo'mondonligi (motoo'qchi bo'linmalari);• Qo'shinlarning taktik qo'mondonligi (chegara qo'shinlari);• Qo'shinlarning taktik qo'mondonligi (Ichki ishlar vazirligi qo'shinlari);• Qurolli Kuchlar bo'linmalarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarni tashkil etish; | <ul style="list-style-type: none">• Qo'shinlarning taktik qo'mondonligi (radiatsion, kimyoviy va biologik muhofaza qo'shinlari);• Aniqlovchi va qo'riqlovchi tizimlardan foydalanish bo'yicha qo'mondonlik-muhandislik faoliyati;• Front orti ta'minoti taktik qo'mondonligi (qo'shinlarning kiyim-kechak, oziq-ovqat ta'minoti va yoqilg'i ta'minoti);• Xizmat faoliyatini tarbiyaviy psixologik ta'minlash (psixolog). |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

Quruqlikdagi qo'shinlar Instituti

quyidagi yo'nalishlar bo'yicha harbiy mutaxassislar tayyorlaydi:

- | | |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <ul style="list-style-type: none">• qo'shinlarning taktik qo'mondonligi (maxsus operatsiya kuchlari bo'linmalari);• qo'shinlarning taktik qo'mondonligi (havo-desant qo'shinlari);• qo'shinlarning taktik qo'mondonligi (qo'shin razvedkasi);• qo'shinlarning taktik qo'mondonligi (tank qo'shinlari);• qo'shinlarning taktik qo'mondonligi (artilleriya); | <ul style="list-style-type: none">• qo'shinlarning taktik qo'mondonlik muhandisligi (raketa-artilleriya qurollari va o'q-dorilari);• qo'shinlarning taktik qo'mondonligi (muhandislik qo'shinlari);• qo'shinlarning taktik qo'mondonlik muhandisligi (tank qo'shinlari);• qo'shinlarning taktik qo'mondonlik muhandisligi (avtomobil bo'linmalari). |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

Harbiy aviatsiya institutida

quyidagi yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda:

- | | |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <ul style="list-style-type: none">• harbiy havo kuchlari taktik qo'mondonligi (taktik aviatsiya);• harbiy havo kuchlari taktik qo'mondonligi (vertolyot aviatsiyasi);• harbiy havo kuchlari taktik qo'mondonligi (razvedka aviatsiyasi, uchuvchisiz razvedka-zarbdor aviatsiya majmualari);• havodagi harakatni boshqarish taktik qo'mondonlik muhandisligi; | <ul style="list-style-type: none">• uchish apparatlari ekspluatatsiyasi taktik qo'mondonlik muhandisligi (uchish apparatlari va dvigatellariga xizmat ko'rsatish);• uchish apparatlari ekspluatatsiyasi taktik qo'mondonlik muhandisligi (uchish apparatlarining aviatsiya qurollariga xizmat ko'rsatish);• uchish apparatlari ekspluatatsiyasi taktik qo'mondonlik muhandisligi (uchish apparatlarining radioelektron jihozlariga xizmat ko'rsatish). |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti

Turdosh oliy ta'lim muassalarida o'qishning 2-bosqichini tamomlagan a'lo va yaxshi baholarga o'qigan, sog'lom va yetuk talabalar harbiy-mutaxassislik tanlovi asosida maxsus imtihonlar va test sinovlari natijalariga ko'ra qabul qilinadilar. Unda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda:

- | | |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <ul style="list-style-type: none">• qo'shinlarning taktik qo'mondonlik muhandisligi (aloqa qo'shinlari);• qo'shinlarning taktik qo'mondonlik muhandisligi (axborotlarni kriptografik himoyalash va maxsus aloqa);• qo'shinlarning taktik qo'mondonlik muhandisligi (axborot tizimlari va texnologiyalari);• qo'shinlarning taktik qo'mondonlik muhandisligi (radioelektron razvedka);• qo'shinlarning taktik qo'mondonlik muhandisligi (radioelektron kurash); | <ul style="list-style-type: none">• qo'shinlarning taktik qo'mondonlik muhandisligi (havo hujumidan mudofaa radiotexnika qo'shinlari);• qo'shinlarning taktik qo'mondonlik muhandisligi (havo hujumidan mudofaa zenit-raketa qo'shinlari);• qo'shinlarning taktik qo'mondonlik muhandisligi (zenit-raketa qo'shinlari);• qo'shinlarning taktik qo'mondonlik muhandisligi (avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi);• qo'shinlarning taktik qo'mondonlik muhandisligi (chegara qo'shinlari intellektual tizimlari);• qo'shinlarning taktik qo'mondonlik muhandisligi (tarmoq va axborot tizimlarining xavfsizligi). |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining **Harbiy tibbiyot instituti** respublikamiz tibbiyot oliygohlari davolash fakultetlarining 5-bosqichi, tibbiy profilaktika fakultetlarining 4-bosqichini a'lo va yaxshi baholarga o'qigan, sog'lom va yetuk talabalar harbiy-mutaxassislik tanlovi asosida, maxsus imtihonlar va test sinovlari natijalariga ko'ra qabul qilinadilar. Unda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda:

harbiy vrach

gigiyena-epidemiologiya harbiy vrachi

Harbiy internatura:

- ▶ yuqumli kasalliklar (yo'nalishlar bo'yicha);
- ▶ ichki kasalliklar (yo'nalishlar bo'yicha);
- ▶ jarrohlik kasalliklari (yo'nalishlar bo'yicha)
- ▶ harbiy epidemiolog;
- ▶ harbiy gigiyenist.

Klinik ordinatura:

- ▶ ichki kasalliklar (yo'nalishlar bo'yicha);
- ▶ umumiy xirurgiya (yo'nalishlar bo'yicha);
- ▶ yuqumli kasalliklar;
- ▶ epidemiologiya;
- ▶ kommunal gigiyena;
- ▶ mehnat gigiyenasi.

2 Oliy harbiy o'quv yurtlariga qabul qilish tartibi va qoidalari

Oliy harbiy o'quv yurtlariga 25 yoshgacha (Harbiy tibbiyot institutiga 30 yoshgacha) bo'lgan ofitser harbiy unvoniga ega bo'lmagan harbiy xizmatchi va harbiy xizmatga majburlar;

17 yoshdan 23 yoshgacha bo'lgan, shu jumladan, 17 yoshga to'ladigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadi.

Oliy harbiy o'quv yurtlari kursantlari kontingentini sifatti butlash uchun quyidagi saralab olish tadbirlari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

harbiy-professional yo'naltirish

dastlabki saralab olish

test sinovlari

Oliy harbiy o'quv yurtlariga topshirish jarayonida bir bosqichdan muvaffaqiyatli o'ta olmagan nomzodlar keyingi bosqichga qo'yilmaydi. Nomzodlar teng huquqlilik va qabul qilishning yagona qoidalari asosida qabul qilinadi.

Oliy harbiy o'quv yurtlariga nomzodlar uch til – o'zbek, qoraqalpoq va rus tillaridan birini shaxsan tanlagan holda test sinovlari topshiradilar.

Oliy harbiy o'quv yurtlariga o'qishga kirish istagini bildirgan nomzodlar tomonidan mudofaa ishlari bo'limlariga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- ariza (bildirgi);
- chaqiriluvchining qayd etish guvohnomasi yoki harbiy guvohnomasi;
- nomzod tomonidan qo'lda yoki kompyuterda yozilgan tarjimai hol;
- anketa;
- o'qish, ish yoki xizmatni o'tash joyidan (agar o'qiyotgan, ishlayotgan yoki xizmatni o'tayotgan bo'lsa) tavsifnoma hamda ma'lumotnoma;
- ota-onasining OHTMga o'qishga kirishiga rozilik xati (voyaga yetmaganlar uchun);
- 3x4 cm o'lchamdagi 6 ta fotosurat (bosh kiyimsiz va oq fonda) hamda 4,5x6 cm o'lchamdagi 4 ta fotosurat (bosh kiyimsiz).

Kirish imtihonlaridan oldin nomzodlar tibbiy ko'rikdan o'tadi. Sog'lig'ida muammo aniqlanganlar imtihonga qo'yilmaydi. Shundan so'ng abituriyentlar kuch, chidamlilik va chaqqonlik bo'yicha (turnikda tortilish, 3 km kross, 100 m yugurish) normativ mashqlarni bajaradilar.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetidan qanday mutaxassislar yetishib chiqadi?
- 2 Harbiy ta'lim muassasasiga kirish uchun qanday bosqichlardan o'tish talab etiladi?

IV BOB.

FUQARO MUHOFAZASI



24

ZILZILA VAQTIDA HARAKATLANISH

Dars davomida

- ▶ zilzilalarning yuzaga kelish sabablari;
- ▶ zilzila turlari;
- ▶ zilzilada to'g'ri harakatlanish qoidalari haqida bilimga ega bo'lasiz.

O'ylab ko'ring

To'satdan zilzila sodir bo'lganda siz dastlab qanday chora ko'rasiz?
Agar zilzila vaqtida bino ichkarisida bo'lsangiz, qaysi joylarni xavfsiz deb bilasiz?

1 Zilzilalarning yuzaga kelish sabablari

Zilzilalar, asosan Yer sharining seysmik kamarlarida bo'lib turadi. Ular Tinch okean, O'rta yer dengizi – Osiyo va O'rta Atlantika suvosti tog' tizmalaridagi seysmik kamarlardir.

O'rta yer dengizi (Osiyo)
seysmik kamarida – taxminan
15 foiz

O'rta Atlantika suvosti seysmik
kamarida – taxminan 5 foiz



2 Zilzila turlari


Zilzilalar chuqurligiga ko'ra **qobiq** (70 km gacha), **qobiq osti** va **chuqur fokusli** turlarga bo'linadi. O'zbekiston va Markaziy Osiyodagi zilzilalar asosan qobiq zilzilalariga kiradi, chuqurligi odatda 10–40 km, ba'zida 70 km gacha bo'ladi.



3 Zilzilada to'g'ri harakatlanish qoidalari

Zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda aholi xavfsizligini ta'minlash, jumladan, insonlarni to'g'ri harakat qilishga o'rgatish hamda ularning bu boradagi bilimlarini doimiy ravishda oshirib borish fuqaro muhofazasi tadbirlarining eng asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Yer qimirlaganda uyning eng xavfli joylari: ichki va tashqi deraza osti, devorlarning oyna bilan qoplangan qismlari, ayniqsa, oxirgi qavatlardagi burchakda joylashgan xonalar, lift va zinapoya maydonchalari.



Xonaning ichida bo'lganda:

- 1 Ko'p qavatli uying birinchi qavatida, xom g'ishtli, pishgan g'ishtli yoki paxsa devorli shaxsiy uylarda yashasangiz, yer qimirlashi boshlanishi bilan 15–20 soniya ichida darhol tashqariga chiqib keting. Elektr simlari, gaz quvurlari va baland imoratlar tagidan uzoqroqqa, ochiq joyga o'ting.
- 2 Oila a'zolaringiz va o'zingiz kvartirangizda, podyezdda, uyingizda gaz, elektr, suvni o'chirish yo'llarini bilishingiz lozim.

Agar xonaning ichida qolsangiz, oldindan belgilab olingan xavfsiz joyga turib oling. Mabodo yuqoridan suvoq parchalari, yoritkich asboblari, oyna siniqlari tushadigan bo'lsa, stol yoki karavotlar tagiga berkining. Maktab o'quvchilari partalar tagiga kirib, oynaga teskari o'girilib, boshlari va yuzlarini qo'llari bilan berkitib olishlari zarur.
- 3 Ikkinchi qavatdan yuqorida bo'lsangiz, hech qachon lift yoki zinapoyalarga qarab yugurmang, chunki ko'p hollarda yer qimirlashi bilan birinchi navbatda ular qulaydi. Bunday hollarda uying eshigini ochib, ostonaga turib oling.
- 4 Har qanday binoning oynavand devorlaridan uzoqroqda, asosiy devori yonida turishga harakat qiling. Oyna to'siqlardan ehtiyot bo'ling.
- 5 Sakrashga majbur bo'lgan hollarda zinhor yopiq deraza oynasiga qarab sakramang, oynani taburetk (stul) yoki yelkangiz bilan sindirib, keyin sakrang.
- 6 Odamlar bilan gavjum joylarda (do'kon, kinoteatr, maktab, universitet, vokzal) sarosimaga tushmang, binoning asosiy devorlariga, ustunlarga osilib turgan buyumlar – qandil, shamollatkich, reklama taxtalaridan uzoqroq turing.
- 7 Jarohatlanganda, umuman, har qanday xavf bo'lganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish choralarini o'rganing. Doimo uyingizda dori-darmonlar, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qutichasini saqlang.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Zilzila nima, u qanday talafotlar yetkazadi va qanday sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin?
- 2 Zilzilarning qanday turlarini bilasiz? Zilzila vaqtida qanday harakatlanish kerak?

KO'CHKI VA SUV TOSHQINLARIDA HARAKATLANISH

25

Dars davomida

- ko'chki va o'pirilishlarda to'g'ri harakatlanish qoidalari;
- sel va suv toshqinlari xavfi yuzaga kelganda yoki sodir bo'lganda harakatlanish tartibi bilan tanishasiz.

O'ylab ko'ring

Ko'chki, sel va suv toshqinlari xavfi haqida ogohlantirish berilganda qanday choralar ko'riladi? Ko'chki va o'pirilishlarning, sel va suv toshqinlarining bir-biridan farqini ayta olasizmi?

1 Ko'chki va o'pirilishlarda to'g'ri harakatlanish qoidalari

Ko'chki – insonlar o'limiga olib keladigan (yoki olib kelishi mumkin bo'lgan), ularni xavfli hududdan xavfsiz joylarga vaqtincha (yoki doimiy yashash uchun) ko'chirishni talab qiluvchi yer ko'chkilari, tog' o'pirilishlari va boshqa turdagi geologik xavfli hodisalar.



KO'CHKI VAQTIDA TO'G'RI HARAKATLANISH QOIDALARI

Zudlik bilan yashash uchun zaruriy narsalarni olib, xavfsiz hududga ko'chib o'ting;

Yer ko'chishi (tog' o'pirilishi) boshlanganida xavfsiz hududga o'tishga ulgurmagan bo'lsangiz, uying tomiga chiqing yoki mustahkam devor panasiga o'tib oling;

Harakatlanish vaqtida daraxtlar, elektr simlari, gaz quvurlari, yo'l va ko'priklarning holatiga e'tiborli bo'ling.

2 Sel va suv toshqinlari xavfi yuzaga kelganda yoki sodir bo'lganda harakatlanish tartibi

Sel – tog' daryolari o'zanlarida to'satdan yuzaga keluvchi, katta hajmdagi qum, tosh va tog' jinslari bo'laklari aralashmasidan iborat loyqa yoki loy-toshli oqim.



Sel, suv toshqinlari vaqtida to'g'ri harakatlanish qoidalari

- 1 Harakatdagi sel oqimi tomon yaqinlashmay, undan kamida 50–70 metr uzoqroq masofada turing. Tinimsiz yomg'ir yoki jala yog'ishi davom etsa, sel, suv toshqinlari xavfi yuqori hududlarda bo'lsangiz, tezda xavfsiz joyga o'ting. Yosh bolalar, surunkali kasalligi bor qariyalar, bolali ayollarni himoyangizga oling.
- 2 Sel, suv toshqini xavfi yuzaga kelgani va evakuatsiya o'tkazish to'g'risidagi xabarni olgach, belgilangan tartibda xavfli hududdan xavfsiz hududga yoki tepaliklarga chiqing.
- 3 Manzilga yetib kelgach, ko'chiriluvchilarni qabul qilish punktida ro'yxatdan o'ting.
- 4 Qutqaruvchilar yetib kelguniga qadar suv bosgan hududdagi odamlar binolarning yuqori qavatlarini va tomlaridan, daraxtlardan va boshqa tepaliklardan pastga tushmay turishlari talab qilinadi.
- 5 Suv sathi pasaymaguncha yoki xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish uchun ishonchli vositalari bor qutqaruvchilar yordamga kelmagunlaricha suv bosgan hududdan chiqib ketmang.
- 6 Qutqaruvchilar yaqinlashganda, suzuvchi vositaga o'ting. Bunda qutqaruvchilarning ko'rsatmalariga qat'iy amal qiling, suzuvchi vosita ustidagi yukning ko'payib ketmasligiga e'tibor bering. Harakat vaqtida o'rningizdan qimirlamang, qayiq chetiga o'tirmang, ekipaj a'zolarining talablarini bajaring.
- 7 Suv oqimini kesib o'tishga harakat qilmang. Yordam yetib kelgunga qadar xavfsiz joyni tark etmang.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Ko'chki, sel va suv toshqinlarini ta'riflab bering.
- 2 Ko'chki, sel va suv toshqinlarining kelib chiqish sabablarini aytib bering.
- 3 Ko'chki, sel va suv toshqinlari ro'y berganda qanday harakatlanish kerak?

KUCHLI SHAMOLDA, JALADA, ISSIQ VA SOVUQ VAZIYATLARDA HARAKATLANISH

26

Dars davomida

- ▶ kuchli shamolda to'g'ri harakatlanish tartibi;
- ▶ kuchli jalada to'g'ri harakatlanish tartibi;
- ▶ anomal sovuq paytlarda to'g'ri harakatlanish tartibi;
- ▶ anomal issiq paytlarda to'g'ri harakatlanish tartibi bilan tanishasiz.

O'ylab ko'ring

Kuchli shamol, jala, issiq va sovuq paytlarda ochiq hududda bo'lsangiz, qanday joylar xavfsiz hisoblanadi?

1 Kuchli shamolda to'g'ri harakatlanish tartibi

O'zbekistonning shimoliy qismida shimoli-g'arbiy, shimoliy va shimoli-sharqiy shamollar esadi. Janubiy qismida esa janubi-g'arbiy shamollar ko'proq esadi. Mazkur shamol yo'nalishlari xalq tilida **Afg'on**, **Qo'qon** va **Bekobod shamoli** deb ataladi.

Shamol tezligi m/s, km/h yordamida aniqlanadi. 5–8 m/s tezlikdagi shamol o'rtacha, 14 m/s tezlikdagi shamol esa kuchli hisoblanadi. 20–25 m/s tezlikdagi shamol dovul (shtorm), 30 m/s tezlikdagi shamol esa **bo'ron** deyiladi.



Kuchli shamol vaqtida to'g'ri harakatlanish tartibi

- 1 Ko'chaga chiqmang: yomon ob-havoda shahar ko'chalarida doimo tirbandliklar yuzaga keladi va harakatlanish qiyinlashadi.
- 2 Biror pana joy toping, bular chuqurlik, yerto'lalar, tunnellar, yerosti o'tish joylari yoki mustahkam bino bo'lishi mumkin.
- 3 Daraxtlar, reklama shitlari yoki omonat to'siqlar ostida turmang, ular kuchli shamol vaqtida qulashi mumkin.
- 4 Kuchli shamol vaqtida ko'chada bo'lsangiz, biron-bir mustahkam buyumdan mahkam ushlab oling.
- 5 Elektr uzatish liniyalari yoki shikastlangan binolardan uzoqroqda turing; uylarning tomi, oyna va boshqa buyumlarning uchayotgan bo'laklaridan himoyalang.

2 Kuchli jalada to'g'ri harakatlanish tartibi

Kuchli jala – shiddat bilan yog'adigan qisqa muddatli atmosfera yog'ini, kuchli yomg'ir. Ba'zan ho'l qor, qor uchqunlari aralash yog'adi. Jalaning yog'ish jadalligi har soatda 100 mm gacha yetadi.

**Kuchli jala
vaqtida to'g'ri
harakatlanish
tartibi**

- Tegishli yordam xizmatlariga xabar bering.
- Kuchli jala yog'ishi oqibatida suv to'satdan ko'tarilgan hollarda tezlik bilan yosh bolalarni, surunkali kasalligi bor qariyalarni va bolali ayollarni tepa joylarga olib chiqing.
- Suvga tushishga to'g'ri kelgudek bo'lsa, bochka, g'o'la, taxta, eshik, yog'och bo'laklari yoki avtomobil kameralaridan foydalaning.

3 Anomal sovuq paytlarda to'g'ri harakatlanish tartibi

Anomal sovuq – havo haroratining me'yordan 7–12°C gacha pasayib ketish holati.

MUZLASH XAVFI BO'LGAN TANA QISMLARI

qo'l barmoqlari

yuz (burun, quloq, yonoq)

oyoq barmoqlari (ayniqsa, poyabzal siqsa yoki ho'l bo'lsa)



SOVUQDA QANDAY HARAKAT QILISH KERAK?

Doimiy harakatlaning – bir joyda turmang!

Sovuq joyga suyanish yoki o'tirish mumkin emas.

Issiq kiyimlar kiying.

Bir necha qavat kiying (yaxshisi tabiiy matodan).

Issiq, qulay poyabzal, bosh kiyim, qo'lqoplar.

Tana harorati bilan bog'liq xavfli chegaralar:
32°C dan past darajada yurak va nafas tizimlari faoliyati buziladi, 27°C darajada koma holatiga olib kelishi mumkin.

MUZLASH BELGILARI

sovuqni sezish

qisqa muddatli isinish

teri qizarishi


sezuvchanlikning yo'qolishi

uvishish

Ogohlantirish:
muzlash holatida inson har doim o'z holatini to'g'ri baholay olmaydi!

4 Anomal issiq paytlarda to'g'ri harakatlanish tartibi

Organizm va suyuqlik. Inson tanasining 70% dan ko'proq qismi suyuqlikdan iborat. Qontomir tizimi 36,6°C haroratda normal ishlaydi: hujayralarni oziqlantiradi va kislorod bilan ta'minlaydi.



Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Kuchli shamol, jala, anomal issiq va sovuqning insoniyatga yetkazadigan ziyonlarini izohlab bering.
- 2 Shamol, jala, anomal issiq va sovuqlarda qo'llaniladigan ehtiyot choralari to'g'risida aytib bering.
- 3 Yurtimizda anomal issiq kuzatilsa, qanday ehtiyot choralari qo'llash kerak?

TRANSPORT VOSITALARI BILAN BOG'LIQ AVARIYALARDA HARAKATLANISH



Dars davomida

- ▶ transport avariylari va ularning turlari;
- ▶ avtomobil, temiryo'l, metro va havo transport vositalari bilan bog'liq avariylarda harakatlanish tartibi haqida bilib olasiz.



O'ylab ko'ring

Transport vositalari ishtirokida sodir bo'ladigan avariylar haqida bilasizmi? Hodisa ro'y bergan joyda nimalarga e'tibor qaratilishi lozim deb bilasiz?

1 Transport avariylari va ularning turlari

Transport avariylarining turlari:

Aviahalokatlar – ekipaj a'zolari va yo'lovchilarning o'limiga, havo kemalarining to'liq parchalanishi yoki qattiq shikastlanishiga sabab bo'ladigan, qidiruv va avariya-qidiruv ishlari talab qilinadigan vaziyatlar.

Temiryo'l transportidagi halokatlar (avariylar, ag'darilishlar) – **yong'inga, portlashga**, harakatlanuvchi tarkibning buzilishiga sabab bo'lgan va temiryo'l xodimlarining, halokat hududidagi temiryo'l platformalari, vokzal binolari va shahar imoratlarida bo'lgan odamlar o'limiga, shuningdek, tashilayotgan kuchli ta'sir ko'rsatuvchi zaharli modda (KTKZM)lar bilan halokat joyiga tutash hududning zaharlanishiga olib kelgan vaziyatlar.

Avtomobil transportining halokati (avariylari), shu jumladan, **yo'l-transport hodisalari** – portlashlarga, yong'inlarga, transport vositalarining parchalanishiga, tashilayotgan KTKZMlarning zararli xossalari namoyon bo'lishiga va odamlar o'limi (jarohatlanishi, zaharlanishi)ga sabab bo'ladigan vaziyatlar.

Metropolitan bekatlaridagi va tunellaridagi halokatlar (avariylar) – odamlarning o'limiga, shikastlanishiga va zaharlanishiga, metropoliten poyezdlari parchalanishiga olib kelgan vaziyat.

2 Avtomobil, temiryo'l, metro va havo transport vositalari bilan bog'liq avariylarda harakatlanish tartibi

Avtomobil transporti avariylari va halokatlarda to'g'ri harakat qilish tartibi:

- agar to'qnashuv muqarrar bo'lsa, boshingizni himoya qiling. Agar tezlik 60 km/soatdan yuqori va siz xavfsizlik kamarini taqmagan bo'lsangiz, ko'krak qafasingizni rul ustiga bosing;
- yo'lovchining old o'rindig'ida bo'lsangiz, boshingizni qo'llaringiz bilan yoping va yon tomonga yotib, o'rindiqa suyaning;
- orqa o'rindiqa o'tirgan bo'lsangiz, mashina poliga yiqilishga harakat qiling. Agar yoningizda bola bo'lsa, uni panalab, himoya qiling;
- avariya so'ng, transport vositasining qaysi joyida va qanday holatda ekanligingizni, avtomobil yonib ketmaganini va benzin oqmayotganini aniqlang (ayniqsa, ag'darilganda);
- agar eshiklar siqilib qolgan bo'lsa, avtomobil oynasini ochib yoki qattiq jism bilan sindirib derazalar orqali joyni tark eting. Avtomobildan chiqqandan so'ng, iloji boricha undan uzoqlashing: portlashi mumkin;
- suvga ag'darilgan mashina birmuncha vaqt suvning ustida bo'lishi mumkin. Ochiq oyna orqali chiqing, chunki eshik ochilganda mashina suvga to'lib cho'ka boshlaydi. Zururat tug'ilganda qattiq jism bilan oynani sindirib tashlang. Qo'llaringiz bilan mashinaning tomini ushlab, tashqariga siqilib chiqing va zudlik bilan yuqoriga qarab suzing;
- agar avtohalokatga duch kelsangiz, darhol to'xtab, haydovchi bilan birga uning transport vositasini tekshirishingiz kerak (agar siz baxtsiz hodisa uchun aybdor bo'lsangiz);
- agar jabrlanganlar bo'lsa, har qanday holatda ularni yordamsiz qoldirmang;
- hodisa haqida "102" raqamiga qo'ng'iroq qilib, xabar bering yoki yaqin atrofdagi yo'l patrul postiga haydovchilar orqali xabar qiling;
- voqea sodir bo'lgan joyni tark etmang, toki Davlat avtomobil nazorati xodimlari kelmagunga qadar. Voqea izlarini iloji boricha saqlang.



Temiryo'l (metropoliten) transporti avariylari va halokatlarida harakatlanish tartibi:

- bilingki, xavfsizlik nuqtayi nazaridan poyezddagi eng yaxshi joylar markaziy vagonlar, favqulodda chiqish oynasi mavjud kupe (yopiq eshikli bo'linma) yoki vagonidan chiqish joyiga yaqinroq pastki polkalar hisoblanadi;
- vagonga joylashib olgandang so'ng, favqulodda chiqish joylari va o't o'chirish vositalari qayerda joylashganini bilib oling;
- poyezd harakatlanayotganda tashqi eshiklarni ochmang, tamburlarga chiqish joylaridagi oyoq qo'ygichlarida turmang va derazadan gavgangizni chiqarmang;
- buyumlaringizni yuqori yukxonalarga mustahkam qilib joylashtiring;
- imkoniyati cheklangan fuqarolar, yosh bolali ayollar va qariyalarga yordam ko'rsating;
- o'zingiz bilan yonuvchan, kimyoviy va portlovchi moddalarni olib yurmang;
- maishiy texnikani poyezd vagonining elektr tarmog'iga ulamang;
- kuygan rezina hidini sezsangiz yoki tutun paydo bo'lsa, darhol yo'lboshchi (provodnik)ga xabar qiling;
- xavf aniq bo'lsa, darhol vagonni tambur eshiklari va favqulodda chiqish joylari orqali tark eting;
- imkonsiz holatlarda qattiq jismlar (diplomat, stol va kiyim javoni kabilar) bilan deraza oynalarini sindiring;
- vagonda yong'in sodir bo'lganda, shamol olovni alangalatmasligi uchun derazalarni yoping va yong'inida qolmagan vagonlarga o'ting.



Aviatransport avariylari va halokatlarda to'g'ri harakat qilish:

Yoshimizdan qat'i nazar, har birimiz parvoz xavfsizligiga tayyorgarlik ko'rishni, halokat paytida xotirjam bo'lishni va ko'ngilsiz oqibatlardan omon qolishni o'rganishimiz muhimdir.

Samolyotning dumi tomonida o'tiring.

- Halokatga uchragan samolyotning dumi omon qolish ehtimoli bo'yicha birinchi qatorlarga qaraganda 40% ga yuqori.
- Tez qochish omon qolish uchun eng yaxshi imkoniyatni beradi.
- Bunday sharoitda, albatta, yosh bolali ayollar, qariyalar va imkoniyati cheklangan fuqarolarni muhofazaga oling.

Oyoq-qo'llaringizni tanangizga yaqin tuting.

- Shunda tanangiz chayqalmaydi va zarbadan omon qolish ehtimolini oshiradi.
- Boshqalarga yordam berishdan oldin kislorod niqobingizni taqing.
- Yordam berishga birinchilardan harakat qilishingiz mumkin bo'lsa-da, agar hushingizni saqlamasangiz, hech kimga yordam bera olmaysiz.
- Har qanday sharoitda imkoniyati cheklangan insonlar, yosh bolali ayollar va qariyalarni nazoratsiz qoldirmang.



Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Qanday turdagi transport avariylarini bilasiz?
- 2 Transport vositalari bilan bog'liq avariyalarda qanday yo'l tutishni bilasizmi? Bunday paytda o'zingizni idora qila olasizmi?
- 3 Transport vositalari ishtirokidagi avariyalarda qanday choralar ko'rilishi va asosiy e'tibor nimaga qaratilishi kerakligini aytib bering.

RADIOAKTIV VA ZAHARLI MODDALARDAN MUHOFAZALANISH

Dars davomida

- ▶ kuchli ta'sir etuvchi radioaktiv va zaharli moddalar;
- ▶ kuchli ta'sir etuvchi radioaktiv va zaharli moddalardan muhofazalanish qoidalari bilan tanishasiz.

O'ylab ko'ring

Radioaktiv va zaharli moddalar haqida bilasizmi? Ulardan qanday muhofazalanish kerak?

1 Kuchli ta'sir etuvchi radioaktiv va zaharli moddalar

Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar (KTEZM)ning fizik-kimyoviy xususiyatiga qarab, kimyoviy xavfli obyektlarda ularni saqlash va tashish holatlarida **to'rtta asosiy turdagi kimyoviy sharoit** bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin.

Birinchi turdagi kimyoviy sharoit bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar.

Bunday vaziyatlar gazsimon (bosim ostidagi), kriogen, qizitib suyultirilgan KTEZMni o'z ichiga olgan maxsus idishlar yoki texnologik asbob-uskunalarining bir zumda bosimsizlanishi (portlashi) oqibatida yuzaga keladi. Bunday holatda shamol bo'ylab tarqaladigan KTEZMning yuqori konsentratsiyasi bo'lgan birlamchi bug'-gaz yoki aerosol bulutlar hosil qiladi.

Ikkinchi turdagi kimyoviy sharoit bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar.

Bunday vaziyatlar saqlanayotgan yoki tashiladigan suyultirilgan zaharli gazlar (ammiak, xlor va b.)ni, qaynash harorati atrof-muhit haroratidan past, ortiqcha qizdirilgan uchuvchan zaharli suyuqliklarning (etilen oksidi, fosgen, azot oksidi, oltingugurt dioksidi, sinil kislotasi va b.)ni halokatli to'kilishi va atmosferaga chiqib ketishi oqibatida yuzaga keladi.

Uchinchi turdagi kimyoviy sharoit bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar.


Bunday vaziyatlar suyultirilgan (izotermik saqlash vaqtida) yoki qaynash harorati atrof-muhit haroratidan past yoki shunga yaqin bo'lgan suyuq KTEZM (fosgen, azot tetroksidi va boshqalar) larning katta qismi taglik yoki ostiga solingan idishga quyilishi, shuningdek, ko'p miqdorda o'g'itlar (masalan, nitrofoska) yoki oltingugurtning yonishi oqibatida yuzaga keladi. Bunday hollarda uzoq masofalarga tarqalishi mumkin bo'lgan zaharli konsentratsiyali KTEZM bug'larining ikkilamchi buluti hosil bo'ladi.

To'rtinchi turdagi kimyoviy vaziyat bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar.

Bunday vaziyatlar kam uchuvchan KTEZM, qaynash harorati atrof-muhit haroratidan yuqori bo'lgan suyuqlik (nosimmetrik dimetilgidrazin, fenol, oltingugurt uglerodi, dioksin, sinil kislotasi tuzlari)ning ko'p miqdori halokatli chiqib ketishi (to'kilishi) oqibatida yuzaga keladi. Bunday hollarda hudud (tuproq, o'simliklar, suv) xavfli konsentratsiya bilan zaharlanadi.

Izlanishda davom eting

Kuchli ta'sir etuvchi radioaktiv va zaharli moddalarning turlariga qarab guruhlariga ajratilgan jadvalni to'ldiring.



2 Kuchli ta'sir etuvchi radioaktiv va zaharli moddalardan muhofazalanish qoidalari

Radiatsiyaviy xavfli obyektlarda avariya sodir bo'lganda aholiga avariya to'g'risida xabar berishning asosiy usuli ommaviy axborot vositalari orqali **"Diqqat, barchaga!"** signalini uzatishdir. Buning uchun elektrosirenalar, sanoat gudoklari va boshqa joylarda o'rnatilgan **signal berish vositalaridan** foydalaniladi.

Signal bo'yicha xabar olganda aholining harakatlari

Imkon qadar tezroq muhofaza vositalari (gazniqoblar, respiratorlar) bilan nafas olish organlarini himoya qilish lozim. Ular bo'lmaganda esa paxta-dokali niqoblar, bog'lamlar, sharflar, ro'molchalar bilan nafas olish organlarini bekitish va yaqindagi bino (imorat)ga yashirinish kerak.

Uy sharoitida ustki kiyimlar va poyabzallarni yechish va ularni plastik (polietilen) xaltalarga joylashtirish, tezda deraza va eshiklar, ventilyatsiya tuynuklarini berkitish, radio, televizor va radioreproduktorlarni yoqish, derazalardan uzoqqa o'tirib, beriladigan ma'lumotlar hamda keyingi harakatlar bo'yicha ko'rsatmalarni kutish lozim. Bino, imoratlarni germetiklash va oziq-ovqat mahsulotlarining ustini yopish lozim.

Aholini radiatsiyadan himoyalash tartibi

Radiatsiyadan himoyalash tartibi deganda odamlarning radiofaol moddalar bilan zararlangan zonalarda o'rnatilgan tartib bo'yicha harakatlanishi, himoya vositalari va usullarining qo'llanishi tushuniladi.

Kimyoviy xavfli obyektlar yaqinida yashovchi aholi ushbu obyektida foydalaniladigan kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalardan muhofazalanishga qulay shaxsiy himoya vositalarini oldindan tayyorlab qo'yishlari lozim.




KTEZMning to'kilishi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan vaqtda o'zini himoya qilish usullari:

- "Diqqat, hammaga!" signali berilganda favqulodda vaziyat bo'yicha ishonchli ma'lumotlar va tavsiyalar olish uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanishi lozim;
- kimyoviy xavfli obyektidagi avariya to'g'risida ma'lumot olgandan so'ng aholi derazalar, eshiklar, shamollatish teshiklarini yopishi, konditsioner, elektr energiyasi va gazni o'chirishi, mavsum bo'yicha kiyinishi, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari va zarur narsalarini olib, binoni tark etishi, qutqaruv xizmatlari va huquqni muhofaza qiluvchi organ vakillari ko'rsatgan yo'nalish bo'yicha xavfsiz hududga o'tishi zarur;
- agar xavfli kimyoviy hid sezilsa, ota-onalar zudlik bilan o'zi va farzandlariga gazga qarshi niqob yoki gaz va tutundan himoya qiluvchi boshqa vositalarni taqishlari lozim;
- aholi nafas olish va terini himoya qilish vositalarini oldindan tayyorlashi lozim, buning uchun ko'zga mahkam yopishadigan ko'zoynak, paxta-dokali bog'lagich va qalin matodan tikilgan kiyim (plash, yoping'ich)lardan foydalansa bo'ladi;
- agar shaxsiy himoya vositalari yo'q bo'lsa va avariya sodir bo'lgan hududni tark etishning iloji bo'lmasa, xonada qolishib, deraza va eshiklarni, dudburon va shamollatish tuyuklarini mahkam yopish lozim;
- shuni esda tutish kerakki, xlor moddasi havodan og'ir bo'lib, pastga yer bo'ylab tarqaladi. Hudud xlor bilan zararlanganda insonlarga binolarning yuqori qavatlariga o'rnamishlari tavsiya etiladi;
- ammiak o'rtacha xavfli moddalar sinfiga kiradi, bo'g'uvchi va neyrotrop ta'sirga ega. Past konsentratsiyalarda u ogohlantiruvchi hidga ega, shuning uchun ko'zlarni va shilliq pardalarni bezovta qiladi. Nafas olish tizimi orqali inson tanasiga ta'sir qilganida, markaziy asab va nafas olish tizimlari, jigar, buyraklar, taloq va oshqozon-ichak trakti zararlanadi.

Kichik guruhlarda ishlash uchun topshiriq

Kuchli ta'sir etuvchi radioaktiv va zaharli moddalardan muhofazalanish qoidalarini yozing.



Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar deganda qanday moddalarni tushunasiz?
- 2 Kimyoviy xavfli obyektlarda qanday favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin?
- 3 Kuchli ta'sir etuvchi radioaktiv va zaharli moddalardan muhofazalanishning qanday yo'llarini bilasiz?



Dars davomida

- ▶ gidrotexnik inshootlar haqida tushuncha;
- ▶ gidrotexnik halokatlar va avariylarning yuzaga kelish sabablari;
- ▶ gidrotexnik inshootlar avariyesi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda aholining to'g'ri harakatlanish tartibi bilan tanishasiz.



O'ylab ko'ring

Gidrotexnik inshootlar deganda nimani tushunasiz?
Ular qanday vazifani bajaradi?

1 Gidrotexnik inshootlar haqida tushuncha

Gidrotexnik inshootlar – to'g'onlar; suv tashlash, suv bo'shatish, suv o'tkazish va suv chiqarish inshootlari; bosimli va bosimsiz tunnellar; nasos stansiyalari; kanallar; gidroelektrostansiya binolari; suv omborlari qirg'oqlari, daryo va kanal o'zanlari hamda tubini toshqin, yemirilishlardan muhofaza qilish uchun mo'ljallangan inshootlar.

Gidrotexnik inshoot yoki uning bir qismi ishdan chiqib, buzilishi hisobiga boshqarib bo'lmaydigan suv oqimi yuzaga kelishi bilan bog'liq vaziyatlar **gidrodinamik halokatlar** hisoblanadi.

Yirik gidrotexnik inshoot (suv ombori to'g'onlari)ning buzilishi, baland tog' ko'llarining urib ketishi hisobiga yuzaga kelgan toshqinlar insonlar o'limiga, hayot faoliyatining izdan chiqishiga, sanoat va qishloq xo'jaligi obyektlari zararlanishiga olib keladi.



1-rasm. Suv ombori to'g'oni

2 Gidrotexnik halokatlar va avariylarning yuzaga kelish sabablari

Gidrotexnik inshootlar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishiga tabiiy ofatlar (zilzila, ko'chki, jala), statik va dinamik kuchlar, metall zichlashishi, yerning yuvilishi, loyihalash va qurilishdagi xatolar, foydalanish davomida qoidalar buzilishi, terroristik harakatlar sabab bo'lishi mumkin.

Suv omborlari, daryo va kanallardagi buzilishlar, baland tog'lardagi ko'llardan suv urib ketishi hisobiga vujudga kelgan, suv bosgan hududlarda odamlar o'limiga, sanoat va qishloq xo'jaligi obyektlari ishining, aholi hayot faoliyatining buzilishiga olib kelgan va shoshilinch ko'chirish tadbirlarini talab qiladigan halokatli suv bosishlari gidrotexnik halokatlar va avariylar hisoblanadi.

Gidrotexnik inshootlarning buzilishi juda katta hududlar, jumladan, shaharlar va aholi yashash joylari, sanoat tarmoqlari va moddiy resurslar suv ostida qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Oqibatda ham ma'naviy, ham moddiy jihatdan juda katta zarar ko'riladi.

Gidrotexnik inshootlar, avtomobil va temiryo'llarning buzilishi elektr va aloqa uzatish simlarining zararlanishi; chorva mollari, qishloq xo'jaligi ekinlari hosili, ekinzorlar va boshqalarning nobud bo'lishi; yoqilg'i, oziq-ovqat mahsulotlari, o'g'it va boshqa resurslarning yaroqsiz holga kelishi; yerlarning hosildorlik qatlami yuvilib ketishi salbiy talafotlarga sabab bo'ladi. Aholini xavfsiz hududga vaqtincha evakuatsiya qilish, suv bosgan hududlarda oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon va boshqa kerakli mahsulotlarni olib kelish xarajatlari qoplanadi.



2-rasm. "Sardoba suv ombori" tog'onida yuz bergan texnogen holat

3

Gidrotexnik inshootlar avariyesi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda aholining to'g'ri harakatlanish tartibi

Suv toshqini yuzaga kelgan vaqtdagi harakatlar:

- gidrotexnik inshootda avariya xavfi yuzaga kelgani (suv toshqini) haqidagi ogohlantirishdan so'ng, mahalliy boshqaruv organlarining avvaldan ishlab chiqqan rejasi bo'yicha (ko'rsatmalarga amal qilgan holda) xavfsiz hududga harakat qilish;
- "Diqqat, barchaga!" signalini olgach, avvaldan tayyorlab qo'yilgan qutqaruv vositasi (havo to'ldirilgan nimcha)ni taqib olish;
- hujjatlarni, qimmatbaho va kerakli buyumlarni, 2–3 kunlik oziq-ovqat va ichimlik suv zaxiralarini o'zi bilan olish;
- xavfsiz hududga ko'chib o'tishda zudlik bilan yashash uchun eng zaruriy narsalarni ham olish;
- to'satdan suv bosish xavfi yuzaga kelganda zudlik bilan yaqin atrofdagi balandlikka, kattaroq daraxtga, mustahkam binoning tepa qavati yoki uy tomiga chiqib olish;
- suvda bo'lgan vaqtda suzib yoki qo'l ostidagi vositalar yordamida xavfsiz hududga yetib olish; suvda bo'lgan vaqtda to'lqin yaqinlashayotgan bo'lsa, to'lqin asosining tubiga sho'ng'ish;
- atrofni suv bosgan taqdirda qutqaruvchilarga uyda odamlar borligini bildirish uchun (kunduzi – derazadan tashqariga yorqin rangdagi matoni hilpiratish orqali, kechasi – fonusni o'chirib yoqish orqali) signal berish;
- oziq-ovqat va ichimliklar hisobini yuritish, ularni tejab ishlatish hamda toshqindan muhofaza qilish.

Gidrotexnik inshootlar haqida tushuncha hamda halokatlar va avariylarning yuzaga kelish sabablari



Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Gidrotexnik inshootlar deganda qanday qurilish binolarini tushunasiz?
- 2 Terroristik harakatlar tufayli ham gidrotexnik halokatlar sodir bo'lishi mumkinmi?
- 3 Gidrotexnik inshootga tutash hududda yashovchi odamlarning qanday majburiyatlari bo'lishi mumkin?



Dars davomida

- ▶ yong'in haqida tushuncha, uning xavfli omillari, sabablari va oqibatlari;
- ▶ kundalik hayotda yong'in xavfsizligini ta'minlash haqida ma'lumotlar olasiz.



O'ylab ko'ring

Kundalik turmush tarzida yong'in xavfsizligining oldini olish yoki ta'minlash uchun qanday qoidalarga rioya qilish kerak?

1 Yong'in haqida tushuncha, uning xavfli omillari, sabablari va oqibatlari

YONG'IN NIMA?

Yong'in nazoratdan chiqqan yonish bo'lib, moddiy va ma'naviy zarar yetkazadi, inson hayoti uchun xavflidir.

Yonish moddalarda tez sodir bo'ladigan fizik-kimyoviy o'zgarish bo'lib, natijada issiqlik, yorug'lik, tutun va gazlar ajralib chiqadi.

Portlash – qisqa vaqt ichida katta miqdordagi energiya bir vaqtda ajralib chiqadigan hodisa.

YONG'IN VA PORTLASHNING SABABLARI

Yonuvchan modda

Oksidlovchi (kislород)

Uchqun yoki alanga

- 1 Gaz, ko'mir, o'tin bilan isitiladigan moslamalardagi nuqsonlar
- 2 Bolalarning yong'in bilan o'ynashi
- 3 Qasddan o't qo'yish

YONG'IN VA PORTLASHNING SABABLARI:

- 4 Yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilmaslik
- 5 Loqaydlik va e'tiborsizlik
- 6 Elektr simlarining nosozligi

IKKILAMCHI KENGAYISH OMILLARI:


1. Bino yoki inshoot devorining qulab tushishi.
2. Yana boshqa portlashlarning sodir bo'lishi.
3. Turli zaharli va kimyoviy moddalarning atrof-muhitga tarqalishi.
4. Yong'in suv bilan o'chirilganda kimyoviy reaksiya natijasida portlash yuz berishi.

2 Kundalik hayotda yong'in xavfsizligini ta'minlash

Yong'in bilan bog'liq nohush hodisalar kelib chiqmasligi uchun, eng avvalo, barcha turdagi isitish pechlari, gaz va elektr jihozlaridan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya etish lozim.

Yong'inning oldini olish uchun uy va ish sharoitida quyidagilarga e'tibor berishning o'zi kifoya, jumladan:

- yosh bolalarni yolg'iz, nazoratsiz qoldirmang, ularning gugurt va olov bilan o'ynashlariga aslo yo'l qo'ymang;
- yong'in va gaz xavfsizligi qoidalariga rioya qiling;
- tez alanga oluvchi moddalar va buyumlarni issiqlik manbai oldida saqlamang;
- tabiiy va propan gaz ballonlaridan foydalanishda avval gugurtni yoqib, so'ng gaz jo'mragini oching;
- bolalarga olovdan ehtiyot bo'lib foydalanishni o'rgatib boring;
- gugurtni bolalar qo'li yetmaydigan joyda saqlang;
- elektr asboblarni nazoratsiz qoldirmang;
- olov yoqishda yonuvchi suyuqlikdan foydalanmang;
- qo'lbola isitish vositalaridan foydalanmang;
- yuvilgan kiyimlarni gaz plitasi ustida quritmang;
- yong'in xavfi mavjud joyda gulxan yoqmang;
- xonadan chiqishdan avval elektr va gaz tarmoqlarini o'chirishni unutmang;
- xonadoningizdagi elektr simlarining ustki himoya qobig'i eskirgan bo'lsa, yangisiga almashtiring;
- xonadon tomi, yerto'lasi, tandir va o'choqlar yaqinida quruq o'tin hamda xashaklarni saqlamang;
- isitish pechining tutun chiqish mo'risini tozalating, nosoz bo'lsa ta'mirlating;
- xonani gaz plitasida isitmang;
- nosoz elektr o'tkazgichlardan, qo'lbola elektr isitish uskunalaridan foydalanmang;
- uyingiz atrofini ozoda saqlang, uy yaqinida quruq o't, barg va axlat uyumlari to'planib qolishiga yo'l qo'ymang;
- tom va yerto'lalarda tez yonuvchi vositalarni saqlamang;
- qutqaruv xizmatining telefon raqamlarini doim yodda tuting ("112", "101"; "1050"; "103"; "104").



Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Yong'in nima va u qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
- 2 Yong'in qanday sabablarga ko'ra kelib chiqadi?



Dars davomida

- ▶ yong'inni to'xtatish uchun birlamchi o't o'chirish vositalari;
- ▶ yong'in sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish tartibi haqida bilib olasiz.




O'ylab ko'ring

Yong'inni o'chirish uchun nimalardan foydalangan bo'lar edingiz?

1 Yong'inni to'xtatish uchun birlamchi o't o'chirish vositalari

Yong'inni o'chirishning birlamchi vositalariga barcha turdagi ko'chma va transportirovka qilinadigan o't o'chirgichlar, to'qima materiallari (qum, suv va boshqalar) bo'lgan qutilar, shuningdek, yong'inga chidamli matolar (asbest, kigiz, namat va b.), bochkalar va suv bilan to'ldirilgan idishlar, yong'inga qarshi mexanizatsiyalashmagan va mexanizatsiyalashgan vositalar (ilgak, lom, belkurak, bolta, elektr simlarini kesish moslamalari, elektr dvigatel boshqaradigan asboblar, ichki yonish dvigateli va b.) kiradi.



2

Yong'in sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish tartibi

Yong'in sodir bo'lganda fuqaroning to'g'ri harakat qilish tartibi:

- yong'in boshlangan taqdirda, yong'in boshlangan yoki uning belgilari sezilgan zahoti bu haqda tezlik bilan 101, 1050, 112 telefon raqamlari orqali yong'in-qutqaruv bo'linmasiga xabar berish (xabar beruvchi voqea sodir bo'lgan manzil, yong'in chiqqan joy va o'zining familiyasini aytishi)ga;
- agar holat maktabda sodir bo'lsa, boshqa sinf o'quvchilariga xabar berish va ularni evakuatsiya qilish choralari ko'rishga;
- imkon qadar birlamchi vositalari bilan yong'inni o'chirish choralari ko'rishga;
- yong'inni o'chirishga jalb etilgan o'qituvchi va o'quvchilardan tashqari barcha o'quvchilarni xavfli hudud tashqarisiga chiqarishga;
- yong'in-qutqaruv bo'linmalari yetib kelgunga qadar (maktab sinflarining o'ziga xosligini hisobga olgan holda) yong'inni o'chirishda maktab rahbariyati umumiy rahbarlikni amalga oshiradi;
- yong'inni o'chirishda ishtirok etayotgan o'qituvchi va o'quvchilar xavfsizlik talablariga rioya qilishlariga;
- yong'in o'chirish bilan bir vaqtda maktab o'quvchilarini evakuatsiya qilish va moddiy boyliklarni himoya qilishni tashkil etishga;
- yong'in-qutqaruv bo'linmalarini kutib olishni va yong'in sodir bo'lgan joyga qisqa yo'l bilan olib borishni tashkil etishga majbur.

Agar olovni qo'lbola o't o'chirish vositalari bilan o'chirish hech qanday natija bermasa, binoni tezlik bilan tark etish lozim.

Guruhlarda ishlash uchun topshiriq

O't o'chirish vositalarini yozing.

*** → *** → *** → ***

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Yong'inni to'xtatish uchun qanday o't o'chirish vositalarini bilasiz?
- 2 Yong'in vaqtida harakatlanish tartibi qanday bo'lishini bilasizmi?

EKOLOGIK TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLAR

32

Dars davomida

- ▶ quruqlik (tuproq, yer osti) holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlardan;
- ▶ atmosfera (havo muhiti)ning tarkibi va xossalari o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlardan;
- ▶ gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlardan xabardor bo'lasiz.

O'ylab ko'ring

Tuproq, yer osti holatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan qanday favqulodda vaziyatlar bo'lishi mumkin?

Atmosfera, gidrosfera so'zlari qanday ma'noni anglatadi?

1 Quruqlik (tuproq, yer osti) holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar

Halokatli ko'chkilar – bu foydali qazilmalarni qazish jarayonida yer ostiga ishlov berish va inson faoliyati natijasida yuzaga keladigan yer sathining o'pirilishi yoki siljishi; sanoat faoliyati tufayli tuproq va yer ostining og'ir metallar, neft mahsulotlari, pestitsidlar hamda boshqa sog'liq uchun xavfli toksik kimyoviy moddalarning yuqori konsentratsiyalarda to'planishi bilan bog'liq ifloslanish holatlari.



1-rasm. Yerosti boyliklar

Tuproqning yuqori qatlamlarida yengil eruvchi tuzlarning to'planishi natijasida tuproq ikkilamchi sho'rlanishga uchrashi mumkin. Bu hol qishloq xo'jaligi ekinlariga zararli ta'sir ko'rsatadi. Ikkilamchi sho'rlanishning asosiy sabablari yerning tartibsiz, me'yordan ortiq sug'orilishi, drenaj tizimining yo'qligi, filtratsiya suvlari bilan suv balansining buzilishi va boshqalardir. Tuproq, shuningdek, atmosferadan tushayotgan zararli moddalar ta'sirida va mineral o'g'itlarning haddan ortiq ishlatilishi tufayli ifloslanadi. Azotli, fosforli va kaliyli o'g'itlarning ko'p ishlatilishi ham salbiy holatlarni keltirib chiqaradi.

2 Atmosfera (havo muhiti)ning tarkibi va xossalari o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar

Atmosfera (havo muhiti)ning tarkibi va xossalari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar: havo muhitining ingrediylar (havoga tarkibi ifloslanishiga sabab bo'layotgan kimyoviy moddalar) bilan ekstremal yuqori ifloslanishi; oltingugurt dioksid, dioksid va azotli oksid, uglerodli oksid, dioksin, qurum, chang va odamlar sog'lig'iga xavf soluvchi konsen-

tratsiyalarda antropogen tusdagi boshqa zararli moddalar to'planishi; katta ko'lamda kislotali zonalar hosil bo'lishi va ko'p miqdorda kislota chiqindilari yog'ilishi; radiatsiyaning yuqori darajasi.

Havo tarkibida ro'y berayotgan o'zgarishlar, uning turli moddalar bilan to'yinishi zavod va fabrikalar, kimyo sanoati korxonalari faoliyati bilan bog'liq. O'rmonlar yonishi, foydali qazilma konlari, neft mahsulotlaridan tarqalayotgan zaharli moddalar havoning ifloslanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.



2-rasm. Tuproq sho'rlanishi

3 Gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar

Gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlarga quyidagilar kiradi:

- yer yuzasi va yerosti suvlarining sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish oqavalari;
- neft mahsulotlari tarkibida odamlarning zaharlanishiga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan moddalar mavjud og'ir metallar, har xil zaharli kimyoviy moddalari bo'lgan chiqindilar va boshqa zararli moddalar bilan ekstremal yuqori darajada ifloslangan muhit;
- binolar, muhandislik kommunikatsiyalari va uy-joylarning yemirilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki olib kelgan sizot suvlar darajasining oshishi;
- suv manbalari va suv olish joylarining zararli moddalar bilan ifloslanishi oqibatida ichimlik suvining keskin yetishmasligi.

Markaziy Osiyo hududlarida oxirgi bir necha o'n yillikda ichimlik suvining tanqisligi, yetishmasligi kuzatilmoqda. Ekologik muammolar tufayli kelib chiqadigan kasalliklarning 80% qismi ifloslangan suv bilan bog'liq. Shu sababli, suvni iste'mol qilishda uning tozaligiga e'tibor qaratish lozim.

Amudaryo va Sirdaryo etagida suvning ifloslanishi 2–3% gacha yetgan. Bunga sabab, daryolarga oqava va zovur suvlarining tushishidir. Ekin maydonlariga solinadigan mineral o'g'itlar, zaharli kimyoviy moddalarning bir qismi oqava suvlar bilan daryolarga tushadi. Organik, mineral o'g'itlardan haddan ortiq ko'p foydalanish ham suvni ifloslantiradi.



3-rasm. Havoning ifloslanishi

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Quruqlik (tuproq, yer osti) holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlarni bilasizmi?
- 2 Yer yuzasiga tog'-kon sanoati ishlari eng ko'p salbiy ta'sir ko'rsatishini bilasizmi?
- 3 Qaysi holatlar gidrosfera holatiga ta'sir ko'rsatadi va ular qanday o'zgarishlarga olib keladi?

Dars davomida

- ▶ terrorizm va uning oqibatlari;
- ▶ terrorizm bilan bog'liq ekstremal va favqulodda vaziyatlarda aholining harakati haqida tushuncha olasiz.

O'ylab ko'ring

Xalqaro terrorizm va mamlakat ichidagi terrorizm qanday ko'rinishlari bilan farq qiladi? Terror tufayli tasodifan garovga tushib qolgan kishi o'zini qanday tutishi kerak?

1 Terrorizm va uning oqibatlari

Ma'lumot uchun

Terrorizm – hozirgi kunning eng xavfli jarayoni bo'lib, insoniyat oldida turgan vazifalarni hal etish yo'lidagi asosiy to'siqlardan biri.

2000-yil 15-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan va unda terrorizmning asosiy tushunchalari berilgan.

Hozirgi kunda terrorizm – jinoyatchilik faoliyatining eng xavfli shakllaridan biri.

yakka tartibdagi

Terrorizmning ikki turi mavjud

uyushgan guruhli

Terrorchilar faoliyatining xususiyatiga ko'ra terrorizmning ko'rinishlari:

- 1 **Ichki:** fuqarolarning o'z hududida o'z davlatiga qarshi harakatlari.
- 2 **Transmilliy:** fuqarolarning boshqa davlatdan turib o'z vatandoshlariga qarshi harakatlari.
- 3 **Xalqaro:** xalqaro va millatlararo terror guruhlarining boshqa davlat yoki davlatlarga qarshi harakatlari.

2

Terrorizm bilan bog'liq ekstremal va favqulodda vaziyatlarda aholining harakati

Eng avvalo, vahimaga berilmaslikka harakat qiling. Sababi, siz terrorchiga tirik holda keraksiz. Zero, sizning hayotingiz terrorchiga muzokara olib borish uchun zarur. Shunday ekan, hayotingizni saqlab qolish imkoniyati bor.

Garovda ushlab turilgan shaxs – terrorchilar davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini, xalqaro tashkilotlar yoki ayrim shaxslarni biror harakatni amalga oshirishga yoki undan tiyilishga majbur qilish maqsadida qo'lga olgan yoki ushlab turgan jismoniy shaxs.

Terrorchilik harakatlari jarayonida odamlarni garovga olish, pul undirish yoki ayirboshlash maqsadida o'g'irlash jinoyatning keng tarqalgan turidan biriga aylandi. Bundan tashqari, tasodifan, masalan, do'kon, bank, xonadon, dalahovliga o'g'ri tushishi yoki odamlarni terrorchilar qo'lga olishi oqibatida ham garovga tushib qolish holatlari kuzatiladi.

Garovga olingan shaxs – jinoyatchilar hukmi ostida bo'lgan shaxs. Bu vaziyatda qolgan shaxs sharoitidan chiqib ketish imkoniyatiga ega. Garovga olingan shaxs garovga olinish vaqtidan boshlab ozod bo'lishga ko'mak berishi mumkin bo'lgan barcha holatlarni o'rganib borishi lozim. Garovga olinish joyidan boshlab, olib ketilayotgan manzilgacha bo'lgan yo'lni eslab qolishga harakat qilishi kerak. Imkon qadar barcha ma'lumotlarni imohora bilan yoki yozma shaklda jinoyatchilar bilan muzokara olib borayotgan shaxsga yetkazishga urinishi zarur.

Shaxs **tutqinlikda bo'lgan vaqtda** ko'rgan va eshitgan barcha narsalar – deraza, eshik, zinapoyalarning joylashgan o'rni, devor qog'ozlari rangi, o'ziga xos hidlar, hatto jinoyatchilarning ovozi, tashqi ko'rinishi va uslublari to'g'risidagi hamma ma'lumotlarni eslab qolishi kerak. Shuningdek, terrorchilarning xatti-harakatlarini kuzatish, suhbatlarini diqqat bilan tinglash, ular orasidagi rollar qay tarzda taqsimlanganini tushunib olishi ham muhim. Qisqasi, ulardan har birining aniq ruhiy suratini xotirada saqlashi lozim.

Topshiriq

- ▷ Terrorizm tufayli ekstremal vaziyatlarda o'zini tutish qoidalari tartibini sharhlab bering.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Terrorizimning qanday turlari bor?
- 2 Terrorizim bilan bog'liq ekstremal va favqulodda vaziyatlarda o'zingizni qanday tutasiz?

V BOB.

TIBBIY BILIM ASOSLARI



ELEKTR TOKIDAN ZARARLANGANDA VA KUYISHDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH

34


Dars davomida

- ▶ elektr tokidan zararlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
- ▶ kuyishda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullarini bilib olasiz.

O'ylab ko'ring

Elektr tokining o'zi nima, u odamga qanday zarar yetkaza olishi mumkin?
Inson elektr tokidan zararlanganda qanday birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullarini afzal deb bilasiz?

1 Elektr tokidan zararlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish



BIRINCHI TIBBIY YORDAM

Jabrlanuvchini elektr manbayidan ajratish: o'z xavfsizligingizni ta'minlang; elektr manbayini o'chiring yoki yog'och tayoq, quruq mato bilan jabrlanuvchini tok urayotgan joydan ajrating.

Jarohatlarni ko'rikdan o'tkazish: kuygan joylarga steril bog'lam qo'ying; o'tkir og'riq yoki suyak sinishi ehtimoli bo'lsa, jabrlanuvchini harakatsiz holatda saqlang.

Jabrlanuvchining holatini tekshirish: nafas olish va yurak urishini tekshiring; agar nafas olmasa yoki yurak urishi to'xtagan bo'lsa, zudlik bilan yurak massaji va sun'iy nafas berishni boshlang.

Tibbiy yordam chaqirish: zudlik bilan Tez tibbiy yordam xizmatini chaqiring (103 yoki 112); hatto yengil elektr toki urishi ham yurak va asab tizimiga zarar yetkazishi mumkin, shuning uchun jabrlanuvchini shifokor ko'rigidan o'tkazish shart.

Jabrlanuvchini tinchlantirish va issiq saqlash: yotqizib, oyoqlarini biroz ko'taring, tana haroratini saqlang.

2 Kuyishda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

Kuyish – yuqori harorat, kimyoviy moddalar, elektr toki yoki nurlanish ta'sirida teri va to'qimalarning shikastlanishi. Kuyish darajasiga qarab terining faqat ustki qavati yoki chuqurroq qatlamlari zarar ko'rishi mumkin.

BELGILAR: TERIDAGI O'ZGARISHLAR VA KUYISHNING CHUQURLIGIGA QARAB KUYISH 4 DARAJAGA BO'LINADI:

1-darajali kuyishda teri qizarishi, yengil shish, achishish va og'riq kuzatiladi, ammo pufakchalar bo'lmaydi; odatda 3–5 kun ichida tuzaladi.

2-darajali kuyishda

teri qizarishi va shishishi; ichida suyuqlik bo'lgan pufakchalar hosil bo'lishi; kuchli og'riq kuzatiladi; 2–3 haftada tuzaladi.

3-darajali kuyishda

teri chuqur shikastlanadi, kulrang yoki qora to'qimalar paydo bo'ladi, nerv uchlari shikastlangani uchun og'riq kam yoki umuman bo'lmasligi mumkin; shifokor aralashuvi talab qilinadi.

4-darajali kuyishda

mushaklar, suyaklar va ichki to'qimalar zarar ko'radi; to'qimalar kuyib, qora yoki kulrang holatga keladi; jabrlanuvchi jiddiy ahvolda bo'ladi va shoshilinch tibbiy yordam talab qilinadi.

Issiqlik manbayini to'xtatish va jabrlanuvchiga ko'mak berish:

- agar kuyish olovdan bo'lsa, uni darhol o'chirish;
- kimyoviy kuyish bo'lsa, darhol zararli modda bilan aloqa to'xtatilishi;
- kuygan joyni sovitish;
- kuygan joyni 10–15 daqiqa davomida salqin, lekin muzdek bo'lmagan suv bilan yuvish;
- teri sirtini himoya qilish uchun steril doka yoki yumshoq, toza mato bilan kuygan joyni yopish (pufakchalarni teshib yuborish mumkin emas);
- kuyish og'ir bo'lsa, Tez tibbiy yordamni chaqirish (103 yoki 112), 3- va 4-darajali kuyishlarda jabrlanuvchini shifokorga yetkazish zarur.

BIRINCHI TIBBIY YORDAM

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Biror kishini elektr toki urgan hodisaga guvoh bo'lganmisiz? Elektr toki urishining qanday belgilarini bilasiz?
- 2 Elektr toki urganda yoki kuyish holatlarida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tartibi qanday?

AVTOHALOKATDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH

35



Dars davomida

- ▶ avtotransport dori qutisining tarkibi va qo'llanilishi;
- ▶ avtohalokatda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tartiblari haqida bilib olasiz.



O'ylab ko'ring

Avtohalokat ro'y berganida haydovchi qanday chora ko'rishi kerak?

1 Avtotransport dori qutisining tarkibi va qo'llanilishi

Avtotransport dori qutisi – transport vositalari (avtomobillar, avtobuslar, yuk mashinalari va b.)da avariya yoki favqulodda holat bo'lganda yo'lovchilar va haydovchini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan dori-darmonlar va tibbiy vositalar to'plami. Bunday dori qutisi transport vositalarini ro'yxatdan o'tkazishda so'raladigan majburiy vositalardan biri.



Avtotransport dori qutisi

Avtotransportdagi dori qutisining tarkibi:

Bintlar:

steril bint

turli yaralarni bog'lash va siqishni ta'minlash uchun yirik va kichik o'lchamlilari mavjud

elastik bint

bo'g'imlarni o'rab turish va shishishni kamaytirish uchun qo'llaniladi

Dezinfeksiyalovchi vositalar:

yodli aralashmalar yoki spirtda namlangan tamponlar yaralarni tozalash va yallig'lanishning oldini olish uchun ishlatiladi

antiseptik vositalar yara yuzasini tozalash uchun qo'llaniladi

Og'riq qoldiruvchi vositalar:

analgetiklar (masalan, paratsetamol, ibuprofen yoki aspirin) og'riqni kamaytirish uchun ishlatiladi

krem yoki mazlar (masalan, diklofenak) mushak va bo'g'im og'riqlari uchun kerak

Yaralarga bog'lam qo'yish uchun vositalar:

steril yodli shariklar yaralar va qirqilishlarda qo'llaniladi

steril plastirlar kichik yaralarni yopish uchun ishlatiladi

Retsept bo'yicha dori-darmonlar:

antigistamin dori-preparatlari (allergik reaksiyalarda qo'llash uchun)

qon bosimini normallashtiruvchi dorilar

haroratni pasaytiruvchi dorilar (masalan, paratsetamol)

Qon ketishi va shok holatlarida:

qon ketishini to'xtatish uchun turniket rezina jgut (ko'p qon ketish holatida) qo'llaniladi

Boshqa tibbiy vositalar va asboblari:

termometr (haroratni o'lchash uchun)

bir marta ishlatiladigan steril qo'lqoplar (gigiyena talablariga rioya qilish uchun)

ko'z uchun yuvish eritmasi (ko'zga tushgan jismlarni yuvish uchun)

shaxsiy himoya vositalari (masalan, niqob, steril qo'lqop)

2 Avtohalokatda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

Avtohalokatda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish – baxtsiz hodisa sodir bo'lishi bilan jarohatlanganlarga tez yordam ko'rsatish jarayoni. Avtohalokatlarda hayotni saqlab qolish uchun vaqt juda muhim, shuning uchun birinchi tibbiy yordamni tez va samarali ko'rsatish juda zarur.

- **Xavfsizlikni ta'minlash.** Avtohalokat yuz bergan joyga yetib borganda, avvalo, xavfsizlikni ta'minlash zarur. Agar xavf mavjud bo'lsa (masalan, portlash yoki olov xavfi), tezda xavfsiz joy tanlang. Avariya signalini yoqing va boshqa haydovchilarga o'z avtomobillarini to'xtatishlari haqida ogohlantiring.
- **Tez tibbiy yordamni chaqirish (103).** Yordam xizmatini zudlik bilan chaqiring (mahalliy raqamni bilishingiz zarur). Qayerda, qanday avtohalokat, qancha odam jarohatlangan va ularning holati qandayligi haqida aniq ma'lumot bering.
- **Jarohatlangan bemorlar ahvolini baholash.** Birinchi yordam ko'rsatilgandan so'ng jarohatlanganlarning holatini baholang: agar bemorda o'tkir jarohatlar bo'lsa (masalan, qon ketishi, tizza yoki boshning qattiq jarohati), unga zarur yordamni ko'rsating, agar bemorning nafas olishida muammo bo'lsa, nafas olishni tiklashiga yordamlashing.
- **Shikastlanganlarning holatini kuzatib borish.** Nafas olishini tekshiring: agar shikastlangan bemor nafas olmayotgan bo'lsa, sun'iy nafas berish va yurak massajini qo'llang.
- **Qon ketishini to'xtatish.** Agar bemordan qon ketayotgan bo'lsa, to'xtatish uchun steril bog'lov materiallari yoki turniketdan foydalaning.
- **Jarohatni aniqlash va jarohatlarni tekshirish.** Agar jarohatlar o'tkir va katta bo'lsa, bemor va uning bo'g'imlarini harakatlantirmaslik kerakligini hisobga oling. Umurtqa pog'onasi zarar ko'rmasligi uchun jarohatlangan bemorni shifoxonaga to'g'ri yetkazish zarur.
- Agar tizzalar yoki belda sezilarli darajada shikastlar bo'lsa, zararlangan sohani harakatlantirmaslikka urining.
- **Jarohatlarni bog'lash.** Qon ketishini to'xtatish uchun turniketdan foydalaning, steril aseptik bog'lam yordamida yara yuzasini yoping.
- Agar suyakning sinishi yoki chiqishi yuzaga kelgan bo'lsa, immobilizatsiya qiling.
- **Ruhiy yordam ko'rsatish.** Avtohalokatda jarohatlanganlar stress holatida bo'lishi mumkin. Ularning holatiga diqqat bilan yondashing, tinchlantiring. Stressdan saqlash uchun yo'lovchilar va haydovchini tinchlantirish hamda ular bilan muloyim muloqot qilish kerak.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Avtotransportdagi dori qutisida qanday vositalar bo'lishi kerak?
- 2 Avtohalokatdan jabr ko'rganlarga birinchi yordam ko'rsatish uchun avtotransport dori qutisidan foydalanish tartibini aytib bering.

BOSH VA TAYANCH-HARAKAT APPARATI SHIKASTLANGANDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH

Dars davomida

- ▶ bosh miya shikastlanishi turlari va shunday vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
- ▶ tayanch-harakat apparati shikastlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
- ▶ bosh, ko'z, quloq, burun sohasi jarohatlanganda bog'lam qo'yish usullarini bilib olasiz.

O'ylab ko'ring

Bosh va tayanch-harakat apparati deganda nimani tushunish kerak?
Ular shikastlanganda qanday choralar ko'rish talab etiladi?

1 Bosh miya shikastlanishi turlari va shunday vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

Bosh miya shikastlanishi tashqi ta'sir (zarba, yiqilish, avtohalokat va boshqalar) natijasida miyaning shikastlanishi bo'lib, uning faoliyatida turli darajadagi buzilishlarga olib keladi. U yopiq va ochiq shakllarga bo'linadi.

Bosh miyaning yopiq shikastlari miya chayqalishi, miyaning lat yeyishi, kalla suyagining asosi va gumbazi sinishlarini o'z ichiga oladi.

Bosh miyaning ochiq shikastlari teshib kirgan va yuza shikastlariga bo'linadi.

Miyaning chayqalishi (silkinishi) – eng yengil shakl, bunda miya to'qimalarida jiddiy zarar bo'lmaydi, lekin vaqtinchalik funksional buzilishlar yuzaga keladi.

Belgilari: qisqa muddatli hushdan ketish (bir necha soniyadan bir necha daqiqagacha), bosh aylanishi va og'riq, ko'ngil aynishi va qusish, zaiflik, quloqlarda shovqin, xotira buzilishi (jarohat paytida nima bo'lganini eslay olmaslik).

Birinchi yordam: yaradorni tinch joyga yotqizish (boshi biroz ko'tarilgan holda bo'lishi kerak); sovuqlik qo'yish (muz yoki ho'l sochiq), qattiq harakat qildirmaslik, hushidan ketgan bo'lsa, yonboshlatib yotqizish, Tez tibbiy yordamni chaqirish, hayotiy muhim ko'rsatkichlarni nazorat qilish.

Miyaga qon quyilishi og'ir shikast bo'lib, qon tomirlarining yorilishi va miya ichiga qon quyilishi oqibatida sodir bo'ladi.

Belgilari: og'ir bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi va qusish, qon bosimining o'zgarishi, xotira yo'qolishi, hushdan ketish, og'ir falajlanish.

Birinchi yordam: yaradorni yotqizish va harakatsiz holatda ushlab turish, nafas olish qiyinlashganida boshini yon tomonga burish, darhol Tez tibbiy yordamni chaqirish.

Bosh miya ezilishi – miyaga kuchli zarba tushishi oqibatida miyaning bir qismi ezilishi bilan bog'liq og'ir shikast.

Belgilari: uzoq davom etuvchi hushdan ketish (soatlab yoki kunlab), nutq buzilishi, tana haroratining ko'tarilishi, nafas va yurak urishining buzilishi, mushaklarning falajlanishi.

Birinchi yordam: yaradorni qimirlatmaslik, nafas va yurak urishini kuzatib borish, darhol tez tibbiy yordam chaqirish.

Bosh suyagi sinishi bosh suyagi yoriqlari yoki sinishlari oqibatida miya shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan holat. U yopiq yoki ochiq bo'lishi mumkin.

Belgilari: quloq yoki burundan qon yoki tiniq suyuqlik oqishi, ko'z atrofida ko'karish ("ko'zoynak simptomi"), ong buzilishi yoki hushdan ketish, quloq pardasi yorilishi oqibatida eshitish pasayishi.

Birinchi yordam: yaradorni qimirlatmaslik, ochiq yara bo'lsa, toza bog'lov bilan yopish, Tez tibbiy yordamni chaqirish.

2 Tayanch-harakat apparati shikastlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

Tayanch-harakat apparati shikastlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish juda muhimdir. Bunday jarohatlar suyaklarning sinishi, bo'g'imlarning chiqishi yoki umurtqa pog'onasining jarohatlanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Sinishlar tasnifi. Suyaklar sinishi mexanizmi, sinish xususiyati, joylashuvi, parchalarning siljishi va yumshoq to'qimalarning shikastlanishiga ko'ra turi ko'rinishga ega.

Tayanch-harakat apparati shikastlanishining belgi va alomatlari:

- og'riq va shish;
- odatdagi harakatlarni bajara olmaslik;
- teri rangining o'zgarishi;
- shakl buzilishi – deformatsiya;
- tashqi qon ketishi;
- shikastlangan paytda qisirlagan tovush eshitilishi.

Tayanch-harakat apparati shikastlanganda birinchi yordam ko'rsatish qoidalari:

- harakatsizlantirish;
- sovuq narsa qo'yish;
- shikastlangan joyni biroz ko'tarib qo'yish;
- chiqib turgan suyakni joyiga solishga harakat qilmaslik;
- qiyshiq a'zoni to'g'rilashga harakat qilmaslik;
- jarohatning past va yuqorisidagi ikki bo'g'inining harakatsizligini ta'minlash.

3


Bosh, ko'z, quloq, burun sohasi jarohatlanganda bog'lam qo'yish usullari

Mahalliy belgilar: qizarish, achishish, lo'qillash, shish, og'riq, qonash, chaynash va yutishda og'riq, ta'm bilish va so'lak ajralishining buzilishi, og'izni ochib-yopish qiyinlashishi, tishlar sinishi va chiqib ketishi, ovqat yeya olmaslik.

Umumiy belgilar: bosh og'rig'i, karaxtlik, puls buzilishi (90–100 martagacha), qon bosimi ko'tarilishi (150/120 bo'lib qolishi), nafas tezlashishi, shok holati.

Tez yordam choralari:

- og'riq qoldiruvchi dori vositalari beriladi;
- nafas yo'llari qon va shilliq moddalardan tozalanadi;
- jarohatlangan joyga aseptik bog'lov qo'yiladi;
- immobilizatsiya qilinadi;
- pastki jag' chiqqanda joyiga tushiriladi;
- singan tishlar olib tashlanib, tampon qo'yiladi;
- burun qonayotgan bo'lsa, tampon qo'yiladi;
- qat'iy nazorat ostida gospitalizatsiya qilinadi.



1-rasm. Pastki jag' singanda sopqonsimon bog'lov qo'yish

Ko'rish organlari jarohatlari

Sabablari:

- avariya, baxtsiz hodisalar (portlash, yiqilish);
- ish jarayonida ehtiyotsizlik qilish;
- xavfsizlik texnikasi qoidalarini buzish (maxsus ko'zoynaklar taqmaslik).

Ko'zning qaysi qismi qanday, nima bilan jarohatlanganiga qarab belgilari har xil bo'ladi.

Mahalliy belgilar: qizarish, shishish, og'riq, achishish, ko'rishning buzilishi yoki yo'qolishi, diplopiya, qonash, ko'z yoshi oqishi, yorug'likdan qo'rqish, qovoq tushishi, ko'z suyagi sinishi.

Umumiy belgilar: ko'ngil aynishi, bosh og'rig'i (og'irligi, aylanishi), puls va nafas tezlashishi, qon bosimi o'zgarishi, tana harorati ko'tarilishi.



2-rasm. Ko'zga bog'lam qo'yish

Quloq, burun, tomoq jarohatlari

Qaysi organ qanday, nima bilan qancha jarohatlanganiga qarab belgilari har xil bo'ladi:

- burunda: qon ketishi, burun bitishi, hid bilishning buzilishi, ovoz o'zgarishi, shakli o'zgarishi, og'riq;
- halqumda: qon ketishi, ovoz o'zgarishi, tomoq achishi, yo'tal, qayt qilish, og'riq, nafas tezlashishi;
- quloqda: og'riq, qon ketishi, qon quyilishi, eshitish pasayishi yoki yo'qolishi, quloq shang'illashi va g'uvullashi, bosh og'rishi.



3-rasm. Quloq, burun, tomoq, jarohatlariga bo'g'lam qo'yish

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Bosh miya shikastlanishi turlarini aytib bering.
- 2 Tayanch-harakat apparati shikastlanganda qay tartibda birinchi tibbiy yordam ko'rsatiladi?
- 3 Bosh, ko'z, quloq, burun sohasi jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tartibini izohlab bering.

PAYLAR CHO'ZILISHI VA BO'G'IMLAR CHIQISHIDA BIRINCHI YORDAM KO'RSATISH



Dars davomida

- ▶ paylar cho'zilishi, bo'g'imlar chiqishi haqida tushuncha;
- ▶ paylar cho'zilishi, bo'g'imlar chiqishida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
- ▶ qo'l va oyoqlarga bog'lam qo'yish usullari bilan bog'liq ma'lumotlar olasiz.



O'ylab ko'ring

Pay cho'zilishi, bo'g'imlar chiqishi ro'y bersa, sizningcha, dastlab qaysi amallarni qo'llash maqsadga muvofiq?

1

Paylar cho'zilishi, bo'g'imlar chiqishi haqida tushuncha

Paylar cho'zilishi va bo'g'imlar chiqishi (dislokatsiya) jarohatlarida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish muhim, chunki to'g'ri yordam ko'rsatish jarohat og'irlashib ketishining yoki uzoq muddatli asoratlar paydo bo'lishining oldini olishga yordam beradi.

Paylar cho'zilishi mushak yoki payning shikastlanishi bilan bog'liq. Buning sababi mushakning haddan tashqari cho'zilishi yoki to'satdan kuchli qisqarishidir.

Chiqish – suyaklarni birlashtiruvchi bo'g'imning joyidan siljishi; u bo'g'im faoliyatining buzilishiga olib keladi.

CHIQUISH BELGILARI:


kuchli og'riq bo'ladi;

bo'g'im sohasining deformatsiyasi kuzatiladi, bunda chiqqan bo'g'im oxiri yumshoq to'qimani turtib (bo'rtib) turadi va o'z joyidan boshqa joyda paypaslanadi, bo'g'im sohasi esa cho'kkan bo'ladi;

qo'l yoki oyoq chiqqanda, u odatdagidek turmaydi, ko'rinishi o'zgarib qoladi;

bo'g'imda harakat kamayadi;

qo'l-oyoq uzunligi o'zgaradi, ko'pincha kaltalashadi, ba'zan uzayadi.



1-rasm. Chiqishlar

2 Paylar cho'zilishi, bo'g'imlar chiqishida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

Pay cho'zilishlari va bo'g'imlar chiqishida birinchi tibbiy yordam:

- bemorni tinchlantirish, jarohatlangan joyni qo'zg'atmaslik va dam olishga imkon berish;
- jarohatlangan joyga 15–20 daqiqa davomida **muzli xalta qo'yish** (3-4 soat davomida takrorlash mumkin va bu shish hamda og'riqni kamaytiradi);
- agar mumkin bo'lsa, jarohatlangan qo'l yoki oyoqni **yuqoriga ko'tarish** (bu qon aylanishini yaxshilash va shishni kamaytirishga yordam beradi);
- agar kerak bo'lsa, elastik **bandaj** yordamida jarohatlangan joyni bog'lash (juda siqmagan holda).


Bo'g'imlar chiqishini davolash:

- chiqishni bartaraf qilish, ya'ni bo'g'imda normal anatomik moslikni tiklash;
- og'riqni yo'qotish uchun chiqqan bo'g'imni joyiga solish;
- qo'l yoki oyoqlarni qisqa muddatga fiksatsiya qilish (gipsli shina, yumshoq bog'lam va boshqalar);
- funksional terapiya – massaj, davolovchi mashqlar, fizioterapevtik muolajalar.

3 Qo'l va oyoqlarga bog'lam qo'yish usullari


Bog'lam kaft ustida mustahkam doira o'ramlar qilishdan boshlanadi. So'ngra bint qo'l panjasining orqasi osha barmoq uchiga qiyshiq holda yo'naltiriladi va shu yerdan (pastdan) yuqoriga (barmoq asosigacha) spiralsimon bog'lam qilinadi, keyin qo'l panjasining orqasi osha kaft ustiga keltirilib, bu yerda mustahkamlovchi sirkulyar o'ramlar qilinadi.


Boshbarmoqni bog'lash boshhoqsimon tipda bajariladi, bitta barmoqni qaytuvchi, spiral bog'lamlar bilan bajarish mumkin.



2-rasm. Boshbarmoqni bog'lash


Qo'lqopsimon bog'lam. Bitta barmoqni bintlash usulidan foydalanib, panjaning hamma barmoqlarini birin-ketin qo'lqop shaklida bintlab chiqish mumkin. Chap qo'lni bintlashni qulaylashtirish maqsadida bog'lamni jimjiloqdan, o'ng qo'lni bintlashda bosh barmoqdan boshlash kerak. Kaftga sakkizsimon bog'lam qo'yiladi.





3-rasm. Qo'lqopsimon bog'lam, kaftdagi sakkizsimon bog'lam

Sonning yuqori qismini bog'lash uchun yuqoriga ko'tariluvchi boshhoqsimon bog'lamdan foydalaniladi. U chanoq-son bo'g'imini qotirishda qo'llaniladigan yoki bir tomonlama chov sohasiga qo'yiladigan bog'lamni eslatadi.



4-rasm. Sonning yuqori qismini bog'lash

Oyoq panjalarining bittasini bog'lash uchun qaytuvchi bog'lam qo'llaniladi va u sirkulyar bint turlari bilan qotiriladi. Bint bog'lami tushib ketmasligi uchun uni boldir-panja bo'g'imi atrofidan aylantirib o'tkazsa ham bo'ladi. Shuningdek, qaytuvchi, boshhoqsimon, spiral va ko-sinkali (uchburchak) bog'lamdan foydalanish mumkin.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Pay o'zi nima va u qanday hollarda cho'zilib jarohatlanadi?
- 2 Bo'g'imlar chiqishida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tartibini aytib bering.
- 3 Qo'l va oyoqlarga bog'lam qo'yish usullarini ko'rsatib bering.

BO'YIN, BEL, TOS VA CHANOQ SUYAGI SOHALARI SHIKASTLANGANDA BIRINCHI YORDAM KO'RSATISH

Dars davomida


- ▶ umurtqa pog'onasining bo'yin, bel, tos va chanoq suyagi sohalari shikastlanganda birinchi yordam ko'rsatish;
- ▶ shikastlanishda harakatsizlantirish va transportirovka qilish tartibini bilib olasiz.

O'ylab ko'ring

Baland joydan yiqilgan yoki og'ir avtohalokatga uchragan odamni ko'rsangiz, uning bo'yin, bel yoki chanoq sohasida og'riq borligini sezsangiz, qanday yordam ko'rsata olasiz? Ko'mak berishda noto'g'ri harakat qilish bemorning sog'lig'iga qanday xavf tug'dirishi mumkin?

1 Umurtqa pog'onasining bo'yin, bel, tos va chanoq suyagi sohalari shikastlanganda birinchi yordam ko'rsatish


Bunday jarohatlar jiddiy neyrologik va fiziologik oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun shikastlangan kishini harakatsizlantirish va to'g'ri transportirovka qilish jarohat yomonlashishining oldini olish va bemorning ahvolini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.



1-rasm. Bo'yin umurtqasining shikastlanishi

Bo'yin umurtqasining shikastlanishida birinchi yordam ko'rsatish tartibi:

- **Harakatni cheklash.** Bo'yin umurtqasining shikastlanishida, birinchi navbatda, bo'yinni harakatsizlantirish kerak. Buning uchun yaradorning bo'yniga maxsus vositalar (ortopedik shina yoki yostiq) qo'yish mumkin.
- **Yotqizish.** Bemorni tekis va qattiq yuzaga yotqizish zarur. Uning bo'ynini yuqoriga ko'tarish yoki egishdan saqlanish kerak.
- **Tez tibbiy yordamni chaqirish.** Bemorni tezda shifoxonaga yetkazish uchun tez tibbiy yordamni chaqirish zarur.



2-rasm. Bo'yin umurtqasining shikastlanishi




3-rasm. Bel umurtqasining shikastlanishi

Tos va chanoq suyagi shikastlanishida birinchi yordam ko'rsatish tartibi:

- **Harakatni cheklash.** Tos va chanoq suyagi shikastlanishida ham bemorni harakatsizlantirish zarur. Chanoq sohasi shikastlanganda bemor urinib qolmasligi uchun maxsus yostiqlar yoki shinalar yordam beradi.
- **Yotqizish.** Bemorni qulay va barqaror holatda yotqizish kerak. Agar chanoq sohasida shikastlanish bo'lsa, u ortiqcha siqishdan saqlanishi zarur.
- **Tez tibbiy yordamni chaqirish.** Shikastlangan bemorni tezda shifoxonaga yetkazish uchun shifokorlar chaqirilishi kerak.

Bel umurtqasining shikastlanishida birinchi yordam ko'rsatish tartibi:

- **Harakatni cheklash.** Bel umurtqasining shikastlanishida belni harakatsizlantirish uchun maxsus yostiqlardan foydalanish kerak.
- **Yotqizish.** Bemorni tekis yotqizish, ortiqcha harakatlardan saqlash zarur. Shikastlangan joyga qo'l tegmasligi va bevosita bosim o'tkazilmasligi kerak.
- **Tez tibbiy yordamni chaqirish.** Tez tibbiy yordamni chaqirib, bemorni shifoxonaga yetkazish kerak.



4-rasm. Tos va chanoq umurtqasining shikastlanishi

2 Shikastlanishda harakatsizlantirish va transportirovka qilish tartibi

Harakatsizlantirishning ahamiyati. Umurtqa pog'onasining har qanday shikastlanishida eng asosiy narsa – bemorni harakatlardan himoya qilish. Bu umurtqa pog'onasi yanada qattiqroq shikastlanishining oldini oladi va neyrologik zararlarni kamaytiradi.

Transportirovka qilish (tashish, ko'chirish) tartibi:

- agar bemorda umurtqa pog'onasi yoki bo'yin, bel, tos, chanoq suyaklarida shikastlanish bo'lsa, uni maksimal darajada harakatsiz holda transportirovka qilish zarur;
- bemorni maxsus shinalar, taxta yoki bosh va bo'yinni qo'llab-quvvatlovchi vositalar yordamida transportirovka qilinadi;
- agar transportirovka qilish zarur bo'lsa, bemorni qattiq, tekis yuzaga yotqizib, og'riqni kamaytirish va harakatni cheklash kerak.

Shikastlangan bemorni shifoxonaga yetkazish uchun maxsus transport vositasi (tez tibbiy yordam mashinasi) va shinalar kerak. Noto'g'ri harakatlarning oldini olish va zudlik bilan yordam ko'rsatish uchun har doim Tez tibbiy yordamni chaqirish zarur.



5-rasm. Shikastlanishda harakatsizlantirish va transportirovka qilish

Topshiriq

- ▷ Bo'yin, bel, tos va chanoq suyagi sohalari shikastlanganda birinchi yordam ko'rsatish tartiblarini sinfdoshingiz bilan birga mashq qiling.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Bo'yin, bel, tos va chanoq suyagi sohalari shikastlanganda birinchi yordam ko'rsatishda nimalarga e'tibor qaratish kerak?
- 2 Shikastlangan bemorni transportirovka qilish tartibini aytib bering.

KO'KRAK, QORIN SOHASI JAROHATLANGANDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH

39

Dars davomida

- ▶ ko'krak sohasi jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
- ▶ qorin sohasi jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
- ▶ ko'krak va qorin sohasiga bog'lam qo'yish yo'llarini o'rganasiz.

O'ylab ko'ring

Ko'krak, qorin sohasidan jarohat olgan odamga qanday usulda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish kerak?

1 Ko'krak jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish


Ko'krak jarohat(lar)i ko'krak sohasidagi shikastlanishlar bo'lib, tashqi ta'sirlar (masalan, urilish, pichoq yoki o'q kirishi) yoki ichki sabablar (masalan, suyak kasalliklari yoki o'pkadagi muammolar) natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Ko'krak jarohatlari turlari:

1. **Yopiq jarohatlar:** qovurg'alarining sinishi, o'pkaning jarohatlanishi, o'pkaga qon yig'ilishi (gemotoraks), o'pkaga havo yig'ilishi (pnevmtoraks).

2. **Ochiq jarohatlar:** pichoq yarasi, o'q yarasi, shisha yoki metall zarbasidan kelib chiqqan jarohatlar.

Belgilari: ko'krakda og'riq, nafas olishining qiyinlashishi, tez nafas olish, lab va tirnoqlarda ko'karish (sianoz), shish yoki gematoma.



1-rasm. Ko'krak jarohati

Ko'krak jarohatlarida birinchi tibbiy yordam juda muhim, chunki ko'krak qafasida yurak, o'pka kabi hayotiy a'zolar joylashgan. Quyida ko'krak jarohatlarida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha asosiy tavsiyalar keltirilgan:

- **Holatni baholang:** jarohat qanchalik jiddiyligini aniqlashga harakat qiling. Tez tibbiy yordam (103 yoki 112)ni chaqiring. Bemor es-hushidaligini tekshiring.
- **Bemorni tinchlantiring va harakatini cheklang:** bemorni harakatlantirmay joylashtiring. Harakat jarohatni og'irlashtirishi mumkin. Bemor tik yoki yarim yotgan holda bo'lishi maqsadga muvofiq (og'riq kamroq bo'ladigan holatda).
- **Ko'krakning ochiq (teshilgan) jarohatida** teshilgan jarohat bo'lsa, havo o'pkaga kirmasligi uchun steril qoplama yoki toza doka yordamida yarani yoping.
- **Xavfli belgilari:** nafas qisishi, ko'karish, og'riq.
- **Ko'krakning yopiq jarohatida** sinish yoki kuchli zarba bo'lgan bo'lsa, o'pka, yurak, qon tomirlarga zarar yetishi mumkin. Bemorni tinch holda ushlab turing, og'riqni kamaytirishga harakat qiling. Sovuq kompress qo'yish mumkin (og'riq va shishni kamaytirish uchun).
- **Nafas olish qiyinlashganda** bemorning boshini biroz ko'taring (yoki yarim o'tirgan holatga keltiring). Nafas olishi yoki yurak urishini tekshiring, zarur bo'lsa, yurak-o'pka reanimatsiyasini boshlang.
- **Qon ketishi bo'lsa,** qonni to'xtatish uchun jarohat joyini steril bint yoki mato bilan bog'lang. Qon to'xtamasa, qon to'xtatishning boshqa usullaridan foydalaning.

2

Qorin sohasi jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

Qorin jarohatlari – qorin bo'shlig'ida joylashgan hayotiy muhim a'zolar (jigar, buyrak, o'pka, ichak, me'da, taloq va h.k.) shikastlanishiga olib keladigan holatlar. Bu jarohatlar ochiq (teshilgan) va yopiq (zarbadan) bo'lishi mumkin. Ichki organlarning zararlanishi qorin devorining elastikligi, muskulning tonusi, yog' qavatining qalinligiga ham bog'liq. Ichki a'zolarining (parenximatoz) yorilishi va ichki qon ketishi ko'proq patologik jarayonlar natijasida kuzatiladi.

Ichki a'zolar (parenximatoz)ning shikastlanishi jigar, taloq, buyraklardan qon ketishi bilan xavflidir. Birinchi daqiqalarda kuchli og'riq kuzatiladi, ichki qon ketishi oqibatida o'tkir kamqonlik (anemiya), hushdan ketish holatlari rivojlanadi. Bemorning yuzi oqarib, yurak urishi tezlashadi va kuchsizlanadi, boshi aylanadi, qusadi, arterial bosimi tobora pasayib boradi. Qorin tekshirilganda uning pastki va yon qismlarida to'mtoq, past tovush eshitiladi.

Qorin jarohatlarining turlari:

Qorinning yopiq jarohatlarida jarohat belgisi tashqi tomondan ko'rinmasligi mumkin.

Sabablari: avtomobil halokatlari, balandlikdan yiqilish, kuchli zarbalar (sport, janjal orqali), qon ketishi, ichki a'zolar shikastlanishi (jigar, taloq yorilishi).

Qorinning ochiq (teshilgan) jarohatlarida teri va qorin devori shikastlanadi, ichki a'zolar tashqariga chiqib qolishi mumkin.

Sabablari: pichoq yoki o'q (qo'ldagi qurollar)dan jarohatlanish, snaryad yoki temirdan shikastlanish.

Belgilari: qorinda kuchli og'riq, qusish, holsizlik, bosh aylanishi, shish, ko'karish yoki teshilgan jarohat, qon ketishi (jarohatlangan sohadan), tananing sovishi va terlashi, shok holati (hayotiy muhim ko'rsatkichlarning o'zgarishi).

Qorin jarohatlarida birinchi tibbiy yordam. Qorin sohasi jarohatlar inson hayoti uchun jiddiy xavf tug'diradigan holatlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun birinchi tibbiy yordamni tez va to'g'ri ko'rsatish juda muhim.

Birinchi tibbiy yordam harakatlari


- **Holatni baholang:** qorin sohasida og'riq, ko'karish, teshilgan joy, ichakning tashqariga chiqishi, qusish, shok belgilari bor yoki yo'qligini tekshiring.
- **Tez tibbiy yordamni chaqiring (103).** Qorin jarohati Tez tibbiy yordam talab qiladi. Bemorni qimirlatmang, shifokor yetib kelishini kuting.
- **Bemorni qulay yotqizing va tinchlantiring.** Qorindagi bosimni kamaytirish uchun uni chap tomonga yonboshlatib yotqizish mumkin. Oyoqlarini biroz bukib, tinch holatda saqlang. Suyuqlik ichishiga ruxsat bermang!
- **Agar ochiq (teshilgan) jarohat bo'lsa, qonni to'xtatishga harakat qiling:** steril, ya'ni toza bint yordamida bog'lam qo'ying.
- **Sovuq kompress (yopiq jarohatda) qo'ying:** agar jarohat teshilmagan, lekin shish va og'riq bo'lsa, muzli qoplamani matoga o'rab, qo'yish mumkin. Sovuq shishni kamaytirib, og'riqni yengillashtiradi.

3 Ko'krak va qorin sohasiga bog'lam qo'yish

Qon to'xtatish, jarohatga infeksiya tushishining oldini olish va shikastlangan joyni himoya qilish uchun ko'krak va qorin sohasidagi shikastlarda bog'lam qo'yiladi.

Ko'krak sohasiga bog'lam qo'yish

- **Spiralsimon bog'lam.** Bint bir necha marta ko'krak atrofidan aylantiriladi. Har bir yangi qatlam oldingisining yarmini yopib o'raladi. Bog'lam yaxshilab mahkamlanadi.
- **Aylana-kesishma bog'lam.** Bint qorin sohasining old tomonidan boshlab, bel orasiga olib o'raladi. So'ng diagonal tarzda yelkadan o'tkazilib, qarama-qarshi qo'ltiq ostidan pastga tushiriladi. Har bir aylantirishda bint avvalgi qatlamlar ustidan X shaklida o'tkaziladi.
- **Sakkizsimon bog'lam.** Ayniqsa, ko'krak qafasi suyaklari singanda, ikki yelkani bog'lashda qo'llaniladi. Bint yelkalar, qo'l va bo'yiga sakkiz shaklida aylantiriladi.



2-rasm. Ko'krak va qorin sohasiga bog'lam qo'yish

Qorin sohasiga bog'lam qo'yish

- **Spiralsimon bog'lam.** Qorin atrofidan bint aylantiriladi. Har bir qatlam oldingi bintning yarmini yopib ketadi. Bu usul yuzaki yaralar, yengil shikastlar uchun mos.
- **Tortuvchi bog'lam.** Agar ichki qon ketishi yoki og'ir jarohat bo'lsa, toza bint bilan bog'lam qo'yiladi. O'ram qorin sohasini to'liq qoplaydi va joyidan siljmaydi.
- **Durrachali bog'lam.** Avariyalarda, janglarda qo'ldagi uchburchak mato bilan qorinni tez va oson bog'lash mumkin.

Bog'lam qo'yishda nimalarga e'tibor berish kerak?

- Jarohatni avval antiseptik vositalar bilan tozalash kerak.
- Steril bint va bog'lov materiallaridan foydalanish kerak.
- Juda siqib qo'ymaslik (qon aylanishi buzilmasligi uchun) muhim.
- Bint siljib ketmasligiga e'tibor berish zarur.

Topshiriq

- Ko'krak va qorin sohasi jarohatlariga (bittasini tanlang) bog'lam qo'yishni mashq qiling.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Ko'krak va qorin sohasi jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tartibini aytib bering.
- 2 Bog'lam qo'yishda nimalarga e'tibor berish kerak?

YUQUMLI KASALLIKLAR VA ULARNING KELIB CHIQISH OMILLARI

40

Dars davomida

- ▶ yuqumli kasalliklarning asosiy turlari;
- ▶ yuqumli kasalliklarning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillar;
- ▶ yuqumli kasalliklarning oldini olish choralari haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

O'ylab ko'ring

Yuqumli kasalliklarning oldini olish yoki ulardan himoyalanish uchun qanday choralarni bilasiz?

1 Yuqumli kasalliklarning asosiy turlari

Yuqumli kasalliklar (infekcion kasalliklar) – mikroorganizmlar (bakteriyalar, viruslar, zamburug'lar, parazitlar) ta'sirida yuzaga keladigan, odamdan odamga yoki atrof-muhit orqali yuqishi mumkin bo'lgan kasalliklar. Ushbu kasalliklar jamoat salomatligiga katta xavf tug'diradi.

Yuqumli kasalliklarning tarqalishini tahlil qilish, ularning oldini olish choralari va sababchi omillarni aniqlash epidemiologiyaning asosiy vazifalaridandir.

**Yuqumli
kasalliklarning
toifalari:**

- 1 virusli infeksiyalar
- 2 bakterial infeksiyalar
- 3 parazit infeksiyalar
- 4 zamburug'li infeksiyalar

2 Yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi omillar

Yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi va tarqalishiga ta'sir qiladigan omillarni ko'rib chiqamiz.

Infeksiya manbai:

- bemor odamlar va tashuvchilar;
- hayvonlar (zoonoz infeksiyalar);
- atrof-muhit (suv, tuproq, oziq-ovqat).

Yuqish yo'llari:

- havo-tomchi yo'li – gripp, COVID-19, sil, qizamiq;
- aloqa (tegish) – teri va shilliq qavat kasalliklari shu yo'l bilan tarqaladi;
- fekal-oral yo'l, ya'ni ifloslangan suv va oziq-ovqat mahsulotlari orqali – gijja kasalliklari, vabo, gepatit A;
- qon orqali – OITS, gepatit B va C;
- vektorlar (hasharotlar) orqali – bezgak (malyariya), leishmanioz, borellioz.

Ijtimoiy omillar:


- aholining gigiyenaga rioya qilmasligi;
- ichimlik suvining ifloslanishi;
- qashshoqlik va yetarli tibbiy yordamning mavjud emasligi;
- oziq-ovqat xavfsizligi.

Individual omillar:

- immunitetning pasayishi;
- salbiy odatlar (chekish, spirtli ichimlik iste'moli);
- stress va yetarli ovqatlanmaslik.

Atrof-muhit omillari:

- iqlim o'zgarishi;
- havoning ifloslanishi;
- suv va tuproqning mikroorganizmlar bilan zararlanishi.



3 Yuqumli kasalliklarning oldini olish choralari

Epidemiologik nazorat va profilaktika:

- bemorlarni erta aniqlash va izolyatsiya qilish;
- yuqumli kasalliklar bo'yicha muntazam monitoring o'tkazish;
- dezinfeksiya va sanitariya choralarini kuchaytirish.




Jamoat salomatligi bo'yicha tadbirlar:

- toza ichimlik suvi bilan ta'minlash;
- oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash;
- sanitariya va gigiyena sharoitlarini yaxshilash.



Shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish:

- qo'llarni tez-tez yuvish;
- ichimlik suvi va oziq-ovqatni gigiyenik talablarga muvofiq iste'mol qilish;
- himoya vositalari (niqob, antiseptiklar)dan foydalanish.



Emlash (vaksinatsiya):

- qizamiq, poliomyelit, gepatit, sil, COVID-19 kabi kasalliklardan himoyalash uchun emlash muhim ahamiyatga ega.

Topshiriq

- ▷ Yuqumli kasalliklarning oldini olish choralari haqida sinfdoshlaringiz bilan fikr almashing.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Yuqumli kasalliklar qanday toifalarga bo'linadi?
- 2 Yuqumli kasalliklarning paydo bo'lishi va tarqalishiga qanday omillar sabab bo'lishini aytib bering.

IS GAZI, OVQAT VA TEXNIK SUYUQLIKLARDAN ZAHARLANGANDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH

Dars davomida

- ▶ zaharlanishlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni;
- ▶ ovqatdan zaharlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni;
- ▶ texnik suyuqliklardan zaharlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni o'rganasiz.

O'ylab ko'ring

Qish faslida is gazidan, issiq kunlarda esa taom yoki suyuqliklardan zaharlangan odamlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish yo'llarini bilasizmi?

Zaharlanishlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

Zaharlanish o'tkir kasallik kabi boshlanib, organizmga kimyoviy moddaning ta'siri natijasida yuzaga keladi. Zaharlanishning maishiy (alkogolli, tasodifiy, qasddan), ishlab chiqarishdagi, bolalardagi, tibbiy, biologik, ovqatdan zaharlanish kabi turlari bir-biridan farq qiladi.

Organizmga 4 usulda zahar tushadi:

1. Nafas yo'llari orqali
2. Teri orqali
3. Ichak orqali
4. Parenteral (tibbiy muolajalar vaqtida) sababga ko'ra

Is gazidan zaharlanish inson organizmiga uglerod oksidi (CO) kirishi natijasida yuzaga keladigan o'tkir va xavfli holatdir. Is gazi rangsiz, hidsiz va ta'msiz bo'lib, chala yonish jarayonida hosil bo'ladi. Ushbu gaz nafas yo'llari orqali organizmga kirib, gemoglobin bilan bog'lanib, qonning kislorod tashish qobiliyatini kamaytiradi, bu esa gipoksiya (kislorod yetishmovchiligi)ga olib keladi.

IS GAZIDAN ZAHARLANISH ALOMATLARI

YENGIL HOLATDA:

bosh aylanishi;

bosh og'rig'i;

ko'ngil aynishi;

uyquchanlik;

holsizlik.

O'RTACHA HOLATDA:

yurak urishining
tezlashishi;

quloqda shovqin bo'lishi;

ko'z oldi qorong'ilashishi;

hushdan ketish.

OG'IR HOLATDA:

nutq buzilishi;

mushaklar falajligi;

koma holati;

o'lim (uzoq muddat
ta'sir etsa).

Is gazidan zaharlanishda birinchi yordam:

1. Jabrlanuvchini tezda xavfli hududdan olib chiqing. U is gazidan toza havoga chiqishi kerak. Eshik va derazalarni oching, gaz manbayini (gaz plitasi, pech) o'chiring.
2. Nafas olishini tekshiring. Jabrlanuvchi nafas olayotgan bo'lsa, chalqancha yotqizib, boshi biroz yuqoriroq bo'lishi uchun qulaylik yarating. Agar hushsiz bo'lib, nafas olayotgan bo'lsa, uni yonboshlating.
3. Jabrlanuvchi nafas olmayotgan bo'lsa, darhol sun'iy nafas va yurak massajini boshlang (har 30 massajdan keyin 2 marta sun'iy nafas bering).
4. Bemor o'zini yaxshi his qilsa ham, Tez tibbiy yordamni chaqiring.

Is gazining ta'siri kechikkan simptomlar bilan ham sezilishi mumkin (bosh og'rig'i, holsizlik, ko'ngil aynishi).

Oldini olish choralari

1. Gaz uskunalarini muntazam tekshirish va tozalash.
2. Uyda yaxshi ventilyatsiya (shamollatish) tizimini ta'minlash.
3. Gazli pechlarni nazoratsiz qoldirmaslik.
4. Gazni sezuvchi detektorlar o'rnatish.

2 Ovqatdan zaharlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

Ovqatdan zaharlanish (ovqat toksikoinfeksiyasi) juda keng tarqalgan holat bo'lib, sifatsiz yoki yaroqsiz ovqatlar, bakteriyalar, viruslar, zamburug' yoki kimyoviy moddalar bilan ifloslangan mahsulotlar iste'mol qilinganda yuzaga keladi.

Ovqatdan zaharlanish belgilari. Zaharlanishdan keyingi 2–12 soat ichida quyidagi alomatlar paydo bo'ladi:

- ko'ngil aynishi, qayt qilish;
- ich ketishi (diareya);
- qorin og'rig'i, qorin dam bo'lishi;
- isitma, tana haroratining ko'tarilishi;
- holsizlik, bosh og'rig'i;
- og'iz qurishi, chanqash (suyuqlik yo'qotish alomatlari).

Ovqatdan zaharlanganda birinchi yordam ko'rsatish

1. Zaharlangan ovqatni iste'mol qilishni to'xtating. Sifatsiz ovqat iste'mol qilmayotgan bo'lsa, darhol to'xtating. Boshqalarni ham undan ogoh qiling.

2. Qayt qilishga yordam bering (hushida bo'lgan odamlarda). Agar bemorning ko'ngli ayniyotgan, ammo hushida bo'lsa, qayt qilishiga imkon bering. Bu zararli moddalarni chiqarishga yordam beradi.

3. Ko'proq suyuqlik ichiring. Suv, regidron kabi suyuqliklar suvsizlanishning oldini oladi.

4. Dori vositalarini (faqat shifokor tavsiyasi bilan!) bering. Dorilar ichakdagi toksinlarni chiqarishga yordam beradi. Ammo antibiotiklarni o'zboshimchalik bilan ichish tavsiya etilmaydi.

5. Quyidagi holatlarda darhol shifokor yoki Tez tibbiy yordamni chaqiring:

- bolalarda yoki keksalarda og'ir simptomlar bo'lsa;
- isitma 38,5°C dan yuqori bo'lsa;
- qonli ich ketishi kuzatilsa;
- qusish, ich ketishi 6–8 soatdan ko'proq davom etsa;
- es-hushini yo'qotish yoki suvsizlanish belgilari (terining qurishi, ko'z chuqurlashishi) kuzatilsa.

3 Texnik suyuqliklardan zaharlanishlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

Texnik suyuqliklar (masalan, akkumulyator suyuqliklari, antifriz, yoqilg'i va boshqa kimyoviy moddalar) bilan zaharlanish oqibatida organizmda jiddiy o'zgarishlar ro'y berishi mumkin.

Tezda tibbiy yordamni chaqirish

Texnik suyuqliklar bilan zaharlanishda darhol tibbiy yordam chaqirish zarur. Bu holatda shifokorlar tezkor ravishda davolashni boshlashlari kerak.

Suyuqlik ichish

Agar bemor texnik suyuqlikdan zaharlangan bo'lsa, ko'p miqdorda suv yoki sut ichirish tavsiya etiladi (faqat shifokor tavsiyasi asosida), chunki bu moddaning ta'sirini kamaytirishi mumkin.

Zaharlangan bemorning nafas olishini tekshirish

Agar zaharlangan bemor hushidan ketgan yoki nafas olishida qiyinchilik yuzaga kelgan bo'lsa, nafas olish va yurak urishini tiklash lozim. Zarur bo'lsa, sun'iy nafas bering va yurak massajini bajaring.



Topshiriq

- Daftaringizga is gazidan, ovqatdan, texnik suyuqliklardan zaharlanish turlarini jadval shaklida tasvirlang va unga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish yo'llarini yozing.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Is gazidan zaharlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tartibini aytib bering.
- 2 Ovqatdan zaharlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tartibini aytib bering.
- 3 Texnik suyuqliklardan zaharlanganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tartibini ayting?

ZAHARLI ILON VA HASHAROTLAR CHAQQANDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM KO'RSATISH

Dars davomida

- ▶ ilon chaqishi, uning belgilari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
- ▶ qoraqurt, chayon chaqishi, uning belgilari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish yo'llarini bilib olasiz.

O'ylab ko'ring

Insonni ilon, qoraqurt yoki chayon chaqqanini qanday bilish mumkin? Ularni farqlash mumkinmi?


Ilon, qoraqurt yoki chayon chaqqanida nega kechiktirmay birinchi tibbiy yordam ko'rsatiladi?

1 Ilon chaqishi, uning belgilari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

Zaharli ilon chaqishi

Sabablari: tasodifiy holatlar, ilonga teginish, xavfli joyda uxlash.

Belgilari: ilon chaqqan badan qismida qattiq og'riq, uvishish. Zaharlanish belgilari tezda tana bo'ylab tarqaydi. Jarohat joyi qizaradi, kengayadi, so'ng chetlari ko'karadi va tana harorati ko'tariladi. Bemorning og'zi quriydi, boshi aylanadi, og'riydi, yutinish, nutq qobiliyati buziladi, sovuq ter bosadi, rangi ko'karadi, nafas olishi 24–27, yurak urishi 92–96 martagacha tezlashadi. Qon bosimi tushadi. Siyish qiyinlashadi va kamayadi, burun qonaydi, umurtqa pog'onasi og'riydi. Bolalar va ayollarning ahvoli tez og'irlashadi.



1-rasm. Zaharli ilon chaqishi

ZAHARLI ILON CHAQQANDA BIRINCHI YORDAM KO'RSATISH:

Tez tibbiy yordamni (103) chaqiring!

- Ilon zahri tezda qon orqali tarqaladi.
- Tezlik hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Zaharni so'rib olish mumkin emas!

Ilgari so'rib chiqarish tavsiya qilingan, ammo hozirda bu xavfli hisoblanadi. Og'iz orqali zahar tanaga o'tishi mumkin.

Jabrlanuvchini yotqizing va tinchlantiring:

- Bemor harakatini minimal darajaga tushiring, harakat qon aylanishini tezlashtirib, zahar tarqalishini kuchaytiradi.

Qattiq bog'lamang.

Turniket bog'lash qat'iyman etiladi. Bu to'qimalar nekroziga olib kelishi mumkin. Faqat yengil bosuvchi bog'lam bilan ilon chaqqan joyni harakatsiz holda saqlash mumkin.

Sovuq kompress qo'ymang.

Sovuq qon aylanishini sekinlashtiradi va to'qimalarga zarar yetkazadi. Ammo jarohat joyini iliq suv bilan yuvish yoki antiseptik eritmalar bilan tozalash mumkin.

Ko'proq suyuqlik bering.

Agar jabrlanuvchi hushida bo'lsa, ko'p suyuqlik (suv, choy) ichirish mumkin.

Jarohatlangan joyni harakatsizlantiring.

Qo'l yoki oyoqni chaqqan bo'lsa, shinalar yoki taxta bilan harakatsizlantiring (immobilizatsiya qiling).

2

Qoraqurt, chayon chaqishi, uning belgilari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

Sabablari: xavfli joylarda uxlash, dala va eski imorat buzilish ishlarida ularni bilmasdan ushlab yoki bosib olish.

Belgilari. Mahalliy belgilar: ko'pincha sezilmaydi yoki igna sanchilgandagi kabi kuchsiz og'riq, ilon chaqqan joy (1–3 cm) oqarib, chetlari esa qizarib turadi.

Umumiy belgilar: 5–30 daqiqadan so'ng muskullarda juda kuchli og'riq seziladi, uvi-shadi. Og'riq belga, qoringa o'tadi. Bemor bezovta bo'ladi, sovuq ter bosadi, vahimaga tushgan bemorning yuzi taranglashadi, qizaradi (ko'z oqi ham qizaradi), azob tortayotgani bilinib turadi.

Og'ir holatda bemorning ko'zlaridan yosh oqadi. Asta-sekin behol bo'lib, yura olmay, tura olmay qoladi. Qorni dam bo'ladi, muskullari taranglashadi, tili quriydi, qo'l yoki oyoqda jarohat (chaqish) izi bo'ladi. Bemorning qo'l-oyoqlari taranglashib, boshi orqaga tortilgan holda titraydi. Qorachiqlari torayib, siydik chiqmay qo'yadi (qovuq to'la bo'ladi). Qon bosimi 150/110 mm simob ust. gacha ko'tarilishi mumkin. Terida toshmalar paydo bo'ladi.

Qoraqurt chaqqanda birinchi yordam juda muhim, chunki u zaharli bo'lishi, allergik reaksiya berishi yoki infeksiya tushishiga sabab bo'lishi mumkin.

QORAQURT CHAQQANDA BIRINCHI YORDAM KO'RSATISH:

- 1. Tinchlantiring va chaqilgan joyni o'rganing.** Qorqaqurt chaqqan joyni diqqat bilan ko'zdan kechiring: qizarish, shish, og'riq, chaqqan qurtning bir qismi qolgan-qolmaganini tekshiring.
- 2. Qoraqurt chaqqan joyni sovuq suv bilan yuving.** Infeksiya tushmasligi uchun toza sovuq suv yoki sovunli suvda yuvish zarur.
- 3. Sovuq kompress qo'ying.** Shish va og'riqni kamaytirish uchun qoraqurt chaqqan joyga muzli xaltani 10–15 daqiqa davomida qo'ying (teriga to'g'ridan to'g'ri muzni tekkizmang, ustidan mato qo'ying).
- 4. Chaqqan qurtning qismi qolgan bo'lsa, ehtiyotkorlik bilan olib tashlang.** Bunda steril pinsetdan ehtiyotkorlik bilan foydalaning. Qurtning qismi terida qolsa, infeksiya tushishi mumkin.
- 5. Antigistamin dori bering (allergiyaga qarshi).** Masalan: *suprastin, diazolin, loratadin, tavegil* kabi dori vositalari (yoshga mos ravishda) bo'lishi mumkin. Har qanday holatda zudlik bilan shifoxonaga murojaat qiling.
- 6. Qichishish yoki og'riq uchun mahalliy krem surting.** Masalan, *fenistil gel, fidrokortizon mazi, fsilo-balzam* bo'lishi mumkin.



2-rasm. Qoraqurt chaqishi

Chayon chaqishi – chayon nishi orqali teriga zahar yuboradigan holat. Chayon chaqishi inson uchun juda og'riqli va hatto xavfli. Ko'pincha O'zbekistonda uchraydigan chayon turlari yengil reaksiya keltirib chiqaradi, lekin bolalar, keksalar va allergiyasi bor insonlar uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Sabablari: tasodif, ularga tegib ketish, ehtiyotsizlik, xavfli joylarda uxlash.

Chayon chaqishi belgilari:

Yengil holatda:

- qizarish, shish, og'riq;
- qichishish, terida qattiq og'riq;

O'rtacha / og'ir holatda:

- bosh aylanishi, ko'ngil aynishi, qayt qilish;
- yurak urishining tezlashishi;
- tananing bir qismida uvishish;
- nafas olishda qiyinchilik;
- hushdan ketish (juda kam hollarda).

Umumiy belgilari: karaxtlik, bosh og'rishi va aylanishi, yurak sohasida og'riq, hansirash, yurak urishining tezlashishi, uyqu bosishi, gipodinamiya (jismoniy harakat sustligi), titrash, kuchli terlash, so'lak ajralishi, ko'z yoshlanishi, burundan shilliq ajralishi, tana haroratining ko'tarilishi.

Chayon chaqqanida birinchi yordam ko'rsatish

1. **Jabrlanuvchini tinchlantiring va yotqizing.** Vahima qilmaslik kerak: hayajon zahar tarqalishini tezlashtiradi. Agar oyoq yoki qo'l chaqilgan bo'lsa, uning yurak sathidan pastroqda bo'lishini ta'minlang.
2. **Chaqilgan joyni yuving.** Sovuq suv va sovun bilan yuving. Spiritli salfetka, yod yoki antiseptik eritmalar bilan ham tozalash mumkin.
3. **Sovuq kompress qo'ying.** Chaqilgan joyga muz yoki nam latta bosing (10–15 daqiqa). Bu og'riq va shishni kamaytiradi.
4. **Agar kerak bo'lsa, dori bering (og'riq qoldiruvchi).** Masalan, *paratsetamol*, *ibuprofen*, *antigistamin (allergiyaga qarshi)*, *setirizin*, *suprastin*.

Topshiriq

- ▷ Ilon, qoraqurt, chayon chaqqanda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish yo'llarini daftaringizga tartib bilan yozib qo'ying.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Insonni ilon, qoraqurt yoki chayon chaqqanda qanday tezkor harakatlar qilish kerak?
- 2 Ilon, qoraqurt, chayon chaqqanda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tartibini aytib bering.



VI BOB.

OTISH TAYYORGARLIGI

43

OTISH HODISASI VA DAVRLARI

Dars davomida

- ▶ o'q uzish va uning bosqichlari;
- ▶ o'qning boshlang'ich tezligi va uning otishga ta'siri haqida tasavvurga ega bo'lasiz.

O'ylab ko'ring

Otishda yuz beradigan qurolning ichki va tashqi hodisalarini har bir o'qchi bilishi kerak. Aytinch, nima uchun bulardan xabardor bo'lishimiz kerak?

O'q uzish va uning bosqichlari

O'q uzish – porox zaryadining yonishi jarayonida hosil bo'luvchi gazlarning energiyasi ta'sirida stvol kanalidan o'q (granata)ning otilib chiqishi.


O'qning tubiga gazlar kuchli bosim bilan ta'sir ko'rsatishi natijasida o'q joyidan siljiydi va kesiklarga uriladi; kesiklar bo'ylab aylanib, o'q uzluksiz kuchayib boruvchi tezlikda stvol kanali bo'ylab oldinga harakatlanadi va stvol kanalining o'qi yo'nalishida tashqariga otilib chiqadi.

O'q uzish bosqichlari

O'q uzish hodisasi juda qisqa vaqt (0,001–0,06 soniya) oralig'ida sodir bo'ladi. O'q uzishda ketma-ket keladigan to'rt bosqich farqlanadi: dastlabki bosqich; birinchi yoki asosiy bosqich; ikkinchi bosqich; uchinchi bosqich yoki gazlarning ta'siridan keyingi bosqich (1-rasm).

Dastlabki bosqich porox zaryadining yonishidan boshlanib, o'q qobig'i stvolning kesiklariga to'liq urilgunga qadar davom etadi. Mazkur bosqich davomida stvol kanalida o'qni joyidan siljitish va o'q qobig'ining stvol kesiklariga urilishiga nisbatan qarshiligini yengish uchun zarur gaz bosimi vujudga keltiriladi.

Birinchi yoki asosiy bosqich o'q harakati boshlangan paytdan to porox zaryadi to'liq yonib bitadigan paytgacha davom etadi. Porox zaryadi stvol ichidagi hajm tez o'zgarayotganda yonadi. Bosqichning boshida (stvol kanali bo'ylab o'qning harakat tezligi hali uncha katta bo'lmagan davrda) gazlar miqdori o'qning orqasidagi maydon (o'qning tubi va gilzaning tubi oralig'idagi maydon) hajmidan tezroq o'sib boradi, gaz bosimi ham tez ortadi va eng katta miqdorga yetadi.



1-rasm. O'q uzish bosqichlari

R_0 – tezlatish bosimi; R_m – eng katta (maksimal) bosim; R_k va V_k – porox yonishining oxirida gazlar bosimi va o'qning tezligi; R_d va V_d – o'q stvol kanalidan uchib chiqqan paytda gazlar bosimi va o'qning tezligi; V_m – o'qning eng katta tezligi; R_{atm} – atmosferaga teng bosim.

Ikkinchi bosqich porox zaryadi to'liq yonib bo'lgan paytdan to o'q stvol kanalidan uchib chiqquniga qadar davom etadi.

Ikkinchi bosqichda bosim stvol og'zi kesimi yaqinida juda tez pasayadi. Mazkur bosim **stvol og'zi bosimi** deb ataladi. U qurollarda $300 \text{ kg/cm} - 900 \text{ kg/cm}$ ni tashkil etadi. O'qning stvol kanalidan uchib chiqayotgan paytdagi tezligi (stvol og'zi tezligi) boshlang'ich tezlikdan birmuncha past bo'ladi.

Uchinchi bosqich yoki gazlarning ta'siridan keyingi bosqich o'q stvol kanalidan uchib chiqqan paytdan to porox gazlarining o'qqa ta'siri tugagunga qadar davom etadi. Bu muddat mobaynida stvol kanalidan 1200 – 2000 m/s tezlikda oqib chiquvchi porox gazlari o'qqa ta'sir ko'rsatishda davom etadi va unga qo'shimcha tezlik beradi. Uchinchi bosqichning oxirida, stvol og'zi kesimidan bir necha o'n santimetr uzoqda o'q o'zining eng katta tezligiga yetadi. Mazkur bosqich o'qning tubiga porox gazlarining ta'siri havo qarshiligi bilan tenglashgan paytda yakunlanadi.

2 O'qning boshlang'ich tezligi va uning otishga ta'siri


Stvolning og'iz kesimi yaqinida o'qning harakat tezligi **boshlang'ich tezlik (V_0)** deb ataladi. Bu – stvol og'zi tezligidan birmuncha katta va maksimal tezlikdan kichkina bo'lgan shartli tezlik boshlang'ich tezlik.

O'qning boshlang'ich tezlik miqdori otish jadvalarida va o'qning jangovar tavsifida ko'rsatiladi. Boshlang'ich tezlik qurolning eng muhim jangovar xossalariidan biri.

O'qning boshlang'ich tezligi miqdori stvolning uzunligi, o'qning og'irligi, porox zaryadining og'irligi, harorati va namligi, porox zarralarining shakli va o'lchami hamda o'qlash zichligiga bog'liq. Stvol qancha uzun bo'lsa, porox gazlari o'qqa shuncha ko'p vaqt ta'sir ko'rsatadi va o'qning tezligi shuncha katta bo'ladi. Boshlang'ich tezlik oshganida o'qning uchish uzoqligi, to'g'ri otish uzoqligi, qolaversa, shikast yetkazuvchi va teshuvchi ta'siri ham ortadi, o'qning uchishiga tashqi havo ta'siri esa kamayadi.

Porox zaryadi og'irligining o'zgarishi porox gazlari miqdorining o'zgarishiga, binobarin, stvol kanalida eng katta bosim miqdori va o'qning boshlang'ich tezligi o'zgarishiga olib keladi.

Mustaqil hal qilish uchun vazifa



Topshiriq

- > O'q uzish bosqichlarini tasavvuringiz va tushunganingiz bo'yicha izohlab bering.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 O'q uzilishi deganda nimani tushunasiz?
- 2 O'qning boshlang'ich tezligi deb nimaga aytiladi? Uning otishga ta'sirini aytib bering.



Dars davomida

- ▶ o'q trayektoriyasining hosil bo'lishi;
- ▶ trayektoriyaning shakli va uning amaliy ahamiyati haqida tushuncha olasiz.



O'ylab ko'ring

O'q trayektoriyasining shakli qay tarzda hosil bo'lishi mumkin va uning amaliy ahamiyati qanday?



1 O'q trayektoriyasining hosil bo'lishi

O'q (granata) havoda uchishi jarayonida uning og'irlik markazi hosil qiladigan egri chiziq **trayektoriya** deb ataladi (1-rasm).


O'q (granata) havoda uchishi jarayonida unga ikkita – og'irlik kuchi va havoning qarshilik kuchi ta'sir ko'rsatadi. Og'irlik kuchi o'qni asta-sekin pasayishga majbur qiladi, havoning qarshilik kuchi esa uning harakatini uzluksiz sekinlashtiradi va uni ag'darishga intiladi. Mazkur kuchlarning ta'siri natijasida o'qning uchish tezligi asta-sekin pasayadi, uning trayektoriyasi esa notekis bukilgan egri chiziq shaklida bo'ladi.



1-rasm. O'q trayektoriyasi (yon tomondan ko'rinishi)

Mohiyatiga ko'ra havo zich muhitdir, shuning uchun ham mazkur muhitda harakatlanishga o'q energiyasining bir qismi sarflanadi va o'qning uchishiga qarshilik yuzaga keladi.

Havoning qarshilik kuchi uch asosiy sababga ko'ra vujudga keladi. Bular: havoning ishqalanishi, uyurmalar hosil bo'lishi va ballistik to'lqin hosil bo'lishi (2-rasm).




2-rasm. Havo qarshiligi kuchining hosil bo'lishi

Uyurma – o'q ortida vujudga kelgan siyrak maydonni to'ldirishga harakat qiluvchi havo zarrasi.

O'q ovoz tezligidan baland tezlikda uchganda ovoz to'lqinlarining bir-biriga urilishi natijasida qattiq zichlangan havo to'lqini – **ballistik to'lqin** vujudga keladi. Mazkur to'lqin o'qning uchish tezligini pasaytiradi, chunki o'q o'z energiyasining bir qismini mana shu to'lqinni vujudga keltirishga sarflaydi.

O'q (granata)ning uchishiga havo ta'siri natijasida hosil bo'luvchi hamma kuchlarning yig'indisi – havoning qarshilik kuchi ta'sir etadi. Qarshilik kuchining yaqinlashish nuqtasi qarshilik markazi deb ataladi. O'q (granata)ning trayektoriyasini o'rganish uchun quyidagi ta'riflar qabul qilingan (3-rasm).



3-rasm. Trayektoriya elementlari


Asosiy tushunchalar va ta'riflar:

1. **Uchish nuqtasi** – qurol stvoli og'zi (kesimi) markazi. O'q harakati aynan shu nuqtadan boshlanadi.
2. **Qurol ufqi** – uchish nuqtasi orqali o'tuvchi gorizont tekislik. Bu asosiy bazaviy yo'nalish (referensiya chizig'i).
3. **Balandlik burchagi** – balandlik chizig'i (nishonga qaratilgan yo'nalish) bilan qurol ufqi orasidagi burchak.
4. **Irg'itish chizig'i** – o'q stvoldan uchib chiqqanida, stvol kanalining davomida chizilgan to'g'ri chiziq.
5. **Irg'itish burchagi** – irg'itish chizig'i bilan qurol ufqi orasidagi burchak.
6. **Uchish burchagi** – balandlik chizig'i bilan irg'itish chizig'i orasidagi burchak.
7. **Tushish nuqtasi** – trayektoriya qurol ufqi bilan kesishgan, ya'ni o'q yerga tushgan nuqta.

8. **Tushish burchagi** – tushish nuqtasida trayektoriya urinmasi (yo'nalishi) bilan qurol ufqi orasidagi burchak.
9. **To'liq gorizonttal uzoqlik** – uchish nuqtasidan tushish nuqtasigacha bo'lgan gorizonttal masofa.
10. **Trayektoriya cho'qqisi** – trayektoriyaning eng yuqori nuqtasi.
11. **Trayektoriya balandligi** – trayektoriya cho'qqisidan qurol ufqigacha bo'lgan eng qisqa masofa.
12. **Mo'ljalga olish nuqtasi** – nishondagi yoki undan tashqaridagi, qurol to'g'rilanayotgan nuqta.
13. **Mo'ljalga olish burchagi** – balandlik chizig'i bilan mo'ljalga olish chizig'i orasidagi burchak.
14. **Uchrashish burchagi** – trayektoriya nishonga tegadigan nuqtadagi urinma (yo'nalish) bilan nishon sirti orasidagi burchak. 0° – 90° oralig'idagi eng kichik tutash burchak asosiy hisoblanadi.

2 Trayektoriyaning shakli va uning amaliy ahamiyati

Trayektoriyaning shakli balandlik burchagining kattaligiga bog'liq. Balandlik burchagi ortishi bilan trayektoriyaning balandligi va o'q (granata) uchishining to'liq gorizonttal uzoqligi ham ortib boradi, ammo bu ma'lum chegaragacha davom etadi. Mazkur chegara ortida trayektoriyaning balandligi ortishda davom etadi, to'liq gorizonttal uzoqlik esa kamaya boshlaydi (5-rasm).



5-rasm. Eng katta uzoqlik burchagi, yer bag'irlab ketgan, osma va tutash trayektoriyalar

Trayektoriyaning shakli va uning amaliy ahamiyati:

O'q (granata) uchishining to'liq gorizontal uzoqligi o'zining cho'qqisiga yetadigan balandlik **eng katta uzoqlik burchagi** deb ataladi.

Har xil turdagi qurollar uchun mo'ljallangan o'qlarning eng katta uzoqlik burchagi – taxminan, 35° .


Eng katta uzoqlik burchagidan kichkina balandlik burchaklarida hosil bo'luvchi trayektoriyalar **yer bag'irlab ketgan trayektoriyalar** deb ataladi.

Eng katta uzoqlik burchagidan katta balandlik burchaklarida hosil bo'luvchi trayektoriyalar **osma trayektoriyalar** deb ataladi.

Bir quoldan otishda (bir xil boshlang'ich tezlikda) bir xil gorizontal uzoqlikka ega bo'lgan ikkita trayektoriya – yer bag'irlab ketgan va osma trayektoriyalar hosil bo'lishi mumkin. Har xil balandlik burchaklarida bir xil otish uzoqligini ta'minlovchi yer bag'irlab ketgan va osma trayektoriyalar **tutash trayektoriyalar** deb ataladi.

O'qotar qurollar va granatomyotlardan otishda odatda faqat yer bag'irlab ketadigan trayektoriyalardan foydalaniladi. Trayektoriyaning yer bag'irlab ketish darajasi qancha katta bo'lsa, mo'ljallagichning bir ustanovkasida joyning shuncha katta qismida nishonga shikast yetkazilishi (mo'ljallagichning ustanovkasini belgilashdagi xatolar otish natijalariga shuncha kam ta'sir ko'rsatishi) mumkin. Yer bag'irlab ketgan trayektoriyaning amaliy ahamiyati ana shunda.

Yer bag'irlab ketgan trayektoriya to'g'ri mo'ljallab otish uzoqligi, shikastlantiriladigan, yopiq va qo'zg'almas maydonning kattaligiga ta'sir ko'rsatadi.



Topshiriq

- ▷ O'q trayektoriyasining hosil bo'lishini chizma orqali tasvirlab bering. Uni izohlang.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 O'q trayektoriyasi qanday omillar ta'sirida hosil bo'ladi?
- 2 Trayektoriyaning amaliy ahamiyatini tushuntirib bering.

NISHONGACHA BO'LGAN MASOFANI ANIQLASH VA TO'G'RI MO'LJALGA OLIISH

45

Dars davomida

- ▶ nishongacha bo'lgan masofani aniqlash usullari;
- ▶ to'g'ri mo'ljallab otish;
- ▶ yopiq, qo'zg'almas va shikastlantiriluvchi maydonlar bo'yicha bilimingizni oshirasiz.

O'ylab ko'ring

O'qchi nima uchun nishongacha bo'lgan masofani aniqlab, to'g'ri mo'ljalga olishi kerak?

1 Nishongacha bo'lgan masofani aniqlash usullari

Nishonni birinchi o'q bilan urish uchun nishongacha bo'lgan masofani bilish kerak. Bu shamol, havo harorati, atmosfera bosimiga qarab kiritiladigan tuzatishlarni to'g'ri aniqlash va eng muhimi mo'ljalagichni to'g'ri o'rnatish va mo'ljalga olish nuqtasini to'g'ri tanlashdan iborat.

Yaqin masofalarni aniqlashning eng sodda usuli – ko'z bilan chamalab aniqlash.

Ko'z bilan chamalash usuli har qanday jangovar sharoitda qo'llaniladigan eng sodda va qulay usuldir, ammo buning uchun muntazam mashq qilish orqali ko'nikmani shakllantirish zarur.

Ko'nikmani shakllantirish uchun tavsiyalar:

- **Turli sharoitlarda mashq qilish.**

Masofani ko'z bilan chamalab aniqlashni yilning barcha fasllarida, kunning turli vaqtlarida va istalgan hududda mashq qilish kerak.

- **Natijalarni tekshirib borish:**

Mashq davomida aniqlangan masofalarning to'g'riligini qadam bilan o'lchab ko'rish, xarita bilan taqqoslash yoki boshqa usullar bilan tekshirish muhim.

- **Etalon masofalarni yodda saqlash.**

Avvalambor, 10 m, 50 m va 100 m kabi qisqa masofalarni tasavvur qilib, ularni har qanday joyda aniq farqlay olish o'rganiladi.

- **Bosqichma-bosqich murakkablashtirish.**


Qisqa masofalar o'zlashtirilgach, asta-sekin 200 m, 400 m, 800 m kabi uzoq masofalarga o'tiladi. Mashqlar o'qotar qurolning ta'sirli masofasigacha davom ettiriladi.



1-rasm. Simyog'ochlar o'rtasidagi masofalardan alohida predmetlarga bo'lgan masofalar o'lchash etaloni sifatida foydalaniladi.

Mingdan bir o'lchov formulasini o'rganish uchun uning o'tish amaliyotida burchaklarni o'lchash birligi sifatidagi amaliy ahamiyatini tushuntirish lozim. Odatiy amaliyotda burchak kattaliklarini o'lchash uchun burchak o'lchagich bo'limi yoki mingdan bir o'lchovdan foydalaniladi.

Burchak o'lchagich bo'limining mazmunini doska orqali chizmada (2-rasm) ko'rsatib, quyidagi nisbatni o'rnatish lozim:



2-rasm. Mingliklar o'lchovi

yoki yaxlitlanganda

$$\frac{6,28R}{6000} \approx \frac{1R}{955}$$

yoki

$$\frac{1}{1000 R},$$

yoki

$$\frac{1}{1000 D}$$

Burchak o'lchagichning uzoqligi va bo'limi o'rtasida asosiy bog'liqlik mavjudligi haqida xulosa chiqarish zarur: uzoqlik burchak o'lchagichning bo'limidan 1000 marta katta va aksincha, burchak o'lchagichning bo'limi uzoqlikdan 1000 marta kichik.

Agar uning masofasi va ostida nishon ko'rinib turgan burchak kattaligi aniqlanayotgan predmetning kuzatiluvchi chiziqli kattaligi (balandligi, kengligi yoki uzunligi) ma'lum bo'lsa, nishongacha bo'lgan masofani

burchak o'lchagich bilan aniqlash mumkin. Aniqlash usuli davomida mazkur predmet ko'rinib turgan burchakni mingdan bir o'lchovda o'lchashni nazarda tutadi.

$$D = \frac{B (K) \times 1000}{Bu}$$

Nishongacha bo'lgan masofani aniqlash formulasida:

D – nishongacha bo'lgan masofa (metrda).

B (K) – nishon balandligi (kengligi, metrda).


1000 – o'zgarmas kattalik.

BU – ostida nishon ko'rinib turgan burchak (mingdan bir o'lchovda).

Mazkur kattaliklardan ikkitasini bilgan holda, yuqorida ko'rsatilgan formula yordamida uchinchi kattalikni topish mumkin.

Binokl to'rida gorizont va vertikal burchaklarni o'lchashga mo'ljallangan ikkita o'zaro perpendikulyar burchak o'lchagich shkalalari aks ettirilgan (3-rasm).


Katta bo'limning kattaligi (qiymati) 0–10 mingdan bir burchakka, kichik bo'limning kattaligi (qiymati) esa 0–0,5 mingdan bir burchakka teng. Ikki yo'nalish o'rtasidagi burchakni o'lchash uchun binokldan kuzatib, burchak o'lchagichning biron-bir shtrixini mazkur yo'nalishlardan biri bilan tutashtirish va ikkinchi yo'nalishgacha bo'lgan bo'limlar sonini hisoblash lozim. So'ng hosil bo'lgan sonni bo'lim qiymatiga bo'lsak, o'lchanayotgan burchakning kattaligini (mingdan bir o'lchovda) olamiz.



3-rasm. Binoklning shkalalari

2 To'g'ri mo'ljallab otish

To'g'ri mo'ljallab otishda trayektoriya mo'ljalga olish chizig'i (nishon)dan balandga ko'tarilmaydi (4-rasm).



4-rasm. To'g'ri mo'ljallab otish

Jangning qizg'in pallasida to'g'ri mo'ljallab otish uzoqligi doirasida mo'ljallagich holati o'zgartirilmay o'q uzilishi mumkin, bunda mo'ljalga olish nuqtasi balandlik bo'yicha, odatda, nishonning pastki qirrasidan tanlanadi. To'g'ri mo'ljallab otish uzoqligi nishonning balandligi va trayektoriyaning yer bag'irlab ketish darajasiga bog'liq. Nishon qancha baland va trayektoriyaning yer bag'irlab ketish darajasi qancha katta bo'lsa, to'g'ri mo'ljallab otish uzoqligi shuncha katta bo'ladi va mo'ljallagichning bir ustanovkasida joyning shuncha katta qismida nishonga shikast yetkazilishi mumkin.

To'g'ri mo'ljallab otish uzoqligini nishonning balandligini mo'ljalga olish chizig'idan trayektoriyaning eng katta balandligi kattaliklariga yoki trayektoriyaning balandligiga taq-qoslash jadvallaridan aniqlash mumkin.


3 Yopiq, qo'zg'almas va shikastlantiriluvchi maydonlar

Yopiq maydon – o'q teshmaydigan yashirinish joyining panasidagi, uning qirrasidan uchrashish nuqtasigacha cho'zilgan maydon.

Qo'zg'almas (shikastlantirilmaydigan) maydon – yopiq maydonning mazkur trayektoriyada nishon shikastlanishi mumkin bo'lmagan qismi (5-rasm).

Trayektoriyaning pastga qarab ketuvchi bo'g'ini, nishon balandligidan oshmaydigan joy oralig'i **shikastlantiriluvchi maydon** (shikastlantiriluvchi maydonning chuqurligi) deb ataladi.

Shikastlantiriluvchi maydonning chuqurligi nishonning balandligiga (bu yerda u nishondan baland bo'ladi), trayektoriyaning yer bag'irlab ketish darajasiga (bu yerda u yer bag'irlab ketgan trayektoriyadan katta bo'ladi) va joyning qiyalik burchagiga (old nishablikda u kichrayadi, teskari qiyalikda esa kattalashadi) bog'liq.



5-rasm. Yopiq, qo'zg'almas va shikastlantiriluvchi maydonlar

Yopiq maydonning chuqurligini mo'ljalga olish chizig'idan trayektoriyaning balandlashini jadvallariga qarab aniqlash mumkin. Yashirinish joyining balandligi va ungacha bo'lgan uzoqlikka teng balandlik tanlab olinadi. Balandlik topilganidan so'ng mo'ljallagichning unga teng ustanovkasi va otish uzoqligi aniqlanadi. Otishning aniqlangan uzoqligi va yashirinish joyining uzoqligi o'rtasidagi farq yopiq maydonning chuqurlik o'lchamini tashkil etadi.

Qo'zg'almas maydonning chuqurligi yopiq va qo'zg'almas maydonlarning farqiga teng.

Topshiriq

- ▷ Minglik o'lchovi yordamida ko'rsatilgan nishongacha bo'lgan masofani aniqlang.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Nishongacha bo'lgan masofani aniqlashning qanday usullarini bilasiz?
- 2 To'g'ri mo'ljallab otishda nimalarga e'tibor qaratilishi talab etiladi?
- 3 Shikast yetadigan va yopiq maydonlarni tushuntirib bering.

PNEVMATIK QUOLLAR VA ULARDAN OTISH QOIDALARI

46

Dars davomida


- ▶ pnevmatik qurolning vazifasi va umumiy tuzilishi;
- ▶ pnevmatik quroldan otish qoidalari;
- ▶ pnevmatik quroldan foydalanganda xavfsizlik qoidalarini o'rganasiz.

O'ylab ko'ring

Odatga ko'ra, pnevmatik qurolardan jamoat joylaridagi tir (nishonxona)larda istagan odam o'q otib ko'rishi mumkin. Nima uchun ta'lim muassasalarida ham shunday quroldan otish mashqlari o'rgatiladi?

1 Pnevmatik qurolning vazifasi va umumiy tuzilishi

IJ-38 pnevmatik quroli ommaviy ishlatiladigan sport pnevmatik qurollari tarkibiga kiradi. U 10 m masofadan o'q otishda dastlabki o'rganuvchilar uchun qo'l keladi, shuningdek, bu qurol ommaviy o'q otish maydonchalarida foydalanish uchun mo'ljallangan.



1-rasm. IJ-38 pnevmatik qurolining umumiy tuzilishi

IJ-38 pnevmatik qurolining taktik-texnik xususiyatlari:

Kalibr – 4,5 mm.

O'q tezligi – 110 – 130 m/s.

Stvol uzunligi – 450 mm.

Umumiy uzunligi – 1050 mm.

Og'irligi – 2,8 kg.

2 Pnevmatik quoldan otish qoidalari

O't ochish amaliyotida qurol va o'q otuvchi holatining moslashuvi:

- O'q otuvchi mushaklarining qurolga qulay o'rnashish kerak;
- Otish paytida qomatni bir xilda saqlash va qimirlamaslik zarur;
- Nishonga otish vaqtida boshning qulay joylashishi ko'z uchun eng muhim omil.

O'q otish uchun uch xil holat qo'llaniladi: yotgan, tizzada va tik turgan holatlar.

Pnevmatik qurollardan otish uchun faqat tik turgan holat ko'rsatilgan.

Tik turgan holatda otish boshqa holatlardagi otishdan ancha qulay.

Tik turishdagi qiyinchilikl tajribasiz o'q otuvchining og'ir miltiqni ushlab turishi kerakligi bilan izohlanadi. Muvozanatni saqlash va og'irlik markazini qo'llab-quvvatlash maydonining markazidan yuqorida ushlab turish, miltiqqa qarshi og'irlik berish uchun o'q otuvchi tanasini egishi kerak. Bunday og'ir tanasi holatini assimetrik qiladi, bu ham mushak muskullari ishiga ta'sir qiladi.

Tik turgan holda otuvchining tanasidagi alohida qismlari holatini ko'rib chiqing.

3 Pnevmatik quoldan foydalanganda xavfsizlik qoidalari

IJ-38 pnevmatik quoldan foydalanishda xavfsizlik qoidalari:

1. Qurol bilan ishlashni boshlashdan oldin foydalanish bo'yicha ko'rsatmalarni o'qing.
2. Hech qachon qurolni odamlar yoki hayvonlarga qaratmang, hatto u o'qatlanmagan bo'lsa ham.
3. Otishdan oldin miltiqning yaxshi holatda ekanini tekshiring: ko'rsatmalarga muvofiq patron qutisining magnitlanishi va sifatini tekshiring.

Baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun asosiy xavfsizlik qoidalari:

1. Agar jismoniy yoki hissiy qobiliyatingizga shubha qilsangiz, qurolni olmang.
2. Odamlarga, hayvonlarga, binolarga yoki boshqa narsalarga egalarining roziligisiz o'q otmang.

Topshiriq

- ▷ Pnevmatik quoldan otish qoidalari va undan foydalanganda xavfsizlik qoidalarini ko'rsating.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Pnevmatik qurolning vazifasi va tuzilishini aytib bering.
- 2 Pnevmatik quoldan otishda ham qoidalar bo'ladimi, ular qanday qoidalar?
- 3 Pnevmatik quoldan foydalanganda xavfsizlik qoidalariga amal qilish shartmi?

Dars davomida

- ▶ pnevmatik quoldan otish shartlarini;
- ▶ pnevmatik quoldan otish bo'yicha 2 xil mashqni bajarishni o'rganasiz.

O'ylab ko'ring

Pnevmatik quolni ishlatish yoki otishdan avval qanday shartlarni bilish kerak?

1 Pnevmatik quoldan otish shartlari

1-mashq.

IJ-22, IJ-38 rusumli ochiq pritselli pnevmatik miltiq:

- o'qlar – “Diabolo”, “DTS”;
- otish masofasi – 5 m (stolning oldingi qirrasidan nishongacha bo'lgan masofa);
- nishon – qora doirali “P” nishoni;
- o'qlar soni – 3 ta o'rganish uchun, 5 ta sinov uchun;
- otish vaqti – chegaralanmagan;
- otish vaqtidagi holat – turib, stolga tirsakni tiragan holatda.

Baholash

“a'lo”




qora doiraga 4 ta tekkizilganda

“yaxshi”

qora doiraga 3 ta tekkizilganda

“qoniqarli”

qora doiraga 2 ta tekkizilganda




1-rasm. “P” shaklidagi nishon. Qora doiraning diametri – 29 mm



2-mashq.

IJ-22, IJ-38 rusumli pnevmatik miltiq:

- o'qlar – qo'rg'oshinli;
- otish masofasi – 5 m;
- nishon – 8 raqamli nishon;
- o'qlar soni – 3 ta o'rganish uchun, 5 ta sinov uchun;
- otish vaqti – chegaralanmagan;
- otish vaqtidagi holat – turib, stolga tirsakni tiragan holatda.



2-rasm. 8 raqamli nishon. Qora doiraning diametri – 31 mm. O'nlikning diametri – 1 mm



2 Pnevmatik quoldan otish bo'yicha 2 xil mashqni bajarish

Pnevmatik quoldan otish bo'yicha 2 xil mashqni bajarish


Pnevmatik quoldan otish mashqini bajarish ta'lim muassasasida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari (o'qituvchisi) boshchiligida o'tkaziladi.

Bajarish tartibi:

- otuvchi mashg'ulot rahbarining buyrug'i bilan otish chizig'iga keladi;
- tik turgan holda, ikki oyoq yelka kengligida tanani tik tutib, to'g'ri turish holatini egallaydi;
- qo'l va yelka bilan pnevmatik qurol barqaror ushlab turiladi;
- nishonni mo'ljalga oladi;
- nafasni to'xtatib, sekin tepkini bosadi.



a



b

3-rasm. a – yakka holatda pnevmatik qurol (miltiq)dan otish; b – pnevmatik quoldan otish bo'yicha musobaqa

Topshiriq

- ▷ Pnevmatik quoldan otish bo'yicha 1- va 2-mashqlarni bajaring.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Otishni tugatganingizdan keyin qurol bilan qanday munosabatda bo'lishingiz kerak?
- 2 Nafas olish va uni ushlab turish otish aniqligiga qanday ta'sir qiladi?

AVTOMATDAN OTISH BO'YICHA O'QUV MASHQINI BAJARISH



Dars davomida

- ▶ avtomatdan otish bo'yicha o'quv mashqini bajarishni;
- ▶ mashg'ulot o'tkazishdagi xavfsizlik choralarini o'rganasiz.



O'ylab ko'ring

Nima uchun otish mashg'uloti davomida xavfsizlik choralariga amal qilish talab etiladi?

1

Avtomatdan otish bo'yicha o'quv mashqini bajarish

Bu mashq ta'lim muassasasidagi mashg'ulot rahbari boshchiligida o'quv avtomatlari bilan bajariladi. Bunda poligonlardagi amaliy otish mashg'ulotlarida talab etiladigan xavfsizlik qoidalariga to'liq rioya etiladi.



2 Mashg'ulot o'tkazishdagi xavfsizlik choralari

Avtomat bilan ishlashda quyidagilar taqiqlanadi:

o'qlangan yoki o'qlanmaganidan qat'i nazar, qurolni odamlarga va otish maydonining orqa tomoniga – nishondan boshqa tarafga yo'naltirish;

mashg'ulot rahbari komanda berguniga qadar qurolni o'qlash;

o'qlangan qurolni qarovsiz qoldirish yoki uni o'zga shaxslarga berish;

paxtavon patronlar bilan shaxsiy tarkibga qarata 100 metrdan yaqin masofalarda o't ochish;

xavfli yo'nalishlar chegaralari tashqarisiga qarata yoki qizil bayroq ko'tarilgan panaga (blindajga) qarata o'q uzish;

o't ochish marrasiga yetgunga qadar o't ochish;

"Jang tamom!" signali "O't ochish to'xtatilsin!" komandasi berilganidan keyin, shuningdek, panada (blindajda), qo'mondonlik punktida oq bayroq (fonus) ko'tarilganida o't ochish;

nosoz quroldan o'q uzish yoki nosoz o'q-dorilarni qo'llash.

o't ochish
zudlik bilan
to'xtatiladigan
holatlar:

- nishonlar maydonida odamlar, transport vositalari yoki hayvonlar ko'ringanida, o't ochish hududi ustida pastlab uchayotgan samolyot va vertolyotlar paydo bo'lganida;
- snaryad va granatalar xavfsiz hududlar chegaralarining tashqarisiga yoki odamlar bor pana (blindaj)lar yaqiniga tushganida;
- o't ochish maydonida yong'in sodir bo'lganida;
- tungi vaqtlarda otish mobaynida mo'ljal yo'nalishidan adashganda.

Topshiriq

- Quroldan otish bo'yicha o'quv o'rganish mashqini o'tkazish uchun shart-sharoitlar va xavfsizlik choralari bo'yicha bilimlaringizni takrorlang.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Quroldan o'q otish bo'yicha o'quv mashqining qanday shartlari bor?
- 2 Otish paytida qo'l va yelka holati qanday ahamiyatga ega?

AVTOMATDAN BOSHLANG'ICH OTISH MASHQINI BAJARISH



Dars davomida

Joyidan turib harakatlanmaydigan nishonga otish qoidalarini o'rganasiz.



O'ylab ko'ring

Harakatlanmaydigan nishon deganda nimani yoki qanday holatni tasavvur qildingiz?

1


Joyidan turib harakatlanmaydigan nishonga otish

Avtomatdan otish mashqi harbiy poligonlardagi otish maydoni hamda harbiy qism va oliy harbiy ta'lim muassasasi ixtiyoridagi tirlar yordamida bajariladi. O'quvchilar bilan o'tkaziladigan amaliy otish mashg'ulotlarni harbiy qism komandiri yoki oliy harbiy ta'lim muassasasi boshlig'i "Otish kursi" talablari asosida tashkil etadi. Bunda harbiy okrug har bir o'quvchiga 3 dona o'q-dori ajratadi.



Harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonlari ta'lim muassasalari bitiruvchilari bilan harbiy poligonlarda amaliy otish mashg'ulotlari xavfsizlik qoidalariga rioya etilgan holda o'tkazilishi uchun mas'uldirlar.

Otish shartlari:

- Nishon: yotib olgan otuvchining ko'krak hajmiga o'xshash shaklli nishoni 100 m masofada paydo bo'ladi, unga bittalab 3 ta o'q uziladi.
- O'q-dorilar soni: avtomat uchun – 3 ta patron.
- Otishga ajratilgan vaqt: cheklanmagan.
- Otish holati: yotgan holda.
- Mashq bajarishning o'ziga xos xususiyatlari: otish mashqini faqat maktab o'quvchilari bajaradi.



1-rasm. Ko'krak hajmidagi shakl



2-rasm. Otish mashqini bajarish

Topshiriq

- ▶ Joyidan turib harakatlanmaydigan nishonga otish ko'nikmasini amaliy yoki nazariy bilimlar bilan mustahkamlang.



VII BOB.

TAKTIK TAYYORGARLIK

50

ASKARNING MUDOFAADAGI HARAKATLARI



Dars davomida

- ▶ mudofaa jangiga tayyorgarlik ko'rish va uni boshqarish;
- ▶ okop (xandaq) uchun joy tanlash, qazish va uni niqoblash haqida bilib olasiz.



O'ylab ko'ring

Hujumga o'tgan dushmandan mudofaalanish uchun doim tayyor turish va eng to'g'ri choralarni ko'rish askardan qanday mas'uliyat talab qiladi?

1

Mudofaa jangiga tayyorgarlik ko'rish va uni boshqarish

Mudofaada o't ochish dushmanni yo'q qiladigan va talafot yetkazadigan asosiy usuldir. Mudofaa jangiga tayyorgarlik deganda, jangovar vazifani bilish, okop qazish va uni egallash, o'q-dorilarni olish va o't ochishga tayyor turish tushuniladi.

Askar dushmanning jonli kuchlari va o't ochish vositalarini yo'q qiladigan zamonaviy avtomatik qurollar bilan qurollanadi. O'qotar qurollarning samarali ta'sir ko'rsatish masofasi – 400–600 m, aynan shu masofalarda yalpi o't ochish zonalari tashkil qilinadi.

Dushman hujumga o'tishdan oldin odatda o't ochishga tayyorgarlik ko'radi. Bu paytda shaxsiy tarkib xandaqlarga, yerto'lalarga yoki piyodalar jangovar mashinasiga (bronetransportyorga) yashirinib, o'z o'rnini egallashga tayyor bo'lib turadi, kuzatuvchi esa o'z joyida kuzatadi. Dushman ommaviy qirg'in qurollarini qo'llash xavfi to'g'risida

signal olishi bilan shaxsiy himoya vositalarini “Tayyor” holatga keltirib, qo‘yilgan vazifani bajarishda davom etadi.

Dushman hujumga o‘tishini sezgan zahotiy oq seksiya komandiri “**Seksiya, jangga!**” komandasini beradi, askarlar esa tezlik bilan seksiya pozitsiyasidagi o‘z o‘rnini egallaydilar. Dushmanlar o‘t ochish masofasiga yaqinlashishi bilan o‘t ochiladi. Shaxsiy tarkib jangovar “ikkilik”, “uchlik” tarkibida dushmanni yo‘q qilishdan tashqari, seksiyaning asosiy o‘t ochish vositasi bo‘lgan KQP (Kalashnikov qo‘l pulemyoti) va granatomyotchilarning harakatlarini o‘t ochish bilan panalab turadi.

Askarlar dushman hujumini qaytarib bo‘lgach, o‘q-dorilarni to‘ldiradilar, to‘siqlarni, buzilgan mudofaa inshootlarini tiklaydilar va dushmanning qayta hujumini qaytarishga tayyor bo‘lib turadilar.


2 Okop uchun joy tanlash, qazish va uni niqoblash

Har bir askar mudofaada o‘z qurolidan unumli foydalanib, joylarning holati, o‘rnatilgan to‘siqlar yordamida dushmanning jonli kuchlarini yo‘q qiladi hamda hujumga o‘tgan dushman tanklari va bronetransportyorlarini yakson qiladi. Askar egallab turgan o‘rnini komandirning ruxsatisiz tashlab ketishi mumkin emas. Mudofaa jangini olib borish uchun har bir askar okop (xandaq) qaziydi. Okop askarni zamonaviy o‘t ochish vositalaridan panalaydi, ommaviy qirg‘in qurollarini talafot omillaridan saqlaydi va o‘t ochish pozitsiyasi sifatida xizmat qiladi.

Mudofaada okop qazish uchun tanlangan joy mudofaani ta‘minlashi, kuzatish imkonini beradigan, niqoblangan, dushman o‘tidan panalaydigan hamda o‘t ochish uchun qulay bo‘lishi kerak. Agar ko‘rsatilgan joy askarni to‘liq panalamasa, u holda kurak yordami bilan yoki boshqa mahalliy materiallar yordamida niqoblashi zarur.

Dushman o‘t ochib turganda bir kishilik okop qazish ketma-ket bosqichda amalga oshiriladi:

- Askar tanlangan joyga yotib olgan holda avtomatini o‘ng tomonga, qo‘l uzatsa yetadigan masofaga, stvolini dushman tomonga qaratib qo‘yadi;
- Piyodalar chap tomonga yonboshlab, kurakni g‘ilofidan chiqaradi. Ikkala qo‘li bilan kurakni o‘zi tomonga qaratib, yerga urgancha chim yoki yerning ustki qismini o‘yadi. Chuqurning oldi va yon chegaralariga tuproq uyib, joyni belgilaydi;
- Kurakni o‘ziga qarshi tarzda yerga urib, chim, tuproqni ko‘chirib, oldinga qo‘yadi va chuqurni kavlashga tushadi.



1-rasm. Dushman o't yog'dirib turganda yotib otish uchun yakkalik okop qazish o'lchami

Bir kishilik yotib otish uchun tayyorlangan okop (xandaq) shaxsiy tarkibni dushman o'qlari va snaryad parcha (oskolka)laridan himoyalaydi. Masalan, 7,62 mm kalibrli o'q tuproqqa 20–25 cm kiradi; okop oldidagi do'nglik (brustver) qalinligi 50–60 cm bo'lganda askar dushman o'qotar qurollaridan butunlay himoyalanaadi.

Keyinchalik, barcha bir kishilik okoplar bir-biriga o'zaro bog'lanadi va seksiyaning okopi hosil bo'ladi. Okopning aylanasi (devori) qumli tuproq bo'lsa, u yog'och, shoxlar, g'o'la, taxta va chim bilan mustahkamlanadi.

Topshiriq

- Mustaqil tarzda yotib otish uchun yakkalik okop (xandaq) qazishni mashq qiling. Qazishda jarayon ketma-ketligiga amal qiling.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Mudofaa nima? U qanday vaziyatda tashkil etiladi?
- 2 Mudofaalanishda okop uchun joy tanlash, qazish va uni niqoblash yo'llarini aytib bering.



Dars davomida

- ▶ transheyadan hujumga tayyorlanish va hujumga o'tish;
- ▶ askarning jang maydonida harakatlanishi;
- ▶ jang paytida to'siq va g'ovlardan o'tish tartiblari bilan tanishasiz.



O'ylab ko'ring

Nima uchun hujum olib borayotgan qo'shin tarkibidagi askardan harakatlanish tartibini bilishi va unga amal qilishi qa'tiy talab etiladi?

1

Transheyadan hujumga tayyorlanish va hujumga o'tish

Hujum – jangda dushman ustidan g'alaba qozonishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan asosiy jangovar usul.

Har bir askar hujumni bor kuchi va imkoniyati bilan olib borib, jangda mardlik, topqirlik, tashabbuskorlik ko'rsatib, o'z qurollaridan o't ochib, mudofaadagi dushmanni yo'q qilishi kerak. Hujum dushman qarshilik ko'rsatishni uyushtira olmaydigan darajada shiddatli va to'xtovsiz bo'lishi kerak.

Mudofaada turgan dushman ustiga hujum, yuzaga kelgan vaziyatga qarab, harakat mobaynida yoki dushman bilan bevosita to'qnashuv paytda olib borilishi mumkin.

Dushman bilan bevosita to'qnashuv holatida hujumga tayyorlanish dastlabki holat joyini tayyorlashdan boshlanadi. Dastlabki holat joyi tevarak-atrofdagi sharoitga qarab transheyalardan, xandaqlardan va boshqa pana joylardan tanlanadi. Transheyalar odatda okop (aloqa) yo'llari va boshqa yashirin yo'lakchalar orqali egallanadi.

“**Hamlaga olg'a!**” komandasi bilan transheyadan turib hujumga o'tiladi. Bu komanda yangraganda askar tezda transheya (okop)dan sakrab chiqadi va jangovar “ikkilik” yoki “uchlik” tarkibida tez-tez yurib yoki yugurib hujum obyekti tomonga harakatlanadi, yurish mobaynida dushmanga o't ochib boradi.

2 Askarning jang maydonida harakatlanishi



Askar jang maydonida shaxdam qadam bilan yurishi yoki yugurishi (tikka yoki engashib), to'xtab-to'xtab yugurishi va emaklashi, alohida hollarda jangovar "ikkilik", "uchlik" va butun seksiya jangovar tartibini buzmasdan sakrab-sakrab (tezlikda ko'chib) harakatlanishi mumkin.

Askarlar o'zaro bir-birini o't ochib panalash orqali harakatlanadilar. Harakatlanish usuli joyning relyefiga, dushman o'tini qamroviga (zichligiga) va boshqa holatlarga bog'liq bo'ladi.

Dushman kuzata olmaydigan pana joylar, uning o'ti bilan qoplanmaydigan uchastkalar yurib yoki yugurib bosib o'tiladi. Shaxdam yurgandagi tezlik 1 daqiqada 130–150 qadam, yugurganda esa 165–180 qadamni tashkil etishi mumkin.

Dushman o't ochib turganda uncha katta bo'lmagan uchastkalarni emaklab bosib o'tish mumkin. Vaziyatga, maysa va o'simliklarning balandligi va qalinligiga qarab, uncha katta bo'lmagan, emaklab o'tiladigan joylardan yonboshlab va yerga yopishib emaklab o'tish mumkin.

Emaklash usuli dushman o'qotar qurolidan o't ochib turgan paytda pana joyi oz va kam niqoblangan uchastkalarda, sayoz ariqlar va chuqur bo'lmagan daralarda, tikka yurib bo'lmaydigan transheyalarning yo'lakchalarida harakatlenganda qo'l keladi. Emaklash uchun oyoq tizzalari va ikkala qo'l tirsagi yoki barmoqlarida engashib turiladi. Qurol o'ng qo'l bilan tirsakka yaqin ushlanadi. Shundan so'ng tizza bilan turgan o'ng (chap) oyoq ko'krak tagiga harakatlantiriladi, bir vaqtning o'zida o'ng (chap) qo'l ham oldinga harakatlantirilib (xuddi qadam tashlagandek ikkala qo'l va oyoq bilan yuriladi), gavda oldinga tashlanadi. Harakat shu tarzda, ya'ni ikkala qo'l va oyoqlar bilan emaklab davom ettiriladi.

Yerga yopishib emaklash dushman o'qotar qurollardan otib turgan vaqtda va panalıkları yo'q uchastkalarda qo'l keladi.

Yerga yopishib emaklash uchun yerga to'liq yotib olinadi, qurol o'ng qo'l bilan tirsak yonida (tasma yuqorisidan) ushlanadi. Qo'l va oyoqlarni yerga yopishtirib, navbatma-navbat harakatlantirish zarur. Yerga yopishib emaklaganda bosh yuqoriga ko'tarilmaydi.

Yonboshlab emaklash odatda qorda, qumli joylarda, pulemyotni sudrab ketayotganda, o'q-dori olib borishda, oziq-ovqat va yaradorlarni jang maydonidan olib chiqishda qo'l keladi.

Yonboshlab emaklash uchun chap oyoq egilgan holatda oldinga surilib, gavda chap yelkaga tashlanadi. O'ng oyoqni esa tizzadan bukib, tovonni yerga bosib, gavda oldinga tashlanadi. Harakat shu tartibda davom ettiriladi. Qurol o'ng qo'lda ushlanib, chap oyoqning boldir qismida tutiladi.

3 Jang paytida to'siq va g'ovlardan o'tish

Jang maydonida harakat qilayotganda turli tabiiy to'siqlar, g'ovlar, muhandislik to'siqlari va zararlangan joylar uchrab qolishi mumkin.

Transheyalardan, transheyalarni bog'lovchi yo'lakchalardan, kichik chuqurliklardan, sakrab o'tiladi. Keng chuqurliklar va boshqa keng to'siqlardan mahalliy materiallar – g'o'la, yog'och yoki boshqa narsalar orqali ko'prik qilib o'tiladi.

Uncha baland bo'lmagan to'siqlar (g'ishtli yoki tuproqli devor, shox-shabbalar, g'ov)dan biror mustahkam narsadan tayanch orqali sakrab o'tiladi.

Tik va baland to'siqlar (baland g'ishtli devor va boshqalar)dan tirmashib chiqish orqali o'tiladi. Bunda askarlar bir-birini tortib, sherigiga yordam berishi mumkin.

Hujumda to'siqlar dushman o'ti panasida bo'lmasa yoki o'ti yetmaydigan joylarda bo'lsa, ulardan o'tish uncha qiyin emas. Dushman o't yog'dirib turganda to'siqlardan o'tish ancha qiyin bo'ladi, chunki to'siq hujumni vaqtincha bo'lsa ham, to'xtatish uchun qo'yiladi. To'siqlardan o'tishda sustkashlikka (ushlanib qolishga) yo'l qo'yilishi dushmanning hujumdagilarga katta talafot yetkazishiga olib kelishi mumkin. Shuni hisobga olib, to'siqlardan tez va uyushgan holda o'tish kerak.

Ayrili to'siqlar va uyumlar bilan to'silgan joylardan o'tishda avval to'siqlar changaklar yordamida tortib olinib, keyin o'tiladi. Agar to'siqlarni changaklar yordamida tortib olishning iloji bo'lmasa, ularning ustiga to'shamalar, shinellar tashlab o'tiladi.

Topshiriq

- ▷ O'rganganlaringiz bo'yicha askarning hujumdagi harakatlarini ko'rsatib berishga tayyorlaning.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Askarning transheyadan hujumga tayyorlanishi va hujumga o'tish tartibini tushuntirib bering.
- 2 Jang maydonida (vaziyatdan kelib chiqib) askarning harakatlanish usullarni aytib bering.
- 3 Jang maydonidagi to'siq va g'ovlardan qanday o'tiladi?

 Dars davomida

- ▶ kuzatuvchi, joylarni kuzatish usullari;
- ▶ kuzatish anjomlari;
- ▶ kuzatuvchining majburiyatlari va xabar berish tartibi haqida bilib olasiz.

 O'ylab ko'ring

Kuzatuvchi etib tayinlangan askarning bilishi va bajarishi talab etiladigan vazifalar nimalardan iborat?


 **1 Kuzatuvchi, joylarni kuzatish usullari**

Kuzatish – dushmanni va tevarak-atrofni razvedka qilishda asosiy va ko'p qo'llaniladigan usullardan biri. Kuzatuv jangning barcha turlarida tashkil etiladi va kecha-kunduz to'xtovsiz olib boriladi. Kuzatuv cheklangan sharoitlarda tungi ko'rish moslamasi va boshqa texnik vositalar – yoritish va eshitish qurilmalaridan foydalaniladi. Har bir askar jang maydonini, tevarak-atrofni, dushmanni uzluksiz kuzata bilishga hamda ularning harakatiga qarab kerakli ma'lumotlarni to'play olishga majbur. Kuzatuvchi odatda maxsus tayyorlangan askar va serjantlardan tayinlanadi.

Kuzatuvchi tunda ham, yorug'da ham joylarda yaxshi mo'ljal oladigan, razvedka qilish malakasiga ega, ko'z bilan ko'rganlarini eslab qoladigan, sabr-toqatli, bosiq, tushunchasi keng askar bo'lishi kerak.

Joylardagi belgi, buyumlar mo'ljalga olinib, shartli ravishda chiziq bilan yaqin, o'rta va uzoq zonaga ajratiladi. Uzoq zona optik moslama yordamida ko'rish mumkin bo'lgan barcha uchastkalarini o'z ichiga oladi. Zonalar chegarasi belgili narsa va mo'ljallarga qarab belgilanadi.

Zona nomi	Masofa	Xususiyati
Yaqin zona	0 – 400 metrgacha	kichik obyektlar (harakatlar yaqqol ko'rinadi)
O'rta zona	400 – 800 metrgacha	ko'z bilan aniq farqlash mumkin bo'lgan obyektlar
Uzoq zona	800 metrdan ortiq	faqat optik moslama yordamida ko'rinadigan obyektlar



1-rasm. Kuzatish sektorlarini zonalarga bo'lish

Kuzatish yaqin zonadan turib, o'ngdan chapga qarab joylarni, narsalarni tartib bilan, ketma-ket ko'zdan kechirib chiqish orqali boshlanadi. Kuzatuvchi yaqin zonani o'ngdan chapga qarab ko'rib chiqib, ko'z qiri bilan yana asta-sekin orqaga, xuddi o'zini tekshirgandek qaytadi. Uzoq va o'rta zonalar ham shu tartibda kuzatiladi.

Optik moslamalarni qo'llash kuzatuv samaradorligini oshiradi, ko'z bilan yaxshi ko'rinmagan yoki umuman ko'rinmagan nishon va obyektlarni tavsiflash imkonini beradi.

2 Kuzatuv anjomlari

Kuzatuvchilikka tayinlangan askar uchun zarur anjom va vositalar

Kuzatuvchilikka tayinlangan askar quyidagi anjom va vositalar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak:

1. Kompas – ufq (gorizont) tomonlarini to'g'ri aniqlash uchun.
2. Yirik masshtabli xarita (1:25000, 1:50000). Unga kuzatuv posti, dushman yo'nalishlari, mudofaa chizig'i va o't ochish vositalari joylashuvi belgilanadi.
3. Durbin – joy va dushmanni uzoqdan kuzatish uchun mo'ljallangan optik vosita.
4. Kuzatish jurnali – kuzatuv natijalari haqida barcha ma'lumotlarni yozib borish uchun.
5. Soat – aniq vaqtni bilish va qayd qilish uchun.

6. Telefon (radiostansiya) – komandir bilan aloqa qilish va ma'lumot yetkazish uchun.
7. Ofitser chizg'ichi va qalami – xarita ustida ishlash, aniqlik kiritish uchun.
8. Kuzatuv posti plansheti – dala sharoitida joy va dushmanni razvedka qilishda yordam berishi uchun.

3 Kuzatuvchining majburiyatlari va xabar berish tartibi

Kuzatuvchi quyidagilarga majbur:

- kuzatish uchun joy tanlash, uni niqoblash, jihozlashga, yilning har qanday faslida, kun hamda tunda joyni mo'ljallay olishga, nishongacha (obyektgacha) bo'lgan masofani aniqlaydigan, aloqa va tungi ko'rish vositalaridan foydalanishni bilishga;
- dushman jangovar texnikasi, qurol-yarog'larini sezdirib qo'yadigan razvedka belgilarini bilishga, ma'lumotlarni tahlil qilishga, kuzatuv daftariga yozib borishga va kuzatuv natijalarini komandirga (kuzatuv posti kattasiga) bildirishga.

Dushmanni razvedka qilish uchun kuzatuvchi zimmasiga kuzatish rayoni yoki obyektini tayinlanadi.

Tevarak-atrof past-balandliklardan iborat bo'lganda, kuzatuvchiga kuzatuv sektori tayinlanadi.

Kuzatuvchiga vazifa sifatida quyidagilar topshiriladi:

- mo'ljallar va joylardagi narsalarni kodlash (shartli);
- o'z bo'linmalari va dushman to'g'risida ma'lumotlar yig'ish;
- kuzatuv olib borish o'rnini aniqlash;
- kuzatuv sektori (doirasi), rayoni (obyekti)da nimalarni kuzatishi va nimalarga alohida e'tibor berishi;
- dushman samolyot (vertolyot)lari uchib kelish ehtimoli bor yo'nalishlarni aniqlash;
- kuzatish natijalarini bildirish tartibi va xabar berish signallarini nazoratga olish.

Topshiriq

- ▶ Kuzatuvchining majburiyatlari, kuzatish anjomlari, joylarni kuzatish usullarini jadval ko'rinishida shakllantiring.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Jangda kuzatuvchi etib tayinlangan askar joylarni kuzatishda qanday usullardan foydalanadi?
- 2 Kuzatuvchining anjomlari qanday buyumlardan tashkil topgan bo'ladi?
- 3 Kuzatuvchi etib tayinlangan askarning qanday majburiyatlari bo'ladi?

Dars davomida

- ▶ yadroviy qurolning portlash turlari;
- ▶ yadro qurolining talafot yetkazish omillari haqida tushuncha olasiz.

O'ylab ko'ring

Dushman tomonidan qo'llaniladigan yadroviy qirg'in quollarining oddiy qurollardan qanday farqlari bor?


1 Yadroviy qurolning portlash turlari

Yadro har xil balandlikda – havoda, yer yuzida (suv yuzida), yer ostida (suv ostida) portlashi mumkin. Shunga asosan portlashlar turlariga havoda, yer ustida (suv ustida) va yer ostida (suv ostida) deb aniqlik kiritiladi (1-rasm).

Har bir portlash turining asosiy xususiyatidan biri – joylarni radioaktiv moddalar bilan zararlantirish darajasining turlichaligi.

Havoda portlash sodir bo'lganda radioaktiv moddalar bilan zararlantirish xavfi uncha katta bo'lmagan hudud, asosan portlash sodir bo'lgan hududda tug'ilishi mumkin. Portlash hududi markaziga qanchalik yaqin bo'lsa, xavf shunchalik ortadi.

Yerusti va yerosti portlashlari yadro portlashi hududidek radioaktiv bulut yo'nalishi bo'ylab keng maydonlarning zararlantirishini keltirib chiqaradi. Biroq zararlantirgan hududlarni kerakli xafvsizlik qoidalariga rioya qilgan holda tanklar, bronetransportyorlar, avtomobillarda, hattoki piyoda ham kesib o'tish mumkin.



a

b

d

e


1-rasm. Yadro zaryadini portlatish turlari:
a – havoda; b – yer yuzida; d – yer ostida; e – suv ostida.

Suv yuzasi va suv ostida portlash yuz berganda portlash joylariga yaqin bo'lgan kemalar va boshqa qurilmalar kuchli zararlanadi. Agar portlash qirg'oqqa yaqin bo'lsa, kuchli zararlanish qirg'oq hududlari, portlar, harbiy dengiz bazasi, aholi yashash maskanlari va qirg'oqda joylashgan boshqa qurilmalarga ta'sir etishi mumkin.

2 Yadro qurolining talafot yetkazish omillari


Yadroviy qurol shikastlovchi omillar quyidagilardan iborat: zarba to'liqini, yorug'lik nurlanishi, o'tuvchan radiatsiya, joylarning radiofaol moddalar bilan zararlanishi, elektromagnit impulsi.

Zarba to'liqini. Yadro portlashdagi zarbali to'liqin oddiy portlashdagi zarbali to'liqinga o'xshaydi, biroq ancha vaqtgacha cho'ziladi va vayronagarchiligi ko'proq kuchga ega. U portlash markazidan uzoq masofadagi insonlarga ham shikast yetkazishi mumkin, bundan tashqari, qurilishlarni vayronaga aylantirishi, harbiy texnikalar va mulklarni ishdan chiqarishi mumkin. Bunda yadroviy portlash energiyasining taxminan 50% qismi sarflanadi.



2-rasm. Zarb to'liqinining tezligi

Yorug'lik nurlanishi – yadroviy portlash tufayli hosil bo'lgan olovli shardan chiqadigan va yuqori darajada kuydiruvchi issiqlik energiyasini tarqatadigan yorug'lik nuri oqimidan iborat. Yadroviy portlash jami energiyasining taxminan 35% qismi yorug'lik nurlanishiga to'g'ri keladi. Yorug'lik nuri tarqalishi 8–15 soniya davom etadi. Bu nur faqat to'g'ri yo'nalishda tarqaladi. Shaffof bo'lmagan har qanday to'siq yorug'lik nurlanishi ta'siridan saqlab qoladi (3-rasm).



3-rasm. Yadroviy portlashning yorug'lik nurlanishi

O'tuvchan radiatsiya yadroviy portlashda chiqadigan ko'rinmas va sezilmas gamma-nurlar hamda neytronlar oqimidan iborat. Bunga yadroviy portlash energiyasining taxminan 5% qismi sarflanadi.

Yadroviy portlash sodir bo'lgandan 15–20 soniya o'tgach, yadro va termoyadro reaksiyasi natijasida gamma-nurlar, neytronlar oqimi, alfa va beta-zarrachalarining juda kuchli oqimi tarqaladi. Lekin o'tuvchan radiatsiya faqat gamma-nurlar va neytronlar oqimi hisoblanadi, alfa va beta-zarrachalarining havoda bosib o'tgan yo'li qisqa bo'lgani uchun ularda o'tuvchanlik xossasi kam.

Alfa-zarrachalar geliy atomi yadrosidan iborat bo'lib, ikki proton va ikki neytrondan tashkil topgan. U ikkilangan musbat zaryadga va massaning 4 atom birligiga teng bo'lgan nisbiy katta massaga ega.

Beta-zarrachalar elektron yoki pozitronidir. Har bir beta-zarracha bir elementar elektr zaryadiga teng bo'lgan zaryadga ega.

Gamma-nurlar nur energiyasining ayrim fotonlari oqimidan iborat bo'lib, to'g'ri chiziq bo'ylab yorug'lik tezligida (300000 km/soniya) tarqaladi.

Joylarning radiofaol moddalar bilan zararlanishi yadroviy portlash oqibatida hosil bo'ladi, bunda yadroviy portlash energiyasining taxminan 10% qismi sarflanadi.

Elektromagnit impuls va ikkilamchi zararlovchi omillar. Yadroviy zaryadlarning portlashi natijasida havoning ionlashishi kuzatiladi. Hosil bo'lgan elektronlarning yuqori tezlikdagi harakati tufayli elektromagnit maydoni paydo bo'ladi. Buning natijasida elektromagnit zaryad va tok hosil bo'ladi. Atmosferada paydo bo'lgan elektromagnit impuls chaqmoq singari tarqalgan holda antennalarda, kabellarda, elektr uzatish tarmoqlarida va simlarda yuqori kuchlanishga ega bo'lgan tok hosil qiladi.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Yadroviy qurol deganda qanday qurolni tushunasiz va uning portlash turlarini bilasizmi?
- 2 Yadro quroli qo'llanilganda u insoniyatga qanday talafot yetkazadi?

 Dars davomida

- ▶ kimyoviy qirg'in qurollari;
- ▶ biologik qirg'in qurollari haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

 O'ylab ko'ring

Kimyoviy va biologik qirg'in qurollari yadro qurolidan qanday farq qiladi?

 **1 Kimyoviy qirg'in qurollari**

Kimyoviy qurollarga tarkibiga jangda tirik kuchlarni shikastlashda qo'llaniladigan zaharlovchi moddalar kiradi. Bu moddalar gaz, suyuqlik, tuman va tutun ko'rinishida qo'llanilishi mumkin.

Inson zaharlangan havodan nafas olganida ko'zi, terisi va kiyim-boshiga zaharlovchi modda tushganda, shuningdek, zaharlangan oziq-ovqat yoki suv iste'mol qilganda zararlanadi.

Paydo bo'lgan klinik belgilarga, patologik jarayonning xususiyatiga, tibbiy yordam ko'rsatish, davolash usullari hamda tashkiliy ishlarning umumiylikiga qarab zaharlovchi moddalar quyidagi o'xshash guruhlarga bo'linadi:

1. **Asablarni falajlash ta'siriga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar:** zarin, zoman, V-gazlari.
2. Terida yara paydo qilish ta'siriga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar: iprit, azotli ipritlar, lyuizit.
3. Umumiy zaharlash ta'siriga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar: sianid kislota, xlorsian.
4. Bo'g'uvchi ta'siriga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar: fosgen, difosgen.
5. Psixokimyoviy ta'siriga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar: lizergin kislotaning dietilamidi (DLK), BZ (Bi-zet).
6. **Ta'sirlash xususiyatiga ega bo'lgan zaharlovchi moddalar:**

a) yuqori nafas yo'llari va burun shilliq pardasiga ta'sir etuvchi zaharlovchi moddalar (sternitlar): adamsit, difenilxlorarsin, difenilsianarsin;


b) ko'z shilliq pardasiga ta'sir etuvchi zaharlovchi moddalar (ko'zdan yosh oqizuvchi yoki lakrimatorlar): brombenzilsianid, xloratsetofenon, Si-es (CS) va Si-ar (CR).

ZAHARLOVCHI MODDALAR TA'SIR QILISH XUSUSIYATI VA NATIJASIGA QARAB IKKI GURUHGA BO'LINADI:

1. O'ldiruvchi zaharlovchi moddalar (asablarni falajlovchi, terida yara paydo qiluvchi, umumiy zaharlovchi va bo'g'uvchi ta'sirga ega).

2. Vaqtincha safdan chiqaruvchi zaharlovchi moddalar psixokimyoviy va ta'sirlash xususiyatiga ega. Ular qo'llanilganda harbiy qo'shinlarning ish faoliyati pasayadi.

Aviatsiya bomba raketalari, artilleriya snaryadlari, minalar va fugaslar zaharlovchi moddalar bilan to'ldiriladi. Zaharlovchi moddalarni qo'llash uchun quyuvchi aviatsiya asboblari va maxsus kimyoviy mashinalar ishlatiladi (1-rasm).



1-rasm. Kimyoviy qurolni nishonga yetkazish vositalari

2 Biologik qirg'in qurollari

Biologik qurollar – maxsus biologik vositalar bilan to'ldirilgan qurol-yarog'lar va ularni nishonga olib borish vositalaridir.


Ular qishloq xo'jaligi jonzoatlari, o'simliklar, odamlarni yo'q qilishga mo'ljallangan. Biologik qurollar ishlatilishi bilan olib boriladigan urushlar biologik urushlar deyiladi. Biologik qurolning shikastlovchi omilini biologik vositalar tashkil etadi. Ular jangovar holda ishlatish uchun ajratib olingan biologik agentlar bo'lib, inson organizmiga tushganda og'ir kasallanishga olib keladi.

Ularga kasallik tarqatuvchi mikroorganizmlar, mikroob toksinlari (ayrim mikroblar, hayot faoliyati davomida hosil bo'ladigan zaharli moddalar) kiradi.

Donli va texnik ekin maydonlarini yo'q qilish, shu bilan birga, davlat iqtisodiy salohiyatini izdan chiqarish maqsadida hasharotlardan foydalanilishi mumkin.

Mikroorganizmlar, yuqumli kasallik tarqatuvchi mikroblar biologik xossalari va o'lchamlariga ko'ra quyidagi sinflarga bo'linadi: *bakteriyalar, viruslar, rikketsiyalar, zamburug'lar va mikroob toksinlari.*

Mustaqil bajarish uchun vazifa



Topshiriq

- ▷ Kimyoviy va biologik qurollarning ro'yxatini tuzing.

Bilimingizni sinab ko'ring

- 1 Ommaviy qirg'in qurollari – kimyoviy, biologik qurollarni tavsiflab bering.
- 2 Kimyoviy va biologik qurollarni nishonga yetkazishning qanday vositalarini bilasiz?

O'quv nashri

Mamadaliyev Ulug'bek Odilovich, Uzoqov Akram Avazovich,
Sotvoldiyev Abdulxoshim Yuldashovich, Jalilov Nodirjon Azamatovich

**CHAQIRUVGA QADAR
BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK**
11-sinf

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

Respublika ta'lim markazi
Toshkent – 2025

Muharrir	<i>Vohidjon G'aniyev</i>
Musahhih	<i>Nargiza Sotvoldiyeva</i>
Texnik muharrir	<i>Alimardon Aqilov</i>
Badiiy muharrir	<i>Sarvar Farmonov</i>
Fotosuratchi	<i>Asliddinxo'ja Xotamov</i>
Rassom	<i>Umid Sulaymonov</i>
Sahifalovchi-dizayner	<i>Sanjar Doniyorov</i>

Nashriyot litsensiyasi № 140295. 04.10.2023-yilda berilgan.
Bosishga 14.08.2025 ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/16.
Kegli 11, "Arial" garniturasida. Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 13. Nashr tabog'i 14,07.
Adadi 566139 nusxa. Buyurtma raqami 214.

G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128, Toshkent, Labzak ko'chasi, 86.